

## “ Yaralangan Ishq ... “



### 1 - Qism

Mart oyining 13-inchi sanasi . Havo negadir bulutli , balkim yomg'ir yo'gar . Shu havoda uzun poshnasini taqillatkanча oqishiga shoshilyotkan qiz , qolida bir uyim qo'goz va fayllarni kotarganча qadamini tezlishtirdi . Sovuq shamol qizning uzun va tundeк qora sochlarini oynar va oynab yuziga tushirardi . Qolidagi narsalar ko'pligidan yuzidagi sochini olishga iloji bolmasdi . Shahlo ko'zlarini esa yoldan uzmasdi . G'unча labi bilan yuziga tushkan sochlarini puf-puflab joyiga qaytarishga urinardi .

Qadaminu tezlatkancha katta yolga chiqdi va mashina signalidan chochib ketib oyog'i qayrilib yiqildi , qolidagi uyim qogozlar esa shamolda sochilib katta yolda yoyilib ketdi ...

Nargiza bir zum yerda yoyilib ketkan bir oylik mehnatiga songra esa uni majaqlab ketishiga 2 sm qolgan mashinaga qarab dovdirab qoldi . Axir qorqib ketdi , sal qolsa hayot bilan vidolashishi mumkun edi . Haqiqiy daxshat ... Qarshisida savlat tokib turgan qop-qora Malibuni eshigi zarb bilan ochildi-da , undan yoshi 23-24 lardagi , qosh-kozi qop-qora uzun kipriklari qoshigacha yetib turgan , yigitlarga chiroyli tarifi ishlatilmasa ham U bundan mustasno bolgan yigit tushib keldi . Kelishgan yigit shahd bilan Nargiza tomon keldi . Xuddi hozir qizga sevgi isxor qiladigandek , Nargizani hayajon egalladi . Ammo endi osmonga uchib ketyotgan qizni , yigitning baqirigi yerga GURS etib tushirdi ...

- Kòzing kòrmiiii ??? ...-- unga baqirib bergan yigitga qarab Nargiza ham zahrini topladida yaxshilab oqladi .

- A ? Kim kòr ?

- Yolning ortasiga telbaga oxshab yugurib chiqqaning nimasi ?

- Men shoshyotkandim

- Narigi dunyogami ?

- Nimaaa ? Men òz yolimdan yurdim.

- Svetofor nimaligini bilasanmi ?

- Sizchi , piyodalar yolagi nimaligini bilasizmi ?

- Bu seni oqlamaydi . Avval onnga , keyin esa chapka qarash kerak . Ota-onang orgatmaganmi ? ....

Òrgatmaganmi ? Nargizani eng nozik nuqtasi . Qayerdanham òrgatsin , ahir ular yòqku . Esini taniganidan beri bolalar uyida katta boldi . Boyyetib uyerdan chiqqan zahoti esa òzi uchun yangi va bahtli hayot qurmoqchi boldi . Omadi kelib oqishga kirdi .

Òzbekston Jurnalistika Fakultetiga .

Nega aynan bu fakultetga kirganini sorashganda " Men javob berishni emas , savol berishni istayman " deb aytgandi ... Xozir unga oqrayib qarab turgan yigitga gapirmoqchi boldiyu , bog'ziga tiqilgan alam , kòzidan yosh bolib oqib ketmasligi uchun òzini zòrga ushlab turdi ...

- Xoy , senga gapiryabman .

- Nima ? Balki yordam berarsiz ? ...- iloji boricha muloyim bolishga harakat qilardi Nargiza. Yigit unga uzatilgan qollarga qarab turdida , ushlab tortti . Birdan turib ketkan Nargiza chap oyog'ining o'grigidan baqirib yubordi .

- Ayyy sekinroq , oyog'immm ...- deya qayta yerga otirib qoldi .

- Bu nimasi ? Hoy qiz tomosha korsatishni bas qil !!! Shoshib turibman ketishim kerak ...

- Xaa albatta , men esa bekorchimman va kun boyi shu mashina tagida otirmoqchiman .

- Sennn .....- deya endi og'iz juftlagan ham ediki oziga oqtalغان barmoqtan sozini ohiriga yetkazolmay qoldi .
- Siz birinchidan meni mashinada bosib ketay dedingiz , ikkinchidan oyoqimni sindirdingiz , uchunchidan esa meni 1 oylik mehnatimni yer bilan bir qildingizz ...- deya yolda sochilib yotkan qogozlarga ishora qildi .-- Tortinchidan esa meni shu ahvolimda tashlab ketmqochisizzzz , shuham odamgarchiliktanmi ????
- Telba ekansan-kuu . Ozingni mashinam tagiga otting . Ikki qarich keladigan oyoq kiyimda oyoqing qayrilgani uchun shuncha ayblov-mii ?? ...- kesatib kuldi yigit .
- Demak yordam bermaysiz ?!
- Menga qara qizaloq shoshib turibman . Juda muhum majlisim bor . Sen bilan bu yerda kechgacha pachakilashib otirolmayman . Sen yaxshisi bunday qil . Qogozlaringni yigda keyingi mashinani kut . Keyin esa ozingni tagiga tashla . Songra bilganingni qil . HOZIR ESA YOLIMDAN QOCH !!!!
- Demak shunday . Ozingizdan koring . VOYDDOOOODDDDD , OYOG'IMMM , KIMM BORRRRR . YORDAM BERINGGG ... - Nargiza bor ovozida baqirib odamlarni toplay boshladi . Hamma yolda mashina tagida qolishiga oz qolgan qiz tomon oshiqardi ....

## 2 - Qism

- Hoy qiz esing joyidami ??? Bu nima qilganing ?
  - Siz birinchi boshladingiz .....
  - Yaxshi , bopti . Seni kasalhonaga olib boraman .
  - Yoq , oqishga
  - Bu ahvolingda oqishga borolmaysan .
  - Bu sizni ishingiz emas ...
  - Bilganingni qil . Yaxshi olib boraman
  - Keyin kasalhonaga
  - Nima , boshqa qiladigan ishim yoqmi . Men seni shaxsiy haydovching emasmannnn.
  - Demak konmaysiz
  - To'g'ri kasalhonaga boramiz
  - Ammo menn..
- Shu payt ular tomon bir ayol kela boshladi va vahima kotarib ketti
- Voydod , qizalog'im bir olimdan qolibsana . Xudo asrabdi . Umring uzoq bolsin . Qay go'rdan bu baloga yoliqting . Endi nima qilasan . Hayoting barbod boldi . Endi nima boladi , voy hudoyim odamlar . Qanday kunlarga qoldik .....-- u dodlayverib hammani yigib oldi .
  - Senga shu kerakmidi ?-- pichirlab soradi yigit

- Xudo asrasin
- Unda qochtik
- Olga ....- qiz yigitni uzatgan qolini mahkam ushladida ornidan turib mashina tomon keta boshladi . Oyoġining oġrigidan zõrga yurib mashinaga otirdi , yigit ham rolga otirib gazni bosdi . Qiz mashina oynasidan haliham dod solgancha ularni hatto ketkanini ham payqamagan ayolga nazar tashlarkan kulgusi qistadi va kulib yubordi
- Oġriq otib ketti shekilli .
- A ? Yoġee zirqirab oġriyabti . Qaysi kasalhonaga ketyabmiz õzi
- Aniqroġi jinnihonaga
- Nimaa ?
- Sendek telbaning õzodlikta yurishi havfli . Ayniqsa mendek beozor odamlar uchun
- Beozor ? ... --Savol nazari bilan yigitga termulib turdida qah qah otkancha kulib yubordi
- Qizlarga hoz noziklik qayerda
- Nima qilay , uyattan quzarib tirjayib otiraymi ? ...-- kesatib gap otti qiz
- Iloji bolsa yuzingni narigi tarafga burib otir . Turqingni korishga hushim yõq
- Hm , ahborotiguz uchun " turq " emas " yuz " .... -- deya zahrini sochdida oyna tarafga ogirilib oldi ... va kõz oldiga yolda sochilib ketkan qozġozlar keldi . Balki u boshqalar uchun shunchaki yozuv qoġozidir . Ammo unga qancha vaqt va kuch sarflab yozgan narsalarichi . Bugun ustoz Maryam Hakimova uni aynan shu mehnati bilan kutadi . Nima deydi ahir ..... shu hayollar bilan mashinaning qattiq tormozidan yuzini urib olishiga sal qoldi . Va jahl bilan yonidagi yigitga qarab
- Tonka
- Nimadir dedingizmi , quloġim yaxshi eshtmaydi ....-- savol va mazah qilganday qaradi yigit
- Balki eshikni ocharsiz .
- Balki ichkariga kirgizib õzim ko'rib qoyarman ...-- yõq u bu safar haddidan oshdi deya oylardi Nargiza
- Undanam yaxshiroq ish qiling .
- O , masalan
- Daff boling !! ..--.mashinadan tushib choloqlangancha kasalhonaga kirib ketti . Mashinada ortidan qarab qolgan yigit esa bunday telba bilan boshqa uchrashmasligiga umid qilib gazni bosdi va tezroq majlisga yetib borishga harakat qildi ...

### 3 qism

- Voy hudoyim Nargizzz , bu nima ahvol ....- eshiktan kirgan zahoti Nargizning bint bilan oralgan oyoġini korib vahimaga tushgan Laylo , dugonasining qarshisiga otirgancha soroqqa tutti ...- Sen yana nimalarni boshlab yuribsan , qachon aqling kiradi ???

- Eyy xech narsani boshlaganim yòq . Shunchaki bahtsiz hodisa roy berdi , shu xolos ...
- Nima boldi , nima boldi??? ...\_ suhbatni eshtib-oq oyoq kiyimini ham yechishga ulgurmay yugurib kirgan Madina qizlarga savol nazari bilan qarab turardi ..- Xoooosh nimadan quruq qoldim ???
- Aytarli xech narsa . Qizlar bas qilinglar endi . Xozir xech narsani aytadigan ahvolda emasman . Jinni bolib qolay deyabman . Bugungi kunim rasvo otti . Hatto oqishga ham bormadim ...
- Bu ahvolda borolmasding . Yozma ishchi . 1 oylik mehnating edi ahir .
- Qoy shu yozma ishni ...--.Madina oyoq kiyimini yechib qaytib yugurib kirdida Nargiza bilan Layloning ortasiga otirib oldi ....- Sen bundan gapir ...--ishora qildi Nargizni oyoğiga ..- Bu qanday boldi ?
- Qanday bolardi . Bitta tonka mashinada bosib ketay dedi . Shu xolos
- Nimaaaaaa ?? -- Dugonalarining hayqirigidan chochib tushgan Nargiza ularning oğzini yobti
- Jimmmm ....-- barmogini labiga bosti . Xozir qoshnilar yugurib chiqadi ...
- Keyinchi ....-- pichirlab soradi Madina
- Keyin nima bolardi , meni kasalhonaga olib bordi .-- .òz-òzidan Nargiz ham pichirlab gapirdi .
- Nega pichirlashyabsiz ..-- .tushunmay soradi Laylo
- Ee rostanham , aniq -tiniq qili gapir mundoq . Dadil-dadill
- Uff , hullas mashina menga 2 sm qolganda tohtadi , men esa qo'rquvdan shoshib oyoğim qayrilib ketti va payi chozilibt . Doktor shunday dedi . Maryam Hakimovaga telefon qilib vaziyatni tushintirdim . Ishondimi yòqmi bilmayman. Ammo menga boshqa vazifa berishini aytti ...
- Ishingchi . U nima boladi ?...-- havotirli gapirdi Laylo
- Ayttiku payi chozilibt deb . 1-2kunda otib ketadi guzalim uni ustiga hozir toylar mavsumi emasku . Òzi kechagina toy boldi . Endi shu bilan 1 haftalardan keyin bolsa kerak menimcha ....\_qizlarni tinchlantirgan boldi Madina .
- Ungacha esa oyoğim tuzalib qolar ...-- Nargiza shu hayollar bilan òzini ovutardi . Hayolining bir chekkasida esa uni jinnihonaga tiqmoqchi bolgan tonka kelardi va òz òzidan labiga tabassum yugurdi ...

\* \* \* \* \*

- Hashamatli uy . 4 qavatli , oldida bog orqasida basseyn ... Hatto kichik golf maydonchasi ham bor . Uy ichi esa muzeyning òzginasi . Antikvar buyumlardan tortib XXI asr texnikasigacha toldirilgan . Hatto uyning padvali ham bezatilgan va U yerda sport zal yaratilgan . Shu hashamatning 4 qavatidagi yolakning ohirida joylashgan chap tarafdagi eshik zarb bilan ochilib undan 24 - 25 yoshli yigit honaga otilib kirdi
- Shoxruh ?
  - Qayerdan payda bolding ...- .vannadan boshini sochiqqa artganacha Shoxruh chiqib keldi ..
  - Dostim ...-- deya uni borib bağriga bosti ...- Seni ko'radigan kun ham bor ekanku , toğrisi amakim seni kelyabt deganlarida hayron qoldim . Hattoki ishonmadim . Shox Londonni tashlab bu yerga hayotta kelmaydi deb oylagandim .

- Xaa . Ammo ahvolni bilasan . Bugun kelib-oq shu bilan shugullandim .
- Bolmasamchi . Bilganda qandoq . Kompaniyada yosh va kelishgan yigit paydo bolibti yuu bilmay boladimi ?
- Tushunmadim
- Ahir butun kompaniyadagi qizlar sen haqingda gapirishyabti . Hattoki kim birinchi ilintirish boyincha garov ham oynashgan ...-- deya kulib yubordi
- Shunaqa deginnn ..Hmmm ... Demak bir narsa aniq Jasur
- Nima ekan ? ...-- qiziqsinib dostiga yaqinlashdi Jasur
- Men buyerda zerikmayman ...-- deya Jasurga kòz qisib qoydi Shoxruh va ikki dost qol tashlashganicha kulishdi ....
- Ha aytkancha , bugun kech qolibsan Shox . Nimadir boldimi , ahir vaqtni xech otkazmasding ?....-- Jasurning bergan savoli Shoxruhni sergak torttirdi va bugungi telba qizni esladi
- Xa boldi ?
- Nima boldi ?
- Yolimni qora mushuk kesib otti ....-- òzicha osha qizga laqab qoygan boldi Shoxruh va qoygan nomidan mamnun kulib qoydi ....

#### 4 qism

Nargiza erta tongdan turib , oqishiga tayorlandi . Oyoġini qimirlatib korgandi oġriġi ancha bosilibti . Choloqlanmayabti ham , bu yaxshi . Kiyinib , òziga bir qarab oldida , qizlarga tayorlagan nonushtani ustini yopib qoyib , chiqib ketti . Bugun havo ajoyib . Quyosh charaqlab turibti . Ishqilib Nargizani quyosh nurida kuydirmasin .

" Bugungi kunim yaxshi otsindaa " deya iltijo qilyotkan qizni yolidan

Olim Azimov chiqib qoldi .

- Assalomu aleykum.

- Vaaleykum assalom

Negadir bugun avzoyi buzuq . Ishqilib alamini Nargizadan olmasinda . Birinchi dars uniki edi . Nargiza ustozdan ruhsat sorab Maryam Hakimovaga uchrashaman deb oylagandi . Ammo endi bilsa chuchvarani hom sanagan ekan . 90 daqiqalik darstan song Nargiza kurstoshi Diyoraning hay-haylashiga qaramay yugurib chiqib ketti va toġri Maryam Hakimovaning honasiga yetib tohtadi . Chuqur-chuqur nafas oldida eshikni taqillatti . Eshik ortidan esa dadil va jarangdor ovoz keldi

- Kiring .

\* \* \* \*

Shoxrux tuni boyi deyarli kòz ilmadi . Bu yerga ancha vaqt kelmagandi , shuning uchun ham organishi qiyin kechyabti . Buyerda otkan kunlarini eslab , U uchun jahannamga aylanib ulgurgan uydan siqila boshladi . Xuddi uni boğyotkandek his qildi özini va ohiri ornidan turib yuvinish honasiga yol oldi ....

Ertalabki dasturhon atrofida hardoyimgidek Otasi Aziz Nizamov va uning suyukli rafiqasi , shu bilan birga Shoxruxni ogay onasi Dilbar Nizamova otirardi . Shoxrux ertalabdan ogay onasining mamnun chehrasini korib ishtahasi yuqoldi

" Bu ilon nega xursand , yana nimani oylab qoydi ekan " ...deya hayolidan otkazdi .

- Xayrli tong Shoxrux. Yaxshi dam oldingmi ? ....-- sòzlarida qanchalik samimiyat bolsa kòzlarida shunchalik nafrat bilinib turardi . Tabiyki buni faqat Shoxruh sezdi . Ahir otasiga bu ilon zahar bersa asal bolib tuyuladiku . Kòzi kòr , quloği kar ...

( 50 yoshni qoralab qolgan Aziz Nizamov òzining biznesini 20 yoshida boshlagan . 23 yoshida Shoxruhning onasi Oygul bilan tanishadi va sevib turmush qurishadi . 25 yoshida esa Shoxrux dunyoga keladi . U paytga kelib esa Aziz , allaqachon Aziz Nizamovga aylanadi . Shoxruh asta ulğaya boshlaydi . Yolğiz oğil , hammaning erkasi va merosxor boladi . Ammo U 10 yoshga tolganida onasi oğir hastalik yani oq qon tufayli olamdan otadi . Bu Shoxrux va otasi uchun katta zarba boladi . Oradan 1 oycha vaqt otib stressta yurgan Shoxruxni otasi uni bir yosh ayol bilan tanishtiradi . Dilbar Aziz Nizamovdan 10 yosh kichik bolgan , ammo oshanda bu Dilbar uchun muhim emas edi ... Oradan bir necha oy otib ular turmush qurishadi . Shoxrux oshanda chinakam yolğizlik girdobiga tushib qolgan edi . Yoshi 11-da bolsaham katta odamlardek fikrlardi ... Ogay onasining qopol munosabati , otasining doyimiy ish safarida bolishi va umuman oğliga etibor bermasligi Shoxruhning qaddini bukib qoyadi . Osha vaqtda Dilbar homilador boladi va yana bor etibor egasiga aylanadi . Ammo oradan uzoq vaqt otmay homilasidan ayriladi . Bu bir necha bor takrorlanadi va Dilbarning tushkunlikka tushib qolishiga sabab boladi . Dilbar esa bor alamini Shoxruktan oladi . Osmirlik davrini qattiq bosim va taziqlar ostida otkazishini hohlamagan Shaxruhning ammasi va Aziz Nizamovning yakkayu yagona jigari Nigora Nizamova Shoxruxni chet elga oqishga jonatishini kerakligini akasiga tinmay aytib ohiri kondiradi . 15 yoshida uyidan badargà qilingan Shoxrux sovuq va notanish insonlar orasida vaqt otkazadi . Oradan 8 yil otib mana va nihoyat U uyiga qaytti . Ammo xech narsa ozgarmagan . Osha nafrat tola nigohlar va burnidan ip otkazilib olgan soqir kòzlaru kar quloqlar ... )

## 5 - Qism

Shoxruh ertalabki asabiy nonushtadan song kompaniyaga yol oldi . Otasi deyarli gapirmadi , balki gapirishga yuzi yòqdir . Ahir bir vaqtlar keraksiz buyumdek chetka uloqtirib endi , kerak bolgan paytta izlab qoldi .... Ammo ogay onasi , unga nimadir bolgan . Òzgarib qolibdimi . Nima emush

" Òzga yurtlarda rosa qiynalgandirsana oğlim "

" Sen yoğingda uy huvillab qoldi "

" Dadang bilan seni rosa soğindik "

" Dadasi , Shoxrux juda aqlli yigit bolib osibtiya , endi uylanadigan vaqti ham keldiyov " ...

- Kimsan sen ? Kimsan ???? ...--Shoxruh bor ovozida baqirib rolni musht bilan urdi ...- Oson ekanmi ? Shunchalik osonmi ??? .... -- uning kòzlarida yosh toldi . Kelganiga afsuslandi .. Nega keldi òzi ? Otasi

yuborgan birgina SMS tufayli osha zahotiyòq , yangi ishidan boshab yugurib kelibti . Nima degandi , Shoxrux osha xabarni haliham telefonida saqlab turgandi

" Shoxrux xozir menga juda keraksan . Qayt , iltimos " , shu jumlar bilan yozilgan xabarni olgan zahoti undan bahtli inson bolmagandi . Otam va nihoyat ođlını sođinibti , endi meni borligimni sezibti-- deya uchib keldi . Londondan a ?

Samalyottan tushkan zahoti esa kutish zaliga bordi . Yòq xech kim yòq ... Avvaliga kech kelishar deb kutti .... Ammo baribir xech kim yòq . Samalyot kechqurun qongani uchun tongacha kutish zalida otirdi , ammo darak yòq .

Tonga yaqin esa ammasi Nigora Nizamova telefon qilib vaziyatni tushuntirdi .

" Xozir otang ođir ahvolda . Kompaniyalari krizisga tushish ehtimoli bor . Unga aqlli va tajribali maslahatchi kerak edi . Darrov seni eslattim , va ko'ndirdim . Shox ođlim ozingni korsatish vaqti keldi . Ogay onangni tomoshalariyu , sòzlari endi o'tmaydi . Oz hissalaring va merosinga ega bol . Unutma sen yolgiz merosxorsan . Senga omad tilayman . Xa tođri Kompaniyaga bor . Mayli meni ham bemorlarim kutib qoldi . Boshashim bilan uchrashamiz .... "

- Eslattim dedilarmi ? Ahir unutilganlar eslanadi ... Nahotki otam meni unutti ...-- Shoxrux alam va ğazab bilan mashinaga otirdi . Kelishidan oldin buyurtma bergan mashinasi aeraport yonida taht turardi . Mashinani bor tezligida haydadi . Ammo qalbidagi ođriq xech tinchlik bermasdi , shu asnoda bir qizni urib yuborishiga sal qoldi . Sal telbaroq , yòq ğirt telba , jizzaki , jahldor , va juda chiroyli .... Unga 1 soat vaqti ketti . Ammo shu 1 soat ichida U hamma narsani unutti , hatto qalbidagi ođriq ham bosilgandek boldi ... Unga òzicha " Qora mushuk " deya laqab qoydi ....

Shu hayollar bilan mashinani ot oldirib yolga otlandi va hujjatlarni yonidagi orindiqqa qoymoqchi bolganda kòzi orindiqqa qisilib qolgan medalyonga tushdi ... Juda bejirim va qimmatbaho medalyon , estalikka oxshaydi .

" Osha qizniki " -- deya oyladi Shoxrux . Chunki mashina hali yangi va unga osha qizdan boshqa odam hali otirmadi .... Medalyonni kostyumining ichki chontagiga solib qoydi va kompaniyaga qarab yol oldi ...

\* \* \* \*

- Xayrli tong qizlar ... -- xush kayfiyatta nonushta qilyotkan qizlar tomon kelib salomlashdi Nargiza

- Senga ham deya dugonalari joy korsatishti . Chocotellani nonga surib yeyotkan Nargizaga , Laylo va Madina savol nazari bilan qarab turishardi .

- Nimadir boldimi qizlar ?

- Buni sen aytishing kerak dugonajon ... -- deya Madina qoshlarini chimirib qoydi

- Nimani aytishim kerak ?

- Uff Nargiz ahir kecha yozma ishing orniga topshiriq olmoqchi edingku nima boldi ? ...-- besabrlanib soradi Laylo .

- Xaa umi , ...-- Nargiza choyidan bir hoplab qizlari qaradi .. - Xullas yozma ishim " Biznes va unga qoyilgan ilk qadam " edi ... Afsuski u havoga uchib yer bilan bir bolgandan keyin , osha yozma ishni intervyu orqali amalga oshirishim kerak ekan .



- Zòrkuu .... iy tohtachi , yana qanaqa intervyu ? Ahir hali 1 kurs bolsang , tajribang yòqku ...--deya vahima kotardi Madina
- Madi , Maryam Hakimova " sen bu ishni uddalaysan , senga ishonaman Nargiza " dedilar . Qanday qilib qolimdan kelmaydi deymen . Uni ustiga bu qiyin emas , ahir bilasanku odamni ichidagi sugurib olishda menga yetadigani yòooq ...-- deya Nargiza bir qoshini uchurib qoydi .
- Albatta duganojon eplaysan ....--deya dalda berdi Laylo .
- Xosh , nishoning kim ?
- Bilmayman , Madi . Hayolimga super muper biznesmen kelmayabti ...
- Men bittasini bilaman , hatto instagram sahifasi ham bor , juda zamonaviy boboy .
- Madinaa ....--deya Laylo oqrayib qoydi ...- Yana qanaqa boboy ?
- Uff 50 yoshda , boboyda .- .takrorladi Madina ...-
- Kim ekan ..- .qiziqib soradi Nargiza
- Aziz Nizamov ....- deya sòzlariga ulgu berdi Madina .
- Xosh uni qayerdan topaman .
- Katta ehtimol bilan , kompaniyasidan . U import bilan shugullanadi , biznesini 20 yoshida boshlagan .
- Ana xolos , unga borib nima qilaman . Intervyuni sendan ham olsam bolar ekanku ...-- deya kuldi Nargiza , unga dugonalari ham jor bolishdi ..

## 6 Qism

Nargiza oynadagi aksiga qarar ekan oziga bolgan ishonchidan faxrlandi . Hammasi yaxshi boladi . U uddalaydi . Bosib otgan mashaqqatli yolini oqlaydi . Ko'rgan azobu uqubatlarini unutadigan bahtli hayoti boladi . Onasi darvoza tagiga tashlab ketkan qandaydir tashlandiq emas , aqlli va oziga ishongan qiz turibti . U haligacha tushunmaydi .

" Nega onam mendan voz kechkan ? " " Nahotki uning hayotida kichkina godakka joy bolmadi ? "

" Men juda aqlli qiz edimku , umuman onamni charchatmasdim, ranjitmasdim " ... kòzgdagi qizning kòzlaridan yosh oqti . Konglidagi xech qachon xech nima toldirolmaydigan boshliqta o'griq turdi . Boshi egildi , va yuzini yuvayotkan kòz yoshlar bilan birga tabassum qildi ....

- Nargizaaa ...-- " Madinaning jarangdor ovozi bordaa " -... oyladi Nargiz .

- Boryabman qizlar ...-- deya Nargiza qizlarni yoniga chiqti .. - Tayyorman kettik .

- Voy xudoyim , Nargiz senga bu kostyum judayam yarashibti ...-- Klassik uslubta tikilgan kostyum va poshnali tufli . Sochini tepaga yigib , oppoq yuzida qirmizi lablar zeb berib turardi ...- Juda chiroylisan ... Laylo ichidagi zavqni yashirolmasdi .

- Rostan ham ochilib ketibsiz jurnalist honim ...-- deya maqtab qoydi Madina .... - Ha aytkancha , yana bir malumot , Aziz Nizamovning biznesi anchayin zarbalarga uchrabti . Xozirda krizis yoqasida ekan . Uni jarliktan olib chiqish uchun Londondan Biznes maslahatchi kelibti .

- Shuncha narsa qayerdan Madi ...-- deya hayron qoldi Laylo
- Meni bilasanku yer tagida ilon qimirlasa bilamaaann ...-- deya kulib qoydi Madina
- Baloni oqisan Madii , yaxshiyam sen borsan deya dugonalarini quchdi Nargzia ...

20 qavatli bino yonida turgan Nargizani hayajon bosti . Biroz qo'rquv ham sezdi . Oson ekanmi , har holda torga otkizib dardini dasturhon qilmaydi . Qabul qilsa ham katta gap . Bor jasoratini jamlab ichkariga qadam qoydi . Va eshikdan kirgan zahoti to'grida turgan qabulhonaga yuzlandi

- Assalomu aleykum.

- Vaaleykum assalom . Assalomu aleykum....-- deya yoqimtoy va samimiy boqadigan qiz Nargiza yuzlandi ..-- Xizmat ?

- Haligi , menga Aziz Nizamov kerak edilar .

- Uchrashuv belgilanganmi ?

- Yòq , oldindan belgilanmagan . Gap shundaki men Jurnalistika fakulteti talabasiman . Va menga vazifa berilgan . " Biznesga qoyilgan ilk qadam " mavzusida Aziz Nizamovdan intervyu olmoqchidim ...--.dona dona qilib tutilmay galirganidan hotirjam tortkan Nargiza qizni javobini intizorlik bilan kutardi ... qiz asta sekin raqamlarni terib kimgadir qongiroq qildi va boshini silkib " Xop boladi " deya Nargizaga yuzlandi va

- 11 qavat , 7 honada sizni Aziz Nizamovning kotibalari kutib oladi .

- Minnatdorman ...-- Nargizani shunchalik hayajon bostiki hatto qollarini qaltirashidan liftni tugmasini zòrga bosti , lift ochilgach ichkariga kirdi va 11 qavat tugmasini bosib eshik yopilishini kutti . Eshiklar yopilishiga 10 sm qolgandi eshik orasiga lakirovniy tuflari qisilib qoldi va eshiklar qayta ochildi . Nargiza hayajondan qoyadigan savollarini takrorlagancha boshini egib turardi , lift qayta yopildi va kirgan kishi qolidagi qo'g'ozlarni tinmay varoqlab nimanidir qidirardi . Quloqi tagida varoqning shitirlashidan asabi va hayoli buzilgan Nargiza yonidagi odamga yuzlanib endi

- Kechirasiz balki .... --- davom ettirilmay qoldi ... Varoqlarni titishdan tohtab qizga yuzlangan nigohlar esa

- Kechirdim ...-- deya ayyorona jilmayib qoydi .

- Siz ? Bu yerda niam qilyabsiz ?

- Senga nima ?

- Xechnima , mendan nari turing va shitirlatishni bas qiling , hayolimni bolyabsiz ?

- Hm hayolingni bolyotkan qo'g'ozlar ekaniga aminmisan ...-- deya ayyorona qarash qilgan yigitning surbetligidan jahli chiqqan Nargiza , bolajak intervyusini oylab ozini bosti .

- Xa . Endi esa hamma oz ishiga ..--deya yigitga bir oqrayib oldinga qaradida yana beradigan savollarini oylay boshladi . Shu payt birdan lifttagi chiroq ochib lift qotib qoldi va birdan tohtagani uchun Nargiza muvozanatni yuqotib yiqilishiga oz qolganda uni Shoxrux tutib qoldi .Bir zum toqnashgan nigohlar ikkisini ham galati hislar girdobiga tushirdi .

## 7 Qism

Nargiza nigohini olib qochib o'zini nari oldi . Shoxrux esa hali hamon qizdan kòz uzmagandi .

- Lift ...-- qaltiroq ovozda sozladi Nargiza .

- Bolib turadi ...-- deya Shoxruh telefonini olib elektr - texnika bolimiga qongiroq qildi va vaziyatni tushintirdi . Ammo hal qilishga kam deganda 1 soat vaqt ketishini bilgach hafsalasi pir bolib telefonni ochirib qoydi . Nigohi burchakka tiqilib chuqur-chuqur nafas olyotkan qizga tushdi

- Hoy ahvoling yaxshimi ?

- H..Haa -- qaltiroq ovozda javob berdi qiz .

- Klaustrofobiyang bormi ? ...-- hadik bilan soradi Shohrux

Qiz " Yòq " manosida bosh silkib qoydi . Shoxrux nima qilishini bilamy bir zum oylanib qoldi va qizni gapga olishga harakat qildi .

- Bu yerga qaysi shamol uchurdi ?

- Nima ? ...-- birdan berilgan savolga qiz dovdirab qoldi ..- Men haligi , jurnalist , intervyu, biznes ....-- deya valdiray ketti

- Esing joyidami? .... -- Shoxruhning bu sozi va kamsitilib qaralgan nigohlari Nargizadagi qorquvni daf qildi va yana zahar tili ishka tushdi .

- Unutdingizmi , ahir telbaman ..-- deya tirjayib qoydi .

- Bolmasamchi , shu bilan birga kasofatsan .

- Nimaaaa ?

- Xaa kasofat , qora mushuk -- deya tongillab qoydi

- Qora mushuk ...-- oziga berilgan tariftan gangib qolgan Nargiza qolidagi sumka bilan yigitga tushirib qolmoqchi boldi

- Hey qiz , esingni yig . Hoziroq mendan uzoq turmasang shu yerdan chiqqan zahotim seni jinnihonaga jonataman !!!

- Undan oldin men sizni arshi olaga jonataman .

- Telba

- Qopol

- Kasofat

- Tonka

- Qora mushuk

- Qorqoq sichqon

- Sichqon , bu yana nimaga ?
  - Bilamayman, hayolimga kelgani .
  - Qizning gapidan Shoxrux kuldi .
  - Nimasi kulguli , hoy nega otirib olyabsiz ? ...-deya yerga otirib olgan Shoxruxga yuzlandi Nargiza .
  - Bu yerda 1 soatcha qolib ketamiz
  - Aaa ???
  - Nega baqirasan ?
  - Shunaqa katta binoda tuzukroq elektrik yòqmi ?
  - Xoy , bu yerdagilar elektrik, afsungar Merlin emas . Biroz sabr qil , buncha besabrsan
  - Ahir mening ishim muhim edi , juda muhim ...--deya Nargiza ham otirib olib nolishka tushdi , Axir U borgunicha Aziz Nizamov ketib qolsachi ? ...- Bu binoda yana lift bormi ?
  - Xa yana 3 ta bor .
  - Daxshat , nega shularga chiqmadimmmm
  - Foydasi bolmasdi
  - Nega ekan ? ...-- deya oqraydi Nargiza
  - Chunki sen girt kasofatsan . Baloyu ofatlarning uyasi ....
  - Ajab bopti , menku mayli , xosh sizchi . Sizni bu liftga nima boshladi ?
  - Òzi bugun yolimni qora mushuk kesib otkandi , bejiz emas ekan
  - Xoyy ...- deya barmogini niqtadi Nargiza ...- Meni haqorat qilishni bas qiling , qizlarga bolgan hurmatingiz shumi ?
  - Yòq , albatta . Meni qizlarga bolgan hurmatim cheksiz ....--deya qollarini keng yoydi Shoxrux
  - Xoosh ...- .deya qaradi Nargiza
  - Nima xosh , bu hurmatga seni nima aloqang bor ? ...- tushunmagan ifoda tanitti Shoxrux
  - Bez-bett ...- deya dona-dona qildi Nargiza
  - Ka-so-fat
  - Tonka
  - Qora mushuk
  - Ajab bopti ....
- Ohiri oralarida chokkan sukunat uzođi bilan 10 soniya davom etti ...

- Bu yerga nega kelganding ? ... - qiziqishini yashira olmagan Shoxrux ohiri yorildi .

- Sizga nima ? ...- deya yuzini burib otirgan Nargizani ham hayolida

" U buyerda nima qilyabti " ..degan savol aylanardi ... - Sizchi ? Sizga nima bor ?

- Senga nima ? ...- deya kinoya qildi Shoxrux ...

- Buncha qopolsiz ?

- Buni oynaga qarab aytyabsanmi ?-- Liftning orqa tomoniga kòzgu ornatilgan edi , Shoxruxning ishorasidan song Nargizaning figoni falakka chiqdi

- Sizz ozidan boshqani mensimaydigan bezbet ekansiz . Odam degan biroz pasroq tushadi ..--deya ornidan sapchib turdi

- Balki sen meni yonimga chiqarsan ?

- Qizlarga yumshoqroq muomila qilish kerak !!! Onangiz orgatmaganmi ?

- Onamga til tekkizma ...-- deya kòzlarida g'azab bilan ornidan otilib qizga barmoqlarini oqtalgan Shoxruxning vajohatidan Nargiza biroz orqaga tisarildi . Ammo birdan ishlab ketgan lift tepaga harakat qilgani uchun Nargizaning uzun poshnasi qayrilib yiqildi va Shoxruxni ham ozi bilan yiqitti . 8 smlik masofada hatto nafas ham olmayotkan Nargiza Shoxruxning tunde k zulmat kòzlariga g'arq bolgandi ...

" Yigit kishi ham shunchalik chiroyli boladimi ? Essiz shunday chiroy qayerdagi bezbet tonkaga nasib qilibdi " deya oylardi Nargiza ...

" Bu guzallik tariflashga til ojiz , ammo zahar tili bolmaganda farishtaning ozi bolib qolar ekan . Yana bir baloni boshladi , ha U haqiqiy Qora mushuk " deya oylardi Shoxrux .

Ikkisining ham hayollarini birdan ochilgan lift eshigi oldida toplangan odamlar buzib yubordi

- Shox !!! ...-- deya Jasur lift ichida qandaydir qiz bilan bir biriga termulib turgan Shoxruxga hayron qaradi va ayyorona jilmayib qoydi ...

Nargiza darrov ozini qolga olib ornidan turdi va usti boshini qoqqan boldi , songra liftan otilib chiqib ayollar honasiga bordi . Oynaga qarab ozini tanimay qoldi . Qordek oppoq yuzi pomidorday qizarib ketibdi . Yana osha Bezbet tonkani yonidaya .

" Ahmoqsan Nargiza , ahmoq. Uni kòzlariga qaramasliging kerak edi " deya tinmay ozini koyigancha

Aziz Nizamovning kabinetiga qarab yol oldi .

- Buni qaranglar , juda ekonomchisanda Shox , har qanday vaqttan unumli foydalanasan ...--deya dostini ustidan tinmay kulyotkan Jasurni Shoxning norozi nigohlari tohtatti .

- Bu tasodif edi . Bunchalik chaynalish va borttirish shart emas .

- Hmmm , albatta nima desang shu , ammo bu qiz kim òzi . Oldin kompaniyada kormagan ekanman ...deya oylanib qolgan Jasurga qarab Shoxrux ham biroz jim qoldi . " U tinmay Meni muhim ishim bor dedi , ishi nima bolgan bolishi mumkun " deya oyga tolib qolgan Shoxruxni Jasurning turtkilashi chalgitti .

- Kimga gapiryabman ? ....-- deya barmog'ini qarsillatti Jasur

- Nima deyotkanding ?

- Kotibang , undan soraylik deyotkandim .

- Kotibam , men hali ....-gapini tugatishga ulgurmay eshik ochilib bir qiz kirib keldi ... Boyi 1.60 . Qomati modellarnikidek . Kiyib olgan koftasini qora rangi bolmasa yoq hisobi , bir qarich keladigan yubkasini esa aytmasa ham boladi . Labini boteks qilgani bilinib turardi , qoshlari tatuaj va hatto 1 metr qilib kiprik ham qoygandi . Bir sòz bilan tariflaganda

" Kukla " ... agar to'g'riroq tarif berilsa

" Qimmatbaho guzallik " deyish to'g'riroq bolardi . Chunki bu chiroyga ketkan pulga bitta Djentra mashinasini olsa boladi ....

- Soleykum ....

" hatto salomni ham eplab berolmaydi , hartugul ishi tuzukroq bolsin " deya ichida aytib qoydi Shoxrux va qizga

- Xozircha sizga ruhsat , kerak payti ozim chaqiraman .--deya qizni chiqarib yubordi ...- Bu qayerdan paydo boldi ? Òzi kelganimga 2 kun boldi . Òzim ham kotiba topardim .....--deya Jasurga norozi tongillab qoydi

- Bilaman dostim . Ammo bu qizni amakim ishga oldi , kelinoyim tavsiya qildi ....

"Kelinoyim " bu sozdan keyin Shoxruxning asabi yanayam taranglashdi , ichida esa

" Yòq , bu ilon òzgarmagan . Òzgarmaydi ham . Shunchaki kutyabti . Qulay vaziyatni kutyabti ... " deya bezovtalanib qoydi ....

## 8 Qism

Nargiza kotiba bilan uchrashgach to'g'ri Aziz Nizamovning honasiga kirdi . Hona did bilan bezatilgan , oyoq ostida qimmatli qandaydir shaxarning tasviri tushirilgan gilam , divan va stol , devorlarda esa Nargiza TVda korgan boylarning tili bilan aytkanda " bebaho sanat asari " ilinib turardi ... Hona torida esa Aziz Nizamov savlat tokib turardi . Nargiza biroz hayajon bilan sozladi

- A.. Assalomu aleykum.

- Vaaleykum assalom . Xush kelibsiz , marhamat otiring ....-- deya Nargizaga joy korsatib sinchkovlik bilan tikildi . Aziz Nizamovning nigohidan yanada hayajon boskan Nargiza divanga omonatgina chokti .

- Xosh , bu yerga sizni nima boshlab keldi ? ....-- garchi hamma gaptan xabardor bolsada , qizning ozidan vaziyatni bilmoqchi edi . Bu Aziz Nizamovning òz tili bilan aytganda

" tryugi " . Kimdir haqida yoki nimadir haqida bilsa ham qayta so'rashdan erinmaydi . Bu orqali U hammaning bir narsa haqida kòzqarashi va fikrini biladi .

- Men Jurnalistika fakulteti talabasiman . Hozirda 1 kursman . Va menga oraliqni yopish uchun yozma ish topshirilgan edi . Ammo ayrim muommolar tufayli U bekor boldi . Shuning uchun yangi vazifa oldim . Yozma ishning mavzusi

" Biznesga qoyilgan ilk qadam " edi ... Va endi bu mavzuda intervyu tayorlashim kerak . Hammaga malum siz Òzbekstonda òz orni va nufuziga ega biznesmensiz ( Ha bu esa Nargizaning " tryugi " . Har qanday inson maqtovni yoqtiradi va hattoki sevadi ham . Nargiza esa maqtov yomg'irini yogdirishni qoyillatadi . )

Shuning uchun ham tajribalaringiz va qimmatbaho fikrlaringiz bilan boshqalarni ham xabardor qilsangiz .

- Hmm . Tushunarli . Nima ham derdim . Manzilda adashmabsiz ...-- deya òzidan mamnun jilmayib qoydi Aziz Nizamov.

Nargiza , Aziz Nizamovning boskan yoli va qiyinchiliklari haqida yozib oldi . Ammo Aziz Nizamov faqat aytishni maqul ko'rgan narsalarni gina sòzlagan edi . Va u kattagina gap qilib

" Bularning hammasi rafiqam Dilbar Nizamovaning qollab quvvatlashi tufayli " deya qistirib o'tti ... Nargiza esa buni katta harflar bilan daftariga bitti ....

- Songi sòz ornida , sizni biznesga qiziqishingiz va vazifangizga yordam sifatida ertaga uyimda boladigan bazmga taklif etaman . U yerda albatta rafiqam bilan tanishasiz .

- Albatta . Bajonudil taklifingizni qabul qilaman . Menga vaqt ajratkaningiz uchun minnatdorman . Xayrli kun

- Sizga ham ....

Nargiza honadan chiqib chuqur nafas oldi . Uddaladi ...

" Unchalik ham qiyin emas ekan . Ammo hamma ham Aziz Nizamovdek bosiq va ochiq emasda ... " deya oylab qoydi ichida ... va togriga qarab keta boshladi ... liftga burilishda hayol bilan bolib kimgadir turtilib ketti va uning qolidagi qogozlar yerga sochilib ketti ... Nargiza hadik bilan toqnashgan odamiga qaradi va bir juft qahvarang kòzlarning tanali nigohiga duch keldi ... Yoshi 23 larda bolgan yoqimtoy va judaa kelishgan yigit unga bir oqrayib qogozlarini yiga boshladi ... Nargiza bir zum òzining qopolligidan hijolat chekib unga yordam berishga oshiqdi . Yerdagi yoyilgan qogozlarni ehtiyotlab olib puf-puflab egasiga berdi va boshini egkancha kechirim soradi ....

- UZR sorayman . Payqamay qolibman .

- Xech qisi yòq ... -- mayin va jiddiy ovozda soz qotti yigit ...- Katta korhonalarda ham kichik toqnashuvlar bolib turadi....--deya kòzini qisib otib ketti ...

" Nima dedi ? Katta korhonalarda ham kichik toqnashuvlar bolib turadi .... hind kinosini kop ko'rar ekanmi ? ... Ammo juda muloyim ekan , hazili ham òziga yarashkan . Muhumi kechirim sorashni biladi . Anavu Bezbet tonkadek basharanga oqrayib turmaydi . Tohtachi ..... Ufff Nargizz oylama shuni ... Ammo uning qop-qora kòzlari..... Ee yòqq Nargiza OY-LA-MA ..... " Nargiza ichida shularni takrorlab yurib ketti va togrı lift eshigi yoniga kelib tohtadi . Tugmachani bosti . Ishlayabti . Ammo ichidagi qorquv liftga chiqishga halaqit berar edi

" Nima qilsam ekan ? Bu yer 11 qavat . Agar zinadan tushsam ... Òzi 48 kg bolsam . Tushgunimcha ozib yòq bolib qolamanku . Yòq nima bolsa boldi . Tavakkal .. " deya lift tugmasini yana bir bor bosib liftga chiqdi .....

Shoxrux Jasur bilan qiladigan ishlari va kelgusi rejalari haqida suhbatlashardi ..

- Demak haqiqat ekanda .... -- eshik yonidan eshtilgan yoqimli va jiddiy ovoz va ayyorona boqib turgan qahvarang kòzlar egasi jilmayib qoydi ...- Afsona haqiqatga aylanib tikuu ..

- Senga ham xayrli kun Farruh ... -- deya g'azabini korsatmaslikka harakat qilib jilmaydi Shoxrux .

- Xush kelibsan Farruh , ko'rinmay qolganinga havotir ola boshlagandim ...-- deya Jasur bir biriga tashlanishga tayyor turgan sherlarni ortasiga tushib .. ( Xa Shoxrux va Farruh bolaliktan bir birni yoqtirmay va kelishmay kelgan . Eng yomoni esa Farruh , Aziz Nizamovning singlisi va Shoxruxning ammasi Nigora Nizamovning yakkayu yagona o'g'li . Eridan erta beva qolgach , akasining yordami tufayli oyoqqa turgan , va hozirda mashhur shifokor va o'z kasalhonasining egasi bolgan Nigor Nizamova o'g'lini akasining qol ostiga berdi . Farruhning aqli va zakovati Aziz Nizamovning etiboriga tushib , uni yanada yuqoriga kotardi va qollab quvvatladi ... Ammo Shoxrux . U bularning hammasini korib osti ... Va aynan shu uchun ham Farruhni yoqtirmaydi . Ammo Farruhning munosabati Shoxruxga nisbattan yomonroq . U Shoxruxga huddi yolidagi katta tosiqdek qaraydi .... )

- Xavotirga hojat yòq Jasur . Men doyim shu yerda bolganman va bundan keyin ham shunday boladi ...--deya Shoxga tekkizib gapirdi Farruh .

- Tushunarli. Mana nega kompaniya jar yoqasida ekan ....-- deya Shoxrux ham kesatib qoydi .... va ornidan turib ketishga cho'glandi ... - Jasur fayllarni kotibadan e-mail-ga jonat , uyda qarab chiqaman . Bu yerning atmosferasiga chidab bolmaydi ....--deya Eshiktan chiqib ketti ... Farruh esa nafrat tola nigohi bilan uni kuzatib qoldi ....

## 9 Qism

Nargiza kech qurunga osh qilib qizlarni kutardi . Bugungi ishi omadli bolgani ( shu onda Nargiza yana osha bir juft qora kòzlarni esladi va boshini qattiq silkitib hayolini yigishtirdi ) uchun o'zicha qizlar bilan kichkina bazm qilmoqchi edi .... Va nhoyat eshik ochilib qizlar kelishdi ..

-Bopladimaa ..--deya Madina Layloni turtib kulib yubordi ... Uning jarangdor kulgusi butun uyni tutib ketti . Madinaning ovozi jarangdordaa ....

- Xayrli kech .... --oshxona eshigiga suyangancha qizlarga peshvoz chiqdi Nargiza ...

- Sengaham ....-- deya Laylo yuvinish honasiga ketti .

- Sengaham xayrli bolsin guzalimmm . Xoosh bugungi kuning qalay otti ....-- deya Madina Nargizni qolidan tortqilab stulga otirgizdi ...

- Yaxshi .

- Shunchaki yaxshimi? .....-- deya Nargizaning gapidan kongli topmaganini bildirib qoydi Madina .

- Bugun osh qildingmi ???....-- deya Laylo oshxonaga kirib keldi .

- Ochofat , oshni qoyatur . Avval bugun nimalar bolganini bilayliikk ....--deya toqatsizlandi Madina

- Xayaa , Nargiz ishing nima boldi ...

Nargiza bu ikkisiga bolgan voqeani ipidan ignasigacha aytib bermasa qutulmasligini bilib taslim boldi va hammasini nuqta , verguligacha sòzlab berdi .... - Xullas shunaqa gaplar .



- Sen U yigit bilan liftda qamalib qoldingmi ??? ....-- Madinaning hayoliga kelgan ilk narsa tiliga kochdi
- Aziz Nizamov seni bazmga taklif qildimi ? ...-- deya Laylo quvonchini yashirmay hayrat bilan soradi
- Osha yigit bilan tortishdingmi ?
- Bazm ertaga ekanmi ?
- U seni Qora mushuk desa indamay turaveringmi ?
- Ahir bazm bolsa zòrku , u yerda yanayam koproq malumot olasan .
- Shu gapi uchun yaxshilab tebmadingmi
- Uffff yetareeee ....--dugonalaring savol oqlari tagida qolib nafasi qaytgan Nargiza ornidan otilib turib ketti ....- Qizlaar , sekinroqda , navbat bilan .

Birinchidan, Madina men ham òz haqimni qoldirganim yòq . Osha Bezbet tonkani esa boshqa korishni ham , eslashni ham hohlamayman .

Ikkinchidan esa , Laylo ha meni bazmga taklif qilishdi va men rozi boldim . Endi ertaga Aziz Nizamovning uyiga boraman va u yerda uning rafiqasi va Tadbirkorlar bilan suhbat qilaman degan niyattaman . Xozirga shular . Yana savollar bormi .... Agar bor bolsa unuting !!!!! .....-- deya Nargiza qozonni gazdan olib boshqa plitaga qoydida , oshni suza boshladi ... Qizlar tanovvul qilishgach idish tovoqlarga yuvishdi va hamma mehmonhonaga yigilib yostiqlarini uchburhak qilishdida yotib olishdi ... Ular doyim shunday qilishardi .. Bu uch qiz " Bolalar uyida " tanishishkan . Layloni ota-onasi 5 yoshligida avtohalokatta qurbon bolishkan . Va Laylo bolalar uyida boshpana topkan . Qalbi òksib ota-ona mehridan mosuvo bolgan Laylo tabiyatan bosiq , aqlli va mulohazali qiz bolib osti ...

Madina esa 8 yoshligida uyidan qochkan . Uning yengiltak onasi qizini pullamoqchi bolganida Madina uydan qochib qoshnisinikiga chiqqan va ulàrdan yordam soragan . Tez orada esa hamma joyni militsiya bosib onasi qamalib ketkan va Madina bolalar uyiga topshirilgan . Madina sharttiki va bezbetroq. Hayoliga kelganini qiladi va òzini xech kimga hafa qildirib qoymaydi . Nafaqat òzini , balki opa-singildek bolib qolgan dugonalarini ham .....

Nargiza ... uni otmishi yòq hisobi . Godak 3 oyligidan boshlab tashqi olamni farqlay boshlaydi va eng avvalo onasini taniydi . Ammo Nargiza ... U esini taniganidan beri yetim .... aniqrogi " Tashlandiq " ... Nargizani bolalar uyi darvozasi yoniga tashlab ketishgan , yangi tugilgan chaqaloqni ... Shavqatsizlarcha ... Hayot shundaylarga ham onalik huquqini berarkan . Ammo bir marta ... Balki hozir Nargizaning onasi ham afsuslaniyotkandir ... Lekin hammani ichini ortaydigan bir haqiqat bor .

" Afsuslanishdan nima foyda " ...

- Nargiza ... -- ancha vaqttan song endi kòzi iliniyotkan Nargizani Madinaning jarangdor ovozi chochitib yubordi.
- Nimaa ....--uyqusirab javob berdi Nargiza ..
- Alam qilyabti .
- Nima alam qilyabti .

- Anavu tonkani seni " Qora mushuk " degani ....-- Madinaning gapidan keyin ularni jim eshtib turgan Laylo qah qah otib kulib yubordi , keyin Nargiza

- Nimasi kulguli ?... --qizlarga norozi tongilladi Madina .

- Shunisida ...-- deya Madinani qattiq quchoqlab oldi Nargiza, Laylo ham kelib ularga qoshildi ...

- Yaxshiyam sizlar borsiz...--deya chuqur ho'rsinib qoydi Nargiza ..

\* \* \* \*

Shoxrux uyga kelib chuqur nafas oldi . Farruhning hali ham ozgarmagani hayron qolarli narsa emas . Ammo nega U Shoxruxga buncha alamzadaligi qiziq . Bilmagan odam Farruh Shoxning ogay ukasi deb oylaydi .... Bazida Shox , Farruh rostan ham Ammasining o'gli ekaniga shubha qiladi .. Ammo rahmatli pochchasi yomon odam bolmagan . Shox uni o'z bolsa ham tanirdi . Har korganida Shoxruxni boshini silab mehr bergan . Onasi olganida ham yonida bolgan ammasi va pochchasi edi .

- Yaxshi keldingizmi ? ....-- Shoxruxning hayollarini xizmatkor qizning ovozi bolib yubordi .. U avval bu qizni kormagandi . Qayerdan ham korsin o'zi kelganiga 2 kun bolgan bolsa , undaham honasidan chiqmay otirdiku ..

- Yaxshi ....-- sovuqqina qilib javob berdi Shoxrux va to'g'ri zinaga qarab ketarkan birdan tohtadi . Undan hali ham ko'z uzmay qarab turgan qizga burildida

- Umida xola qayerda ....--deya savol berdi ... Undan boshqa gap kutgan shekilli qizning hafsalasi pir bolgani yuzidan malum edi , shuning uchun quriqqina

- Oshxonada ....-- deb burilib ketti ..

Oshxonada tinmay kuymalanyotkan yoshi 40lar atrofida yuziga ajin sochlariga oq oralagan , ko'zlari samimiy boquvchi Umida xola kechqurunga dolma qilyotkan edi . Shoxrux yaxshi koradi ...--deya harakatni boshlab yuborgandi ...

- Xayrli kunlarr Oshxonamiz Qirolichasiiii ...--deya Shoxrux oshxonaga kirib unga kulib qarab turgan Umida xolaga tazim qilgan boldi ...

- Sizga ham xayrli bolsin o'glim .

- Umida xola necha marta aytkanman , sizlamang meni . Ahir men boshligingiz emas o'glingizmanku .....-- deya moltirab qaradi ... Yosh boladek nigohlarni korib erib ketkan Umida xola ham

- Nima desang shu o'glim -- deya Shoxning yelkasidan qoqib qoydi ..... - Sizga ...Senga nimadir kerakmi ?

- Xa , hardoyimgidek ..

- Qora qahva ...--deya Shoxruxning gapini yakunladi Umida xola

- Xuddi shunday ...-- deya jilmayib qoydi ...

Umida xola , Shoxruxning ikkinchi onasidek . Ogay onasi bu uyga qadam bosib uydagi nurni sondirgan kundan boshlab Umida xola Shoxruxga zulmatini yoritkan sham boldi . Shoxrux Londonga ketkunigacha Umida xola unga g'amhorlik va mehribonchilik qildi . Har safar bolmagur sabalar va ogay onasining

bemani harhashalari sabab otasi uni jazolaganda aynan Umida xola uni qanoti ostiga oldi va dalda berdi ....

Shoxrux qahvani olib honasiga yol oldi va eshikni ochib kirgan zahoti kòzi Unga tushdi ....

## 10 Qism

Shoxrux qahvasini olib honasiga yol oldi va eshiktan kirgan zahoti kòzi Unga tushdi ...

- Sen ?

- Sizga ham xayrli kun Shoxrux aka -- ....deya mayin tabassum sohibasi ornidan turib Shoxruxga peshvoz chiqdi va yengil quchib qoydi ... Shoxrux esa haykaldek qotib turardi ... - Tushinmadim . Nimaga hayron bolyabsiz ?

- Buyerga qanday kirding ? Nega meni kelishingdan ogohlantirmading ?

Honani qizning qongiroqdek kulgusi tutib ketti ..

- Aslida bu savollarni sizga men berishim kerak Shoxrux Nizamov . Qachon keldingiz ? Nega meni bohavar qilmadingiz ? Kutib olardim ....

- Bunga hojat yòq edi . Kelganimga 2 kun boldi Sabina .

- Hm . Mayli kechirdim . Muhimi shuyerdasiz ...-- Qizning qarashidan òzini noqulay his qilgan Shoxrux òzini nari oldi va borib ish stoliga otirdida noutbukni yoqti . Email da yangi xabar . Jasur ishga oid hujjatlarni yuboribdi . Shox ularni bir bir ochib kòzdan kechira boshladi ... Chettan uni kuzatib turgan nigohlar esa yanada asabini buzardi ... Sabina ..

Sabina Karimova ... Shoxrux , Jasur , Farruh va Sabina birga katta bolishgan . Oilalari dost edi ... Sabina Jasurning singlisi ... U esini taniganidan beri Shoxruxni sevadi .. Hatto Shoxrux Londonga oqishga ketkandida , uydagilariga-- men ham Londonga boraman-- deb rosa janjal qilgandi . Ammo ota onasi qiz bola , begona mamlakat deya jonatishmadi ... Ularning kòziga hatto Shoxrux ham korinmasdi . Ammo hozir aksincha . Qarib qolgan Aziz Nizamovning yakkayu yagona merosxori Shoxrux hammani suyuklisi bolgan ... Sabina Shoxruxning kelganini eshtishi bilan yuragi hapqirib shuncha yillik soginchi bosilgandek boldi . Ammo uni korganida , ancha òzgarganini sezdi . Hatto hozir ham U Shoxga termulib otirardi U esa qizga hatto qayrilib ham qaramadi . .....

Sabina ozini ortiqcha his qildi va sekin ornidan turib eshiktan chiqib keta boshladi , hatto chiqayotib ortiga bir qarab qoydi va hali ham monitordan kòz uzmagani Shoxruxni korib kongli oksidi va eshikni yopib ketti .... U chiqib ketgach Shoxrux chuqur nafas oldi va kozini yumib boshini orindiqqa tashladi .....

\*\*\*\*\*

Nargiza quvonchdan otirishga joy topolmayotkandi . Tong sahardan turib hamma joyni tozalab yaltiratib qoydi ... Qizlarni turgizib nonushta tayorladi ...

- Nargizzz chaqqon bolib qolibsanni ?

- Bugun judayam hursandman . Omadimdan aylanay . Agar hammasi yaxshi ketsa oraligimni eng alo bahoga topshirardim . Keyin 3 oylik sayotni rejalashtirardik .....
- Hoy hayolparast , balki avval ishingizga bir qiyo boqarsiz ....--deya osmonlarda uchyotkan Nargizani Layloning gapi yerga qondirdi .
- Aytkancha ish !!!!!
- Xa guzalim ish . Bugun kechqurun toy bor ekan . Hamdam aka telefon qildilar , tayyor bolinglar , katta odamning toyi muommo chiqmasin dedilar . Soat 18:00 da ekan
- Ammo bazm ...
- Uff Laylo , bechora qizni chochitmasangchi . Nargiz sen havotir olma guzalim , bemalol bazmga bor ye ich biz uchun ham quvna va eng muhimi ishingni bitir . Qolganini bizga qoyib ber .
- Hamdam aka nega Nargiza yòq desalarchi .
- Qoy osha Hamdam akangni , òzim boplayman ...--deb Layloni gapini qaytardi Madina va qizlarga kòz siqib choyidan hopladi ....

Nargizaga koylak tanlashdi , soch turmagi va hatto boyanish uchun ham hamma narsa taht . Endi faqat kechqurun bolsa boldi ...

Hamdam aka .... Nargiza , Laylo va Madina " Bolalar uyi " dan song òzlari oyoqqa turish uchun harakat qilishdi . Nargiza omadi kelib oqishga kirdi . Laylo esa med koledjda oqiyabti . Madinani esa oqishga umuman xushi yoq . Shuning uchun U Stilist sohasida talim olyabti . Turfa hil olamda oqyotkan bu qizlarni bir joyga toplaydigan ishi bor . Toyhonada ofitsiyankalik qilishadi . Tirikchilikni aybi yòq . Har Toy bolganida kelin kuyovga havas bilan qarab turgan Nargiza va Layloni , Madinaning turtishi òzlariga keltirardi ... Qizlar òz ishlarini sitqidildan bajarishadi , shuning uchun ham boshliqlari ulardan mamnun edi....

## 11 Qism

Shoxrux ertalabdan togrı ishga qarab yòl oldi va zinalardan pastka qaray tushib birinchi qavatga yetganda togrıda ogay onasining mamnun chexasini kordi ... Indamay otib ketmoqchi boldi , ammo yolini toskan Dilbar Nizamovaga tushunmay qarab qoldi . Bu tarafga yurganda yana oldi tosildi ...

- Yolimdan nari turing !!! .... -- tishlarini gijirlatib gázab bilan Shoxrux ogay onasiga qarab sòzladi .
- Bu sen oylaganchalik oson emas bolajonim ! ...
- Men sizning bolangiz emasman . Xech kimsiz men uchun !!!
- Oying bilan ham shunday gaplashasanmi ? Nahotki oqigan nufuzli Universitetingda tarbiyani orgatishmadi .. Ex nimalar deya bman òzi qanaqa tarbiya . Ahir sen onangni qornidan shunaqa tushgansanku ...
- Onamni zahar tilingizga ola kormang .... --- Shoxruxning kòzlari qonga toldi , qollari esa musht bolib tuguldi .
- Nima boldi bolajonim haqiqat yoqmadimi ?

- Yetar !!!

- To'g'ri yetar . Shunchasi yetar nima deding ?

- Bas qiling , mendan nima istaysiz òzi ?

《 Yòq bolishingni , shunchaki bolmasligingni istayman 》 ... Dilbar Nizamovaning hayolidan kochgan gaplar hayolida qoldi ...

- Aynan shunday boladi Shoxrux . Men istaganimda , men hohlaganimda tugaydi !! Shuni unutma va bekorga chiranma bolajonim ....- deya Dilbar Nizamova zinadan yuqoriga qaray chiqib ketdi ...

Shoxrux esa turgan joyida qotib qolaverdi . U bu ayolning shunchalik nafratiga loyiq nima ish qilganini tushinmasdi . Nahotki bir insonga shunchaki borliging ham malol yetsa ???

Shoxrux bor alamini ichiga yutib mashinasiga otirdi va to'g'ri kompaniyaga yol oldi ...

11 qavatga chiqishi bilan uni kotibasi Kamila ( Komila , ammo òziga Kamila yoqar ekan ) kutib oldi va uni honasida ammasi Nigora Nizamova kutib turganini aytib ertalabtan zulmatga chomgan Shoxning konglini yorishtirdi . U shoshilganча honasiga otildi . Eshikka orqa tarafi bilan otirgan ayol eshik ochilishi bilan ornidan turib burildi . Mana osha mehrli nigohlar ... Yoshi 40-42 larda , sochlariga oq oralagan . Ammo òz jozibasini yuqotmagan Nigora Nizamova Shoxruxni tabassum bilan quchoq ochib kutib oldi . Shoxrux ammasini ba'griga bosar ekan , kelganidan beri birinchi bor òzini keraklidek his qildi va mamnin jilmayib qoydi ...

\* \* \* \*

- Ufff qizlar rosa oshib ketmadimi ? ...—Oynaga qarab pardozidan kongli tolmanan Nargiza qizlarga norozi tongillab qoydi

- Xechamda , òz maromida , Bazm Malikasi bolasan .

- Nega malika ? ...-tushunmay soradi Laylo

- Uf nega malika bolardi . Ahir uyerning òz QIROLICHASI borku ...

- Xaa Dilbar Nizamova....--horsinib qoydi Nargiza va ich ichidan U bilan tezroq korishishga shoshilardi ...

- Boldi , bor endi kech qolasan . Laylo biz ham yolga chiqaylik , ha demay Toy vaqti ham bolib qoladi.

- Axa kettik ...

Qizlar yolga chiqib tarqalishdi va hamma òz yoliga ketti ....

\* \* \* \*

Nizamovlar uyi

Uyning 2 qavatidagi yolakning ong tomonidagi 3 eshik : Dilbar Nizamovaning honasi ... U kòzguga qarab turar ekan , òtkan yillar mobaynida solib boryotkan guzalligiga mahzun termulib turardi ... U shu yillar davomida nimalarga erishdi ...

Bundan 22 yil oldin , qishloqtan òz uyidan qochkan Dilbar , ichkillikka mukkasidan ketkan otasi tinmay onasini uraverganidan ohiri boshini yegandi . Onasining o'limidan song Dilbar chiday olmadi , otasining

kaltaklari ostida qoldi va ohiri qochti . Oldi ortiga qaramay qochti ... Shaxarga keldi , avvaliga ish topti . Oddiy qahvahonada farroshlik qilardi va bir kuni osha qahvahonaga tinmay kelib turadigan yigitga oshiq boldi . Oradan vaqt otti . Kundan kunga unga mehribon va muloyim bolgan yigitga boʻlganib qolaverdi va ohiri yorildi . Unga sevishini aytti . Yigit ham qizga òz tuygularini bildirdi ... Ular bahtli edi ... Toki ... Toki Dilbar homilador bolib qolmaguncha . Ammo Anvar bu habardan xursand bolmadi ... Òzicha " Anvar akam bu haqida bilgach , quvonchdan osmonga sakraydi va menga uylanadilar " degan hom hayollarni surgan Dilbarning orzulari chil parchin boldi va hayotida erkak zotiga tubsiz nafrat uygondi ... Anvar bedarak ketti . Dilbar esa qornida bolasi bilan qolib ketti . Oradan vaqt otti , chaqaloq dunyoga keldi va hayotidagi eng katta xatoga yòl qoydi . Ayni damda esa Dilbar eng toʻgri deb bilgan yolga ... Godakni

" Bolalar uyi " darvozasi yoniga tashlab ketti ... Oradan yillar otti . Dilbar hali ham farroshlikdan nariga otmagandi ... Ammo ulgʻaygandi va guzal edi ... Kunlardan bir kuni U hotinidan ayrilgan , motam tutib yurgan biznesmenga yoliqti . Va uning yarasiga òzining guzalligi va muhabbati bilan malham boldi . Kutganidek Aziz Nizamov uning qolini soradi ... Hamasi ajoyib , silliq edi ... Ammo Aziz Nizamovning oʻgli bor edi ... 10 yoshli bolakay kattalardek fikrlardi , ammo Dilbar uni xech suymadi ... yaxshi korolmadi . Òz farzandimni yaxshi koraman dedi U .

Ammo homilador bolganiga kop otmay homilasidan ayrildi . Bu bir necha bor takrorlandi va ohiri doktor unga

" Siz boshqa farzand korolmaysiz " deb aytkanidan keyin taslim boldi . Va bor alamini Shoxruxtan oldi . Nega meni bolam bolmaydi ? ..deya kuydi . Ammo xech oylamadi , xech eslamadiki " ahir farzandim bor ediku , men vos kechkan godagim " deya tushunmadi ... Mana xozir ham kòzgu qarshisida turibti ... Qalbida esa boshliq . U Aziz Nizamovni xech sevmagan . Hatto ozini ham sevolmadiku . Shuning uchun ham sovuqqon .

Dilbar Nizamova yana bir bor koʻzguga qarab oldida ornidan turib , qaddini tik tutib mehmonlar davrasiga bordi .

\* \* \* \*

Shoxrux xonasida shiftga termulib yotardi , pastta yigilgan mehmonlar esa uni zarracha qiziqtirmasdi ham . U bugun ammasi bilan bolgan suhbatni esladi

« - Kechqurungi bazmga kelarsiz ?

- Shoxrux , sendan avvalroq xabar olmoqchi edim . Ammo ishim tufayli imkoni bolmadi . Kechqurun esa uyda bolasan va men U uyga qadam bosmayman . Buni yaxshi bilasan . Bazm haqidaku aytmasa ham boladi ...

- Men uchun hammi ?

- Bazm seni kelganing sharafiga shundaymi ?

- Aniqroʻgi , Aziz Nizamov quladi deganlarning oʻgzini yopish uchun tomosha .

- Shoxrux , otang bilan gaplashdingmi ?

- Yòq .

- Nima uchun , chozib yuribsan . Gaplash , ichingdagi soginich dardi ariydi oglim .

- Otamni menga vaqti yòq .

- Adashasan , birinchi qadamni sen bosishing kerak . Ahir akamni ham yoshlari otib qoldi . Vaqt borida undan foydalan oğlim...

- Xop , harakat qilaman . »

Shu hayollar bilan ertaga kompaniyada otasi bilan gaplashishni kongliga tugib qoydi ... Eshik birdan ochilib Jasur ichkariga otilib kirdi , smoking unga òzgacha yarashib turgandi ...

- Oxxo , shaxzodamiz nima bilan band . Pastta seni valiaht etib tayinlash marosimi bolyabtiku dostim ...-- deya Jasur Shoxning yoniga otirdi . Shox erinibgina ornidan turib Jasurga jiddiy qaradi ..

- Axa , tushundim . Men boraqolay . Yaxshi dam oling valiaht .... -- Shoxrux yostiqni olib Jasurga uloqtirdi , ammo vaqtida eshikni yopkani uchun yostiq eshikka tegdi ...

## 12 Qism

Nargiza taksiga manzilni aytib borguncha barmoqlarini qayiraverib sindiray dedi ...

Va nihoyat mashina kattagina uyning darvozasi yonida tohtadi . Mashinadan uzun koylagining etagini kotarib uzun poshnasini yerga qoyib tushkan Nargiza bu hashamatni korib oğzi ochilib qoldi ... Uy naqd Qasrning òzi edi ... U darvozaga yaqinlashib qongiroqni bosdi va shu zahoti darvoza ochilib unda qopqora kiyingan yigit qolida planshetni ushlab turardi va Nargizaga yuzlanib ism sharifini soradi ...

- Nargiza Davletova ...

Yigit bir zum planshetdan uning ismi sharifini izladida va topti shekilli Nargizaga mamnun jilmayib ichkariga yol korsatti .. Ichkariga hayajon bilan qadam qoygan Nargizaning kòzi eng avvalo zinadan tushib kelayotkan Dilbar Nizamovaga tushti ... Bir zum toqnashgan nigohlar osha vaqtda tohtab qoldi . Dilbar Nizamova bu chehrani òziga yaqin oldi ... Chunki Nargizaning nurli kòzlari unga eski hotiralarni eslatti .. balki shu uchundir Dilbar Nizamova bu qizni uncha xushlamadi , va qaddini tik tutib mehmonlar davrasiga kirib ketti ...

Nargiza ostona qotib qoldi , unga oqtalغان kibrli va qahrli nigohlar etini junjukturib yubordi . Va òzini chaqirilmagan mehmondek his qildi , xizmatkor qiz eshik ostonasida turib qolgan mehmonga peshvoz chiqib ichkariga taklif qildi . Va Aziz Nizamovga xabar berdi . Aziz Nizamov, Nargizani iliq kutib oldi va òzining dostlari bilan tanishtirdi . Nargiza kerakli narsalarni telefonining diktafoniga yozib oldi ..

- Minnatdorman Aziz Nizamov, menga katta yordam berdingiz .

- Minnatdorlikka hojat yòq qizim . Yoshlarni doyim qollab quvvatlaymiz . Yordamim tekkan bolsa xursandman . Endi esa seni rafiqam bilan tanishtirmoqchiman .

- Bajonudil roziman .

Aziz Nizamov toğri sovuqqon va qahrli nigohlar tomonga yurdi , va uning qolidan ushlab bu tarafga olib keldi , Nargiza bir zum kòzlarini katta katta ochgancha turib qoldi ...

- Tanishing , menim imperiyam qirolichasi Dilbar . Dilbar Nizamova .

Dilbar Nizamova bir zum Nargizaga bepisand nigoh tashladida erining nazarida unga jilmayib qol uzatti...

- Xursandman , men Nargizaman

Deya Dilbar Nizamovaning qolini siqib qoydi ... Va qalbida qandaydir iliqlik uygondi ...

Ammo Dilbar Nizamovada bu qizga nisbattan negadir nafrat uygongandi va buni kòzlarida ochiqchasiga gavdalantirdi

Nargiza endi bazmdan biroz zavq olmoqchi boldi , ammo qiziqishi sabab eng avvalo uyni aylanishga qaror qildi . U sekin zinalardan tepaga qaray odimlay boshladi ...

Birinchi qavat , har hil honalar

Ikkinchi qavat , bu qavatta Aziz Nizamov va Dilbar Nizamova egallagan .

Uchinchi qavat , dam olish qavati ekan . Bu yerda kutubhona , oyinlar honasi va hatto bar ham joylashgan .

Tòrtinchi qavat , mehmonlar uchun atalgan honalar ekan . . .

Nargiza tortinchi qavatni kòzdan kechira boshladi , hamma hona qulf ekan , bu qavatta 5 xona joylashgan va 4 tasi qulflangan edi . Eng songidagi chap tarafda joylashgan xonaga endi yaqinlashmoqchi bolganida , zinadan tovushlar eshtildi . Va bu qavatga Aziz Nizamov bir guruh doʻstlari bilan kulishib kelardi. Nargiza bir zum nima qilarini bilmay qoldi . Uyaldi va òzini chetka biron bir korinmas joyga olmoqchi boldi . Aksiga olgandek hamma joy qulf , noiloj òzini songi honaga urdi , hayriyatki eshigi ochiq ekan eshikni ichkaridan yopib qulfladi va chuqur-chuqur nafas oldi ....

- Xush kelibsiz ...

Ortidan kelgan ovozdan Nargizaning nafasi butkul ochib qoldi va hatto kiprik ham qoqmay sekin ortiga burildi .... Va korgan insoniga qarab yigʻlab yuboray dedi ...

" Bezbet tonka " ... hayolidan otkan sozlarni tiliga kochirmadi , xozir bu yerda tinchgina chiqib ketish kerak ... Hechqanday janjal va urushlarsiz !

- Assalomu aleykum...-- nima deyishini bilmay turgan Nargiza , bu tonkaga pahta qoymasa , hammani oldida sharmanda qilishini aniq deya muloyim soz qotti ... Beozor mushukchadek òziga termulib turgan bu qizga Shoxrux oqrayib , ornidan turdi va unga yaqinlashdi ... - Hoy , agar yana bir qadam yaqinlashsangiz baqiraman !!!! Turing , tohtang . --Endi baqirmoqchi bolgan Nargizaning oʻgʻzini qoli bilan yopib " Jim " ishorasini qilgan Shoxrux qulogʻini ding qildi ... Eshik taqillashi ikkisini ham sergaklantirdi va Nargiza gap nimadaligini tushinib Shoxruxni qolidan qattiq tishladi, oʻgʻriqtan Nargizadan qolini tortib unsiz sakrayotkan Shoxruxning harakatidan Nargizning kulgusi qistadi , ichida

" Yaxshigina tazirini berdim " deya mamnun qollarini qovushtirib oldi . . .

Eshik yana taqilladi , Shoxrux òzini bosib , Nargizaga gʻazab bilan tikildida , huddi shu ohangda javob berdi

- Kim u

Eshik ortidan qiz bolaning mayin ovozi eshtildi .

- Shoxrux aka , men Sabinaman .



Qizning ovozini eshtkan Nargiza tipirchilab qoldi . Òzicha bu qiz Shoxruxning sevgilisi va xozir meni bu yerda korsa sochimni yuladi deya oyladi va Shoxruxga

" Endi nima qilamiz " deya ishora qildi .

Shoxrux esa " Xech narsa " deganday qolini ikki yonga chozib , borib eshikni ochmoqchi boldi . Ammo endi eshik tutqichini tutkanda Nargiza qoliga yopishti va " Yoq " ishorasini qilib boshini silkitti ..

- Shoxrux aka , uhlab qoldizmi ? Sizda gapim bor edi . Gaplashaylik . Iltimos ...

Shoxrux ikki ot orasida qolgandi . Eshik ortida tinmay U bilan gaplashishni iltimos qilyotkan bolaliktagi dosti Sabina .

Ichkarida esa uning qoliga yopishib " Yòq " ishorasini qilyotkan yaqindagina tanishgan

" Qora mushuk " ... Ammo Shoxrux vaziyatni baholay oladi ...

- Sabina , men dam olmoqchiman . Iloji bolsa kechroq gaplashamiz .

- Ammo sizni Aziz amakim qoshni honada kutyabtilar .

- Nega ?

- Investorlar bilan tanishtirmoqchi ekanlar .

- Yaxshi xozir boraman .

- Xop ....-- deya poshnaning taqillashi eshiktan uzoqlasha boshladi . Nargiza esa chuqur " Uuhh " tortib eshiktan nari otmoqchi edi , ammo uzun koylagining etagini Shoxrux bosib turgan ekan . Orqaga yiqilay deb turgan qizni Shoxrux tutib qoldi . Yana toqnashgan nigohlar . Garchi tillarida bir biriga nafrat oqlarini yoğdirishsa ham nigohlari aksini aytib turardi ...

Shoxrux bu hurkak ohudan har qancha uzoq yurmasin , doyim oldidan chiqib qolishiga hayron edi ... Va buning ohiri yaxshilik bilan tugamasligini uning bezovta uryotkan yuragi ham tasdiqlab turardi ...

Nargiza Bu Bezbet tonkani qollaridan qancha chiqmasin , taqdirni ozi yana uni shu qollarga tutqazyotkanidan jahli chiqardi ... Bu bezbetning nigohidan , ovozidan gaplaridan qochishi mumkun. Ammo yuragining sadosidan qayerga qochsin ....

- Shoxruxxxx

Jasurning ovozidan ikkilasiham ozlariga kelishdi va Shoxrux yana eshikka yuzlandi

- Eshttim . Xozir boraman . Sabr degan sharbattan biriz ichim turishsinn

Eshik ortidan ovoz keldi

- Bolmaydi dostim . E bularing betoqat kasaliga chalingan ekan . Bularga sharbat mumkun emas . Faqat

" tez " " shoshilinch " darrov ga oxshagan otkirroğidan ichishadi .

- Xechqisi yòq . Men bilan ishlashar ekan organishadi ...

Shoxrux unga tushunmay qarab turgan qizga bir oqrayib qoydida , shkafidan smokingni olib yuvinish xonasiga kirib ketti .. Nargiza esa bir zum qilgan hatti harakatidan hijolat tortib yer chizib turdi ...

Bir zumdan song Shoxrux yuvinish xonasidan smokingda chiqib keldi .. Unga bu kiyim juda yarashgan edi , ayniqsa sochini yaxshilab turmaklagani va atirining isi Nargizani biroz gangitib qoydi . Shuning uchun tezda kòzini boshqa tarafga olib qochgandi ...

- Men chiqib ketgach , sen ham daf bol kasofat ...-- deya eshikni tars yopib chiqib ketti ..

- Ajab bopti ... - Shoxruxning gapidan song Nargiza unga havodan zarbalar yubordi va ozini biroz bosib olib honani kòzdan kechirdi ... Harqancha qilmasin qiziquvchanlik baribir ustun keldi .. Xonasi yevropa uslubida bezatilgan va eng qizigi yotoği dumaloq edi ... Ish stoli va shkaf . Unchalik kop narsa qoyilmagan , ammo shuning ozida honada fayz bor edi ...

Ammo birorta surat yoki rasm ko'rmadi .

" Balki albomida saqlar " deya hayol qildi Nargiza

Ammo U adashgandi . Shoxruxning bolaligidan deyarli rasmi yoq edi . Albatta ish va oqish uchun olingan 3x4 va Jasurning Londonga sayohati paytida tushilgan selfilarni hisobga olmasa ...

Nargiza eshiktan chiqishdan oldin qilgan ishi notuğriligini tushunga holda stol ustidan qoğaz va ruchka olib yozdida song honani tark etti ... Nargi honaning eshiki ochiq ekan , u yerda majlis bolyabti ..

Aslida bu ikki qulf eshik bir honaniki ekan . Chunki hona katta edi va ikki eshigi ham ochiq edi . Nargiza eshik oldidan otishga biroz hijolat tortti va bir toda biznesmenlarga qarab nimalarnidir kuyib pishib gapiryotkan Shoxruxga qaradi . Shoxning kòzi Nargizaga tushgach yanada kuyib gapira ketti va hammani diqqatini oziga qaratti , ammo Shoxning bejo kòzlarini payqagan Jasur osha tomonga kòz tashladi va oyoq uchida sekin zina tomon ketyotkan qizga kòzi tushdida hayolining bir burchagida Shoxni yaxshilab soroq qilishni tugib qoydi ...

Nargiza birinchi qavatga tushgan zahoti chuqur-chuqur nafas oldi va toğri chiqish eshigi tomon otildi ... Xayrni ham nasiya qilib kochaga otilgan qiz bironta taksi topolmadi va qongiroq qilib chaqirdi . Yol boyi osha Bezbet tonkani u yerda korganiga ishonolmayotkan edi

« U nima qilyotkan edi ? Nega U uyda ? Uning honasi ekan . 4 qavattaya . Shuncha hona bola turib burchakka tiqilgani nimasi ? Nahotki U »

Nargizaning kòzlari katta ochilib oğzini qoli bilan yopib oldi

- Singlim ahvolingiz yaxshimi ?

Nargizadagi ozgarishni korgan taksist havotirla so'radi . Rangi dokadek oqarib kozlari piyoladay bolgan Nargizaning bosh silkishidan song yana yoldan kozini uzmadi

« Nahotki Uuu Aziz Nizamovning oğli bolsa ... Yoğeeee . Agar shunday bolganda Bazmning torida otirardiku . Uni uncha Aziz Nizamovga oxshamaydi . Anavu sovuq ilonga ham . Nahotki Dilbar Nizamova shu bolsa . Men uni boshqacha tasavvur qilgandim . Sovuq , kibrli va takabbur . Menga tepadan qaradimi . Buncha katta ketmasa . Ammo nimagadir unga nisbattan iliqlikni his qilyabman ... Ammo osha tonkani ... tohtachi anavi qiz kim edi ..

" Shoxrux aka " dedimi ... Orgildim . Akamush .. uff Nargiz senga nima . Demak osha Bezbet tonkani ismi Shoxrux ekandaa . »

- Shoxrux ....- Uning ismini tiliga olgan Nargizaning qalbi allanechuk bolib yuzlari qizarib ketti ...

## 14 Qism

Nargiza uyga kechlarda keldi , xech kim yòq . Tabiy hol . Toy soat 18:00 boshlangan bolsa tugaguncha , undan song ishlarni bitirush , exxee qizlar ancha qolib ketishardi ....

Nargiza òzini yotoqqa tashladi , va kòzlarini yumdi ... Bir juft qora kòzlar . Darrov qayta ochdi va yugurib yuzini sovuq suvda yuvdi .

«Ahmoqona hayollarni bas qil . Boldi endi . Unut . Ertaga oqishga borishim kerak , vazifamni toğirlab tayyorlashim kerak ... Axa yana ... yana ... Uffff osha tonka nega hayolimdan ketmayabti . »

Oynaga òz aksiga qaradi va negadir òziga bolgan ishonchni kormadi ... Sudralib yotoğiga bordida òzini tashlab kòzlarini qattiq yumdi va to uxlab qolguncha tinmay Shoxruxni sokib chiqdi ...

\* \* \*

Shoxrux investorlar bilan majlis bitkandan song , hammalari bilan bir bir alohida tanishdi va qo'zi otasini qidirdi , topti . Farruhni yelkasiga qolini qoygancha dostiga tinmay uni maqtayotkan otasini tobt ... Konglidan yana nimadir uzilgandek boldi . Nega otasining ko'zi uni kormasligini tushunmasdi . Ahir ulğaydi , qancha yutuqlarga erishdi endi esa otasining kompaniyasini qutqaryabti ... Ammo baribir osha osha qarashlar . Huddi Shoxrux yòqdek .

Shoxrux ortiq bu tomoshani korgisi kelmay xonasiga yol oldi . Eshikni ichkaridan yopib òzini ish stoliga otirdi va boshini changallab oldi ...

Kòz oldiga otasining Farruhni qollab quvvatlayotkani keldi . Oz oğlini Farruhchalik kormasligidan xorligi keldi . Hamma narsani tashlab ketkisi keldi . Shunchaki etibor istadi . Ammo xuddi tinimsiz ishlaydigan va buyruq-u haqoratlarni qabul qiladigan Robottek muomila qilishlaridan charchadi . Yòq jismi emas , ruhi charchadi ... Kòzlarini ochib nigohi noutbukka suyab qoygan qoğozga tushdi .

« Osha qiz yozib qoldirgan . Xusni hati chiroyli ekan ... »

Qoğazda esa quyidagi sozlar yozilgandi

" Yordamingiz uchun minnatdorman . Va qilgan beodobligim uchun UZR sorayman . Boshqa uchrashmaymiz deb umid qilaman .

Qora mushuk "

Ohirgi jumladan Shoxruxning yuziga tabassum yugurdi . Bu qizning òzgacha xarakteri va òzini tutishi negadir Shoxruxga boshqacha tasir qilardi . Balki shuning uchun har safar qizni korganda gashi kelar . Umidsiz insonga boglanib qolishdan qorqardi ...

Qoğazni qolidan birdan yulib olgan Jasur uni ovoz chiqarib oqishga tushdi . Uni honaga qanday kirganini payqamagan Shoxrux jahl bilan ornidan turib undan xatni olmoqchi boldi . Ammo Jasur uni bermay hona boylab yugurib qayta qayta oqirdi . Ohiri qolga tushgandan song taslimman deya ikki qolini kotarib xatni berdi va òzini yumaloq divanga tashlab kula boshladi ...

- Nimasi kulguli - Shoxning Jasurni kulishidan asabi buzildi . Jasur esa bu manzaradan battar kulardi .

- Bas qil , asabimga tegyabti . --Xatni qayta tortib olgan Jasur uni ko'tarib Shoxga yuzlandi

- Qora mushuk . Bu kim ekan ???? Kim , kim , kim ekan ??? - deya xatni tinmay silkitardi . Ohiri xatni tortib olib gijimlab otib yuborgan Shoxrux Jasurga " boldimi " degandek qaradi
- Eeex bomapti . Nega bunday qilding . Shunday husnihatta bitilgan misralar uvol ketti
- Jasur Karimov , meni honamga taqillatib kirishni qachon organasan ?!
- Iye hali organish kerakmi , ammo bilasanmi dostim - Shoxni yelkasidan qolini tashlab - Meni lugatimda " ruhsat" " mumkunmi " kabi sozlar yòq . Yòq sozlarga ishora ham yòq .
- Tentak , biroz jiddiyroq bol . Ahir endi yosh bola emasmiz !
- Qoshilaman , endi yosh bola emasmiz . Shuning uchun ham xech kim xojayinchilik qilolmaydi - deya Shoxga kòzini qisti .
- Men jiddiy gapiryabman . Qachongacha bunaqa yurasan ? Joninga tegmadimi ?
- Shox ? Issiging bormi ? Yoki es xushing ham osha qiz bilan birga kettimi ?
- Yana qanaqa qiz . Buncha yopishib olding shunga aa ? Shunchaki hayotta biron bir maqsad bulan yasha , shunchaki kongil xushliktan xech narsa chiqmaydi , harakat qil , òz kuching bilan oyoqqa tur demoqchiman !!!
- Mengamiii ? - ginali qaradi Jasur . Chunki otasi Doston Karimov oğliga faqat ishonch va motivatsiya bergan holos . Jasur qolidagi Mehmonhona biznesini òz kuchi bilan boshlagan va juda omadli davom ettiryabti .
- Valdirab kettima ? - òzining gaplarini tahlil qilgan Shox bir vaqtlar dadasi qilishi kerak bolgan nasihatlarni qilyotkan edi . Ammo kimga ? Eng yaqin dosti biznesda ham qizlar bobida ham omadli Jasurgami ? Balki ichidagi alamni shu yol bilan biroz bosmoqchi bolgandir . Otasi unga xech qachon etibor bermaganini hisobga olsa , undagi bu jizzakilik va asabiylik tabiy hol .
- Shox bilasanmi , sendagi bu dardning davosi nima ?
- Xosh nima ekan ?
- Sharob !
- Nima ?
- Exx Londonda oqib osha yerdagilarga oxshab qolgansanda , Otkirrogi deyisharmidi
- Tushunarli , ammo bunga xushim yòq . Dam olmoqchiman , ertaga muhum kun .
- Indinga undanda muhim , indindan keyin esa hatto Konferensiya bolishi mumkun , undan keyin yana nimadir chiqadi . Xosh aytchi unda qachon . Dostiimm bor lahzalardan lazzatlan , erta keladimi yoqmi ? Ertada keladimi yoqmi ? Ertada keladimi yoqmi ???? - Jasur Shoxni ornidan turgizib sudragancha olib ketti va togru Bar joylashgan 3-nchi qavatga kelishdi va Jasur barmenlik qilishga kirishdi .
- Ohhoo hamma jamu jam - eshiktan istehzoli tabassum bilan Shoxruxga qarab Farruh kirib keldi ..

- Shoxrux kelsa eshiktan ... Farruh kelar - Jasurning shamasidan Shoxrux kulib yubordi , Farruhning esa yuz qiyofasi òzgardi va Jasurga g'azab bilan jilmayib qoydi

- Juda xazilkashsan Jasur . Singling korinmaydi ?

- Uni ismi bor , telefon raqami ham , interneti ham 24 soat qoshib qoyilgan .

- Xosh , ammo men sendan so'radim

- Farruh ahir Siyam egizaklari emasmiz . Qayerdan bilaman ?- Jasurning ham xazil ham zahar aralash gaplaridan Farruhning avzoyi qanchalik buzulsa Shoxning kayfiyati shunchalik kotiralar edi ...

- Tushunarli . Demak xayrli tun

- Yaxshi tushlar kor Farruh .- Jasur qolini silkigancha Farruhga hayr ishorasini qildi . Shoxrux esa hatto etibor ham bermay qolidagi qadahni bir kotarishda boshatti

### 15 Qism

Shoxrux beshinchi qadahni boshatkanda honaga Sabina kirib keldi .

- Aka - u Jasurning qarshisiga kelib jiddiy nigohlar bilan - Dadam va oyim uyga qaytishyabti . Siz bilan xayrlashmoqchi ekanlar , pastta kutishyabti - Jasurning va Sabinaning otasi Doston Karimov ham biznesmen va juda aqlli . U uzoqni ko'ra biladigan odam . Xech kimni ustidan ko'rona qaror qabul qilmaydi . Avval osha odamni yaxshilab taniydi , Ism familiyasidan tortib qon guruhigacha , ana undan keyin borib bir hulosa keladi . Rafiqasi Zuhra Karimova . Istarali va mehribon ayol . Mehribonligi rost , ammo jahli chiqsa òz farzandini ham ayab otirmaydi . Silab turgan boshiga bir tushirib keyin yana silashi mumkun . Jasur ularning katta farzandi . Oz kuchi bilan oyoqqa turgan va oz biznesi bor . Bundan ota

onasi faxrlanishadi ... Sabina esa yakkayu yagona qizlari . Uni juda ezozlashadi va yaxshi korishadi . Uni hohishi ular uchun qonun . Xozir ham ayni osha qonun doyrasida ish korilmoqda , yani Sabina va Shoxrux masalasi ortaga tashlandi . Ota-onalar bu juftlikni birga bolishlarini hohlashsa ham Dilbar Nizamova bu qarorni òzi shaxsan qayta korib chiqishni diliga tugib mehmonlarga sohta jilmayib qoydi .

- Nahotki , qolishmas ekanmi ?

- Yòq , dadamni muhim majlislari bor ekan

- Essiz , mayli Shox men xayrlashib qaytaman

- Menn

- Yòq sen qol . Ozim seni nomingdan ham xayrlashuv sozlarini yetkazaman . Boldi otir . - Jasur sarxush bola boshlagan Shoxni joyiga otqazdi va xonadan chiqib ketti . Shox boshini ushlab turdida stolga qoyib uxlab qoldi .

- Shoxrux aka ? - Sabina Shoxruxni turtkan boldi , ammo sado yòq . U allaqachon ochib bolgandi . Sabina bir zum unga qarab turdi . Qoshigacha qayrilgan kipriklar , ichkilikdan qizib ketkan yuzi , betartib bolib ketkan sochlari . Hamma hammasi Sabina uchun qadrli edi . Unga bolgan sevgisini bor ovozida baqirib aytishni òzini uning bag'riga otishni va undan ham shunday javob olishni istardi . Ammo ....

- Shoxrux aka - Sabina ochib qolgan Shoxruxni yonidan joy oldi va betartib sochlari orasidan peshonasiga tushganini òzining manikyurli tirnoqlari bilan togrilab qoydi va so'zlashda davom etti - bilasizmi ? Yòq

bilmaysiz . Chunki aytmaganman . Ammo aytishga ham qoymaysiz . Menga " ichingdagini tokib sol "deb emas " uningni ham chiqarma " degandek qaraysiz . Bu qanchalik qiyin , qalbim o'grig'ini kulib namoyon etish . Menga bir bor bolsin inson suyuklisiga qaragandek qaramagansiz . Ammo eng yomoni bu emas . Xa bu qo'rqinchli emas . Eng qorqinchlisi xech qachon bunday qaramasligingizda . Ammo bunday bolmaydi , men harakat qilamn . Sizni qalbingizni zabt etish uchun qolimdan kelganini qilaman . Chunki sizni sevaman . Sizni sevaman Shoxrux aka .

- Bravo ...- eshiktan qarsak urgancha Farruh kirib keldi .

- Farruh aka - Sabina tezda ornidan turib , eshiktan chiqib ketmoqchi boldi

- Qayerga shoshilyabsan ?

- Dadamlar bilan xayrlashib kelmoqchidim

- Ular ketib bolishdi , men ham osha yerdan kelyabman . Umuman olganda otib ketmoqchi edim , ammo sening hissiyot va qayguga tola dil isxoring tohtatti ...- Farruhning gapidan Sabinaning ikki yuzi qizarib ketti va vaziyatdan chiqish uchun bahona izladi . Chunki bu Farruh . Qayerda nima deyishini bilmaysan . Mabodo Shoxrux bn mojaroda xozirgi gaplarni aytsa bormi ? Akasi buni bilmasligi kerak . Yòqsa Shoxrux bilan dostligiga nizo yetadi . Ufff jin ursin seni Farruh !!!

- Farruh aka , nimalar deyabsiz ? Nimani eshttiz bilmadimu ...

- Hammasini

- Qanday tushundiz bu sizni ishingiz , ammo bu shunchaki xazil edi .

- Xazil - garchi Sabina bosiqlik va jiddiylilik bn gapiryotkan bolsa ham negadir Farruhni ishongisi kelmadi

- Xa xazil . Shoxrux akam kop ichkanlaridan ochib qoldilar . Men esa biroz xazil qilib turgazmoqchi edim . Lekin tasir qilmadi . Korib turganizdek haliyam uxlab yotibtilar . Aytkancha akam qani ?

- Jasur ota-onangizni aeroportgacha kuzatishga ketti . Balki to'gri uyiga ketar .

- Tushunarli . Mayli sizga ham xayrli tun . Men ham endi bora qolay .- Sabina yana osha hotirjamlikni yuqotmagan holatta honani tark etti .

Farruh esa bir zum oylanib qoldi va miyigida kulib qoydi . Shoxruxni yoniga kelib yelkasidan turtti , ammo uygonmadi . Qattiqroq urdi ... baribir foydasi yòq

- Bosh o'grigi ...- Farruh òziga òzi tongillab qoydida , Shoxruxni ornidan turgizib honasigacha kuzatib qoydi va kirgan zahoti yumaloq yotog'iga itarib yubordi.

Songra honaga nazar soldi . Anchadan beri Shoxni honasiga kirmagandi . Anchasi ham naqd 9 yil a . Osha jangdan song Farruh , Shox bn umumam gaplashmay qoydi . Songra Shox Londonga ketti va Farruh to'gasining yoniga otti . Uning ong qoli boldi , qollab quvatladi , yordam berdi . Sozini ikki qilmadi . Bor aqlini va kuchini aynan to'gasining biznesi rivojlanishi uchun sarfladi . Ammo .... ammo to'gasi sogligi yomonligi tufayli vasiyatnoma yozdirganini bilib qoldi . Songra vasiyotnomani kòzdan kechirdi . Unda esa faqat ikki ism bor edi . Shoxrux va Dilbar Nizamova . Farruhning osha onda to'gasiga bolgan mehri ham hurmati ham o'ldi . Uning uchun qilgan mehnati bir tiyin ekanini angladi va bu haqida onasiga aytti .

Farruh nimani kutgandi . Bosh merosxor bolishni emas , bu fikr keyinchalik Shoxrux kelganidan song paydo boldi . U vasiyatta quyidagilarni oqigandi

« Bisotimdagi bor boyligim va kochmas mulklarimni 100 % deb olib , uni oyla azolarimga , yani 70% o'glim Shoxrux Nizamovga 20 % rafiqam Dilbar Nizamovaga qoldiraman . Qolgan 10 % hayriya ishlari uchun . »

Shu vasiyattagi oyla azolarim orasida o'zi va onasini kormagani uchun alamzada edi . Ammo endi bu qiziq ham kerak ham emas . Chunki Farruhning bosh maqsadi endilikta Aziz Nizamovning merosiga ega chiqish . Bu uchun esa eng katta tosiq bu Shoxrux . Divanida beozorgina bolib uxlab yotkan Shoxruxga nigohini qadab , bir zum uni yòq qilish yolini oyladi ... Ammo bunga hali erta deya jilmayib hona eshigin yopib ketti .

\* \* \*

-Nargiiiiiiiiizzzzzz - Madinaning qulogi ostidan baqirgani uchun yostigini olib otib yuborgan Nargiza kòzlarini ishqalab ornidan bazor turdi .

- Qizlar , qachon keldingiz ?

-Kechki 11 larda . Kelsak uxlab qolibsiz . Taasurotlaring haqida so'ramoqchi edik . Mayli endi kechqurun chaqchaqlashamiz , xozir esa tez yuvinib nonushta qil yoqsa kech qolasan .

Nargiza kechagi voqealarni esladi va eng songida kòz oldiga yana bir juft qop-qora kòzlar keldi va labiga tabassum yugurdi ...

- Xay Laylo bu qizni haliyam uyquasi ochmagan shekilli , o'ziga o'zi tirjayiyabti . Qani bir stakan suv ber ?

Madinaning harakatini ilgagan Nargiza ornidan otilib turib yuvinish xonasiga kirib ketti

## 16 Qism

- Kutganimdan ham alo darajada - Maryam Hakimova hayratini yashirmay Nargizaning tayyorlagan intervyusidan mamnun boldi . Va yana bir bor shogird tanlashda adashmaganiga amin boldi .

- Rostan ham yaxshimi ? - Nargiza eshtgan gaplariga ishonolmasdi . Har holda Maryam Hakimovadan bunaqa maqtov eshtish harkimning ham qolidan keladigan ish emasda .

- Yaxshi ham gapmi . Aytdimku alo darajada . Boldi endi taltayib ketma . Imtihonlaringni ham shunaqa alo darajada topshirishinga umid qilaman va omad tilayman .

- Minnatdorman ustoz . Rahmat .

\* \* \*

Shoxrux boshining o'grigidan kòzlarini zòrga ochdi . Ornidan turib otirdi va kechagi voqealarni esladi . Ohirida Jasurning unga ketma ket quyib bergan ichimlikni qanday hafsala bilan ichkanini songra esa zulmat . Ammo xuddi kimdir unga sevgi isxor qilgandek tuyuldi . Balki tushdir deya o'ziga o'zi gapirib yuvinishga kirib ketti . Qaytib chiqsa Umida xolasi eshikni taqillatib turgan ekan .

- Kiring !

- Xayrli abet o'glim

- Sizga ham . Tohtang nima ?

- Xa nima soat 11 boldi , ahir

- Qanaqasiga ? - Shox soatga qaramaganini esladi va telini yoqti ammo quvvati tugagani uchun yoqilmadi , songra oyna oldida turgan qol soatga qaradi soat 11:28 . Daxshat ahir bugun muhim majlisi bor edi

" SENI OLDIRAMAN JASUR !!! "

Shox zudlik bn Umida xolani qolida turgan kostyumini oldida divanga tashladi .

- Rahmat Umida hola

- Arzimaydi , ha aytkancha o'glim , mana buni - deya Umida hola fartugini chontagidan medalyonni chiqardi - kostyumingni ichki chontagidan toptim . Juda qadrli va qimmatga oxshaydi . Bizni davrimizda bu muhabbat belgisi sanalardi ...- deya Shoxruxga uzatti .

Shoxrux medalyonga bir zum tikilib song qoliga oldi . Umida xola honani tark etgandan song divanga otirib medalyonga sinchiklab qaradi . Buni mashinasidan topkandi . Osha kasofat qizniki deb oylagandi . Ammo osha kuni qiz bn liftda qamalib qoldi , nega bermadi . Esidan chiqib ketkanini bahona qildi va endi ko'rishganida bermoqchi boldi . Lekin qizning kechagi xatidagi jumlar yodiga tushib tohtadi

《 Boshqa uchrashmaymiz deb umid qilaman 》

Xatta boshqa sozlar ham bor edi . Ammo Shoxni esida faqat shu jumla qolgandi . U ham bu qiz bn endi yollari tutashmasligini tilab medalyonni oyna oldiga qoydi va tezda kiyina boshaldi . Kech qolgani tufayli

asabiylashardi va galstugini boylashda ham asabiy qiyshaytirib qoydi . Song yechib otti . Galstug zarb bilan oyna oldiga tushdi va usiz ham ilinib zòrga turgan medalyonni oynaning orqasiga tushirib yubordi . Shoxrux buni sezmadi ham . U allaqachon kostyumini olib honadan chiqib ketyotkandi ...

\* \* \*

Nargiza xush kayfiyatta uyiga keldi . Laylo bunaqa paytta oqishda boladi . U med kolledjda oqiyabti . Bolajak hamshira . Uyda esa faqat Madina TVni ovozini baland qilib kino koryotkan edi ...

- Vaaaaa - berilib film koryotkan Madinani , Nargiza sekin kelib qo'rqitti . Qolidagi popkorni tushib ketkan Madinaning yurak hovujlab turganini korgan Nargiza kulib yubordi . Va yoniga otirib savolga tutti

- Xa nima boldi ?

- Uff Nargiz , bunaqa emasda !



- Qo'rqib kettilarmi ? Qanaqa bolarkan qo'rqitish ?
- Zòr bolarkan , balo bolarkan - Nargiza yana kulib yubordi . Va TV-ga yuzlandi . - Qanaqa film ko'ryabsan ?
- Qanaqa bolardi hind kinosida
- Madii shuyam koradigan narsami ? G'irt fantastikakuuu
- Sen avval ko'r , keyin gapir . Qiz va yigit haqida
- Endi , oy va quyosh haqida bolsinmi ? Agar qiz va yigitning sevgisi bolmaganda Hindlarda kino degan tushuncha ham bolmasdi . Qiziq shuncha senariyni qayerdan olarkin a ?
- Qara , qara qiziq joyiga keldi .
- Nomi nima ?
- Muhabbat va nafrat . Viyyy Shoxruxhon zòrr oynaydidaaa ... - Madinaning TVga kirib ketar darajada qarashidan Nargiza yumalab kulardi . Qoyib bersayu qahramon qizning ornida Madina bolib qolsa .... Va nihoyat film tugadi .
- Ana tugadi . Exx Shoxruxhonga oxshagan yigitim bolsada
- Yana Nargizaning kulgusi yangradi . Madina dugonasiga oqrayib qoydi
- Nimaa ? Nega kulasan ?
- Kulaverib kòzlaridan yosh chiqib ketgan Nargiza bir zum dugonasining nigohlariga qarab turdida song yana kuldi . . . - Borgineee .
- Qayoqqa ?
- Oshxonaga , biron nima yey
- Yema , hali kechki ovqat payti boladii
- Keyin yana yeyman
- Exx bu bechora oshqozoning ham yer shari bolib ketgandir ..- Deya Nargiza yana kuldi .
- Sen meni oshqozonimni qoy , bazmdan gapir . - tarelkada salatga vilka sanchib kelgan Madina Nargizani yoniga qulay joylashib oldi .
- Nimasini aytay ? Oylaganimdek bolmadi , lekin ishim bitti .
- Shu xolosmi ? Uyi , oylasi, rafiqasi ?
- Uyi xashamatli , 4 qavatli . Uyi oldida 2 mashina turardi , qolgani garajda bolsa kerak . Rafiqasi esa oylaganimdek emas ekan . Kalandimoq va takabbur
- Sen nimani kutagnding " Voy Nargiz kelibtikuuu " deb choy qilishinimi ?
- Jaa unchalikmas . Odamga tepadan qararkan .

- Òzi boylar shunaqa boladi . Yanachi ?

Nargiza bir zum Shoxrux haqida aytaymi yoqmi deya oylanib qoldi .

- Ayt , ayt !

- A ?

- Nargiz seni bolaligingdan bilaman . Biron nimani aytishni istasangu ammo oylanib qolsang sochingni oynaysan - deya sochini qoli bilan aylantiryotkan Nargizaga ishora qildi .

- Haligi ... haligiii Aziz Nizamovning o'gli bor ekan !

- O zo'rku , yoshi nechida , kelishganmi ? Boydiq ekanmi ? Qayerda ishlarkan ? Instagrami qanday ?

- Avval gapimni esht . Uni taniysan qisman

- Yo tovba . Taniyman ?

- Xa bu osha Bezbet tonka ekan !

Madina endi yutkan salati tomo'giga tiqilib qoldi va kòzlarini katta katta ochib Nargizaga yuzlandi

- Yoooq !

- Xaaa , afsuski u bir bilan bir honada qoldim

- Nimaaa - bu safar Madina ornidan otilib turib ketdi .

Nargiza uni zorga tinchlantirib otirgizdi va bor gapni aytib berdi . Avvaliga hunobi oshib jahli chiqqan Madina bor gapni eshtgandan song naqd 1 soat tohtamay kuldi ...

- Nimasi kulguli ? - dugonasining yostiqni quchoqlab kulyotkanidan asabi buzilgan Nargiza qollarini qovushtirib oldi

- Nimasi kulguliligini bilmqochimisan ? Gap shundaki guzalim sen o'zing bilmagan holatta uni qora mushugiga aylanibsan - Madina shularni aytaturib handon otkancha ornidan turib ketdi

- Nima degani bu endi ? Hoy qiz qayerga sen nima valdirab ketting ??

Kechki ovqat payti Laylo Madinadan eshtkanlarini hazm qilolmay xech narsa yemadi

- Nahotki dunyo shunchalik tor bolsa ? - Laylo uchun bu chindan da hayratlanarli edi .

- Dugonajon dunyoni bunga aloqasi yo'q . hamma gap taqdir zanjiridaa - Madina hardoyimgidek aqllilik qilib qoshini kotarib qoydi

- Xech qanday zanjir manjir yo'q . U bn endi boshqa korishmaymiz !!!

- Qayerdan bilasan ?

- Bilaman vassalom . Yaxshisi ertangi ishtan gapiringlar . toy soat nechida ekan ?

- Kechki 19:00 da .

- Axa , ungacha ishlarimizni bitirib olamiz . Oqishing qalay Laylo ? – Nargiza dugonalari yana osha Shoxrux mavzusiga qaytmasdan gapni boshqa yoqqa burib yubordi . Ammo Madina hali bu mavzuga yaxshilab tohtalishni oylab qoygandi .

Garchi Madina sharttiki , òzboshimcha va shox qiz bolsa ham sevgi tushunchasi unga begona emasdi . U romantikaga boy seriallarni va kinolarni sevib tomosha qilardi . Balki shuning uchun ham òziga Shoxruxhonga oxshagan yigit qidiriyotkandir . Nargizaning tariflashidan esa , allaqchon osha yigitga befarq emasligini bilsa bolardi . Garchi Laylo bunga etibor bermagan bolsa ham , ammo Madina buni kòzdan qochirmadi . Dugonasi osha òzi atagan Bezbet tonkani eslab gapirganda sochini oynab kòzlari chaqnab ketardi .

Inson shuncha vaqt ichida sevib qolishi mumkunmi ? degan savol ham Madinani qiynab qoygandi . Ammo shunaqa vaziyatlar uchun ajoyib bir ibora bor . " Ilk korishdagi sevgi "

Ammo buning nihoyasi yoki davomi bormikin . Ahir Nargiza u bn boshqa uchrashmaslikka ahd qildi . Shoxrux esa uning bu qarorini mutloq qolladi va bu qiz haqida unutti ...

\*\*\*\*\*

Shoxrux oğir yutunib Aziz Nizamovning honasining eshigi tagida turardi . Bugungi majlisga kech qolib kelgan bolsada òz ishini àlo darajada qilgani uchun ham investorlar shartnoma imzolashga qaror qilishdi . Ertaga esa konferensiya boladi . Keyin otasi ish bn chet elga ketishi mumkun . Chunki Dubaydagi kompaniyaga ham investorlar kerak . Bu yer esa Shoxruxga omonat boladi ...

Shoxrux uzoq muddatlik sukunattan song eshikni taqillatti .

- Kiring ! - otasining jarangdor hamda salobatli ovozidan biroz hayiqdi . Garchi 23 yoshli kap katta yigit bolsa ham otasining qarshisida òzini 10 yoshli Shoxruxdek his qilardi . Bunga sabab balki otasi unga kattalardek muomila qilmasligidadir

- Assalomu aleykum.

- Vaaleykum assalom . Kir , nega eshik tagida turibsan ? - Shoxrux oğir qadamlar bn kelib divanga otirdi . Kòzlari esa yerda .

Xech otasiga tik boqolmadi . Kòzlariga qaray olmadi . Balki ... insonning tuygulari kòzlarida namoyon boladi deganlar uchundir . Shox otasining kòzlarida òziga bolgan ishonch va mehrni emas tubsiz boshliqni ko'rishtan qo'rqrar ... Ammo bu qo'rquvi asoslimikin ?

- Nega jimsan ? - oğlining kirib olib indamay otirganini korgan Aziz Nizamov biroz noqulay ahvolga tushdi .

Ahir U ham Ota . Ota sozini eshtkan zahotimiz suyanch , tirtak sòzlari ham hayolimizdan otadi . Unda fahrni , ishonchni , cheksizz mehrni his qilamiz . Chunki buni bizga Otamiz orgatkan . Yiqilsak turishni , tohtasak davom etishni , ishonmasak tavakkal qilishni , òzimizni òzimizdanda koproq yaxshi korgan , oylagan va ishongan insonimiz bu Otamiz ...

Aziz Nizamov ham Ota . Oğlining uni kòziga tik qarab gapirmasligi mayli , ammo umuman gapirmasligini anglay olmasdi . Balki hatosini tushunmagandir . Aziz Nizamov Ota tushunchasini Shoxrux dunyoga kelgandagina tushundi . Asli Bolalar uyidan chiqqan yosh yigitlik davrida , godaklik choğida unga

xech kim otalik qilmagan . Shuning uchun ham balki Ota vazifasini yaxshi bajarolmagandir . Uning fikricha o'gliga hamma sharoyitni qilib berishi bu eng yaxshisi deb oyladi . Ammo bir vaqtlar o'zi derazadan tomosha qilgan Ota-bola oyinidagi hursandchiligu mehrni unutmadi . Xar farzandga xar insonga eng keragi bu mehr va etibor .

Aziz Nizamov o'gliga qaray turib shularni anglay boshlagandi . Ammo U birozga kechikdi . Lekin Xechdan kora kech degan . Kam bu yoq dan yaxshiroq . Xatosini aniqrogi o'glining hayotidagi kamchilikni to'g'irlash vaqti keldi ...

- Shoxrux , sen bn gaplashib olishim kerak edi . O'zim ham seni chaqirtirmoqchi bolgandim . Haligi o'glim ..

- Hammaga SALOOMM - deya baralla ovozda Dilbar Nizamova honaga kirib keldi . Aziz Nizamovning gapi chala qoldi . Shoxruxning hafsalasi pir boldi va bu safar ham indamay honani tark etmoqchi edi ...

- Shoxrux o'glim qayerga ketyabsan ??? - ovozida biroz hafalik bahsh etib so'radi Dilbar Nizamova.....--- ahir men hamma ishimni tashlab sizlar bn tushlik qilgani kelsam u - O'zini jabrdiyda qilib Shoxruxga arazlagan nigoh tanitib qoydi va borib Aziz Nizamovning yelkasiga qilini qoyib - Dadasi o'glingizga nimadir desangizchi . Ertalab hattoki nonushta qilmadi , endi esa tushlikdan qochyabti .

Tushlikdan , ovqattan emas . Aslida ogay onasining bepisand nigohlariyu otasining beparvo qarashlaridan qochyabti . Ozidagi ohirgi oyla tushunchasini ham yo'q qilib yubormaslik uchun , ularga bolgan hurmatining ohirgi tomchisini ham tokib qoymaslik uchun qochyabti . Soxtalikdan , royodan qochyabti . Qochyabti ..

- Oying to'g'ri aytyabti .. - shu sozlarni aytkan zahoti Shoxruxning g'azabli nigohlari otasiga qaratildi . Kòzlariga tik boqdi . Umid bn emas g'azab bn . " Oying " so'zini Dilbarga nisbattan ishlatgani uchun .. Aziz Nizamov ham o'glining qarashini tushunib gapini to'g'irladi - Dilbar to'g'ri aytyabti . Birga tushlik qilsak bolardi . Oylaviy ...

Shoxrux yo'q deyolmadi . Doyim shunday , qanchalik alamzada , qanchalik hafa bolmasin baribir otasiga rad javobini berolmaydi . Chunki bu hayotta undanda yaqin insoni yo'q . Garchi buni korsatmas , tan olmas . Ammo asil haqiqat shu edi ....

\* \* \* \* \*

- Shoxux honasidami ? - hovliqqancha kelgan Jasur Kamiladan Shoxni soradi

- Xozirgina keldilar , bezovta qilish..- gapini yakunlamasidan Jasur honaga otilib kirib ketti - masinn degandilar - deya oziga o'zi valdirab qolaverdi Kamila

- Shoxrux ishlar qalay ? - kursisiga boshini qoygancha kòzlarini yumib chuqur-chuqur nafas olyotkan Shoxruxni korgach Jasurning o'g'zi yumildi . Agar Shoxrux shunday qilmasa asablarini tinchlantiro olmaydi va o'zini boshqarolmaydi . Bu uning bolalaigida paydo bolgan . Oshanda 11 yosh edi . Ogay onasining qilgan tuhmatidan va otasining no'rin bergan jazosidan qattiq ruhiy bosim olgan Shoxrux asabiy bolib ulg'aydi va qattiq jahli chiqqanda o'zini boshqarolmay qolardi .

" Jahl chiqqanda aql ketadi " deyishadiku . Shoxrux esa doyim aql bn ish qilgan . Jahl uning azaliy dushmani . Hozir ham o'zini dushmaniga mag'lub qilmaslik uchun tinchlanyotkan edi . Jasur esa dostini yaxshi biladi . Shuning uchun ham uning tinchlanishini va o'ziga qarashini kutti ...

- Xush kelibsan Jasur- deyarli 1 soat deganda Shoxrux òziga kelib yana hotirjamlikka qaytti .
- Ahvoling yaxshi emaska oxshyadi . Nimadir boldimi ?
- Kinomotogriflar bn uchrashmoqchiman .
- Ohho , nima balo aktyor bolmoqchimisan ?
- Seningchachi ?
- Oylab ko'r dostim. Xozirgi vaqtda tosh otsang aktyorni boshiga tegyabti . Muhlis qolmadi , hamma artist
- deya kuldi Jasur.
- Aslida bunday niyatim yòq . Oskor mukofotiga rol tavsiya qilmoqchiman
- Hmm , ajabo qanaqa rol ekan ?
- " Bebaho ogay ona " roli uchun Dilbar Nizamovaga . - Shoxrux qanchalik xazil qilishga urinmasin ovoz ohangidagi nafrat sotib qoyiyotkan edi
- Ammo bu unchalik ham yaxshi fikr emas
- Nahotki , senda boshqa taklif bormi ?
- Dostim ahir bilasanku menda doyim taklifning dodasi chiqadi .
- Xoosh ?
- " Qizil kitob "
- Qanaqasiga ?
- Odam qiyofasidagi kobraning songi avlodi Dilbar Nizamova- Jasurni jon qulogi bn tinglayotkan Shoxrux uning gapidan handon otib yubordi . Haa Jasur doyim xazilni qoyillatkan .
- Aj..Ajoyib taklif - haliham kulgidan tohtamagan Shoxrux ornidan turib Jasurni yelkasiga qoqib qoydi .
- Shunaqa dostim, aytkanча mana buni berish uchun kelgandim - deya stol ustiga konvertni qoydi Jasur
- Nima bu ? Iye Taklifnomami ? Vux Umid uylanyabtimi ? Nima esini yeganmi ?
- Xaa Shox , Umid ham hayottan toyibti . Endi tarki dunyo qilmoqchi ekan
- Bechora- divanga otirganча boshini silkitib qoydi Shoxrux
- Nimasini aytasan. Meni ham bu Taklifnomani korib kòzimga yosh keldi . Bunchalik ahmoqqarchilik qilish uchun odam hayottan toyishi kerak . Afsus Umid yaxshi yigit edi .
- Xaa endi nima qilamiz . Toyi qachon ? 28 martta ekan .
- Boramizmi ? Harholda maktab davrida anча yaqin edik . Keyin ham Londonda 1-2 marta korishib turdik
- Boramiz . Albatta nimayam qilardik . Buyerga nima deb yozibti
- Qani berchi ... " Bahtli kunimda yonimda bolishingizni istayman " .

- Bahtli kunim emush ?!
- Menimcha buni kelin majburlab yozidirgan ! Umuman olganda Shox uylanish bu òlim emas .
- Unda nima ?
- Ey òlim bunaqa azobli bolmaydi - honada yana kulgu yangradi .
- Buyoqqa ber - Jasurni qolidan konvertni olib stol ustiga qoydida , kostyumini kiyib oynaga bir rov qarab dostiga yuzlandi - Ertaga konferensiya bolishi kerak . Shunga tayyorlanamn . Boshmisan . --Jasur bir zum telefonida nimalarnidir yozdida
- Afsus , jooooon deb senga yordam berardimu Jonim kutib qoladida
- Nechta joning bor òzi ?
- Yigit kishiga qirq hunar ham òz
- Maqolni ham beliga tebtng - deya kulib honadan avval Shox , songra Jasur chiqib ketti . Ularning ortidan qarab qolgan Kamila lift yopilishi bn telefoniga yopishti ..
- Demak qizil kitob degin ...- Kamilaning kasetadek yozib olgan gaplarini aytib bergandan song narigi taraftan ayol kishining yoqimli ammo sovuq ovozi eshtildi
- Xa , xuddi shunday deyishdi . Ammo ortiqcha gaplar bolmadi ... - shivirlab qoyardi Kamila
- Yaxshi , davom et Kamila . Sendan yaxshiroq xabarlar kutaman
- Albatta , honim . Korishguncha
- Xayr

\* \* \* \* \*

- Madina , hamma narsalarni oldingni ?
  - Xa xa kettik ...
- Qizlar soat kechki 15 : 00 dan ishga ravona bolishdi . Bugun katta Toy boladi . Tayorgarlik ham shunga yarashada . Toy soat kechki 20:00 boshlanar ekan . Qizlar Toyhonaga kirib kelishdi va kiyimlarini tog'irlab oq kofta qora yubkada hozir bolishdi .
- Assalomu aleykum Hamdam aka - Madina tog'ri adminstratorni oldiga bordi
  - Vaaleykum assalom Madina - yoshi 38 da , uylangan va 2 ta qizning otasi bolgan Hamdam Anvarov  
\*\*\*\*\* toyhonasining adminstratori edi .
  - Hamdam aka bugun qaysi sanatkorlar kelarkan ? - har safar kazo kazolarning toyi bolganida Toyhona bir jumbushga kelib gumburlaydi . Mashxur sanatkorlar bn esa qizlar selfie qilishadi . Madina ham shuni dardida . Ahir anchadan beri instagramiga post qoymagan edida ...
  - Xosh ... hmmm... Munisa Rizayeva , Shahlo Ahmedova , Sardor Tayirov

- Voyyyyyy Sardor Tayirov kelarkanmi ? - ularning suhbatini kuzatib turgan Laylo Sardor Tayirov nomini eshtishi bn jonlandi . Chunki uning ashaddiy muhlisi edi . Kipriklarini pir\_piratib javob kutardi . Hamdam aka " ha " tasdigida bosh silkiganidan keyin sal qolsa Madinani ustiga özini tashlab yuboray dedi

- Hoy qiz tur mundoq . Kim ekan debman eyy . Yur ishga , Sardor Tayirovga qizil gilam toshaymiz .

- Nima qilay , menga yoqadi .

- Judayam yoqadimi ? - Layloga monand ovozda soradi Madi .

- Hmm

- Unda bunday qilamiz , sahnadan tushgandan song , uyqu dori beramizda ogirlab ketamiz - özining goyasidan magrur Layloga " qalay ? " deb turgan Madinaning gapidan hafsalasi pir bolgan Laylo oshxonaga ketdi .

Nargiza tayorlangan stol dizayni bn band edi . Xato va kamchiliklarni korib chiqarkan uni oldiga Diyor ismli ular bn birga ishlaydigan yigit keldi

- Xayrli kech Nargizahon

- Voy , assalomu aleykum

- Vaaleykum assalom, yaxshimisizz

- Yaxshiman rahmat .

- Nima qilyabsiz ? - Nargizaga bu savol xuddi bu yerda nima qilyabsan degandek korindi .

« Yòq bu yigitta nimadir notoğri joylashgan , shunaqayam befarosat boladimi . Insonlarga farosat ulashilyotkanda bu tonka qayerda qolgan ekan ? » hayollarini bildirmay jilmayib qoydi va òzi tomon kelyotkan Madinaga ishora qildi . Madina imoni tushunib hirra pashshani dugonasini yonida daf qilish uchun bordi ...

- Hooo yigitni guli - deya Diyorni yelkasidan qoqib qoydi Madina ,

- Madinahon yaxshimisiz ?

- Diyoor kasetamisiz ?

- Nimaga

- Voy bitta gapni yozib olib aylantirasizeee

- Hol ahvol soray dedimdaa

- Yaxshiman oziz qaleysiz , nima yangiliklar . Uydagilariz uylan deb qoyishmayotkan ediku . Nima boldi qiz toobtizmi ?

- Shunga harakat qilyotkandim - qizlar uning bu gapidan sergaklanishdi . Agar xozir gapni olib qochmasa bu befarosat Nargizani yonida tiz chokib qolini sorashdan ham qaytmaydi ...

- Menham sizga yordam beraman - Madinaning bu gapidan Nargiza qotib qoldi . Unga oqrayib qarab qoshini uchirdi . Madina esa " Hammasi yes " degandek kòzini qisib qoydi .

- Men bilan yuring Diyor , sizga bolajak kelin bolani korsataman
- Ammo men
- Ammo pammosi yoq . Yuringeee - Madina Diyorni qolini tortqilab olib ketti . Nargiza esa òzini tođri oshxonaga urdi .
- Nima boldi Nargiz , yov quvdimi ? - dugonasining ahvolini korgan Laylo unga savol berdi .
- Exx Diyorda , odamni hit qilib yubordi ..
- Diyorbek akami ? - Layloning bir yaxshi ayni damda yomon odati U hamma yigitlarga aka deb murojat qilib sizlardi . Va aynan shu narsa koggina yigitlarni muzqaymoqni quyosh eritgandek eritardi ...
- Qoy shu Diyor akangni - Madina kulganча qizlarni yoniga keldi
- Nega doyim qoy-laysizlar
- Qoyni qoqlamaydimi ? Ikkinchidan esa yigit kishi mundoq ushlagan joyini kesadigan , bosiq , xazili ham òziga yarashgan bolishi kerak . Bir deganda tirjayavermay . Buning esa yigitni guli
- Yigitni guli yaxshi emasmi ? - tushunmay soradi Laylo , Madina boshini ushlab uzoqlashdi . Nargiz esa òzini zòrga kulgudan tiyib
- Qolingizga nima qildi ?

- Tegma , hoy qiz qoyib yubor qoyibb yubor dedimm - Jasur qolini Sabinadan tortib oldi .

- Aka qolingizga nima qildi ?

- Bumi .. bu .. haligi

- Nima haligi ?

- Osha ...

- Nima osha ?

- Oshaaa borku !

- Nimaaa ? Aka gapiring !

- Kesib oldim

- Qanaqasiga ? Qayerda ?

- Bahtsiz hodisa . Etiborlii emas !

- Qani yana bir koray ?!

- Nima bu senga zòr narsamidi qayta qayta korasan . Bor honanga .

- Buyruq bermang . Bu meni ham uyim . Hohlagan joyimda qolaman .



- Unda shu yerda qol ! Men ketaman .

- Tohtang aka qayoqqa ?

Jasur mashinasiga otirib tergovchi singlisidan qochdi . Agar xozir nima bolganiniyu , nima qilganini aytsa bu tergovchi uni sudya onasiga yetkazadi . Keyin sudya onasi dalil isbot , malumotnoma , qizning tugilganlik haqidagi guvoynomasi , ish joyidan tarifboma yana qancha narsa talab qiladi . Mabodo topib berolmasa uni hatto advokat otasi ham qutqarib qololmaydi .

Shuning uchun Jasur mashinani o'zining mehmonxonasi tomon haydadi . O'ziyam 25 qavatli bu bino Toshkentning markazida savlat tokib qad rostlagan edi . Mehmonxona doyim mijozlarga tola . O'zining yuqori sifatli honalari va samimiy xizmatlari bn hammaning konglidan joy olardi .

Jasur ichkariga kirishi bn Mehmonhonaning bosh menedjeri o'zini Jasurning ong qoli deb hisoblaydigan Rustam aka yugurib kelib ....

### 30 qism

Jasur ichkariga kirishi bn Mehmonhonaning bosh menedjeri o'zini Jasurning ong qoli deb hisoblaydigan Rustam aka yugurib kelib salomlashdi

- Assalomuuu aleykuuum Jasurbek

- Iye Vaaleykum assalom Rustam aka . Yaxshimisiz ?

- Yaxshimiz rahmat bor boling . O'zingizdan so'rasak . Qaysi shamol uchirdi ?

Jasur uning bu gapidan biroz galati boldi . O'zining Mehmonhonasi bolsa , boshliq ham , yagona aksiyador ham o'zi . Yana qanday shamol kerak bolsin ?

- Mehmonhonangizda men uchun hona topiladimi ?

- Iy bu nima deganingiz ?

Jasur uni hijolatga soldim deb oylagan edi ..- Uyingiz bor edikuuu ?!

- Bu ham uyim yo yo'qmi ?

- To'g'rilikka to'g'rikuya . Nima boldi demoqchiydim ?! Balki dardkash keraktir ?!

- Mengaku kerak emas . O'zimniki ozimga yetadi . Boshqa birovnikini ko'tara olmayman . Ammo sizga nima boldi ? Ozi bugun bu yerda nima qilyabsiz ? Ahir 1 haftaga otpusk olgandingizku ??

- E xaa siz ham xayron bolyabsiz . Shu desangiz oylavoy borib dam olmoqchiydik . Ammo nasib ekan yaqinda yana uchinchi bor Ota boldim

- O , tabriklayman Rustam aka - Jasur quvonch bn Rustam akani bag'riga bosti - Umri bn bergan bolsin !

- Xaa omin . Uchunchi farzandim ham qiz ...- shu joyida og'ir horsindi Rustam aka

- Yaxshiku . Nega homrayasz ?

- Jasurbek og'ilni orni boshqada . Davomchi boladi . Nolimayman . Ollohimga shukr . Tirnoqqa zòrlar qancha . Ammo ich ichimdan baribir og'il kutgandimdaa ...

- Exx Rustam aka eng avvalo qizlaringizni boriga shukr . Og'ilni esa Olloh beraman desa xech gap emas . Hali hayot oldinda . Ota sharafiga erishdingiz . Buni òzi katta nemat . Buni qadriga yeting . Qolgani Ollohtan .

- Yaxshi niyatingizga rahmat ukam . Ha sizni ham gapga olib qolibman . Marhamat ichkariga kiring . Barno ???

Jasur doyimgidek òzining xonasiga yòl oldi . 777 hona . Eshiktan kirgan zahoti ozini katta yotoqqa tashladi va shiftga qarab yotib oldi . Kòzlarini yumdi . Òz òzidan jilmaydi . Shu hayollar bn birdan jiddiy tortti va ornidan otilib turdi

- Voy kallavaram nomerini olmabmanku - Jasur endi boshini changallamoqchi bolgandi kòzi bint bn boqlangan qoliga tushdi va quvonchdan kòzi porlab ketti

- Albattada . Bintni yangilash kerak . Demak ertaga yana Shifoxonani ziyorat qilamiz ...- shularni oylab ozini yana ortga tashladi va aganab aganab uxlab qoldi ...

\* \* \* \*

Shoxrux og'ir suhbattan yengil bolib chiqdi . Honasiga kirib ish stoliga otirdi ...

" Otam to'g'ri aytti Farruh bn talashadigan narsamiz yòq . U bn orani ochiq qilishim va kelishib òlishim kerak . Bari men oylagandek ham emas ekan . Ammo shuncha òtkan yillar . Yòlgizlikta yakka ozim ... "

Shoxrux hayotini bir boshidan oylay boshladi va hayoliga kelgan fikrdan ozi hayron qoldi .

Chunki aynan osha " Qora mushuk " bn dostlashgan kuni hammasi izga tusha boshlagandi . Shox hayolida

" Sen rostan ham Qora mushuksan " deb kulib qoydi . Va anchadan buyon yoqmagan telini olib yoqti ... Ichida anchayin xabarlar . Bari ish boyicha . Kamiladan edi ... Ammo suyuqli ammasidan ham xabar kelibti

" Bugun sen bn birga tushlik qilish uchun qancha tayyorgarlik qildim . Ammo hatto telefon qilib 《 ishim chiqib qoldi , keyingi safarga qoldiraylik 》 deyishni ham ep kormagan ekansan , na iloj og'lim . Xayrli kech ... "

- Ufff unutilmanku ... ammo Jasurchi

Shox Jasurga qòngiroq qildi . Telefoni ochiq . Yana qayta qildi . Baribir javob yòq .. Demak ertagacha kutadi . Ammo ammasini xafa qildi , qanday uxlaydi . Shox ammasini juda yaxshi koradi . Shuning uchun ham ertangi rejalari qatorida ammasini konglini olish 2 orinda . Birinchi orinda esa ....

\* \* \* \*

Nargiza derazadan tolin oyga termulgamcha yostigini quchib yotardi . Hayolida esa Shoxrux . Uni unuta olmayabti . Qancha harakat qilmasin . Boshqa narsa haqida oylasa ham aynan osha aylanib kelib Shoxruxga tiralyabti ... Ertaga ish izlashi kerak . Toyhona asosan kechki payt ishlaydi . Oqishi ham tugadi . Endi kunduzgi vaqtga ham ishlashi kerak

Qizlar turgan uy ijara edi . Ijarachi ayol Anora hola hola . Juda ziqna va hasis . Ijara haqqi 1 kun u yoqda tursin 1 soat kechiktimi tamom . Lash lushingni qolinga tutqazadi . U bu domning 1 qavatida turadi . Har oyning ohirgi kuni soat 10:00 gacha pul qolida bolmasa tamom edi . Qizlar ham ter tokib ishlashadi ham oqishadi . Hozirga yetib turibti . Nargiza ham Grant bolgani uchun stependiya oladi . Ammo kundalik xarajatlar , svet , gaz , oziq ovqat , kiyim kechak bular uchun ham anchagina pul kerak . Eng yaxshisi esa qizlarni topkani ortada edi ... Kimda pul bolmasa boshqasidan oladi . Ular

" Bolalar uyidan " chiqishganda anchayin sarson bolishgan edi . Tuzukroq uy topilmay yurdi , Nargizaning esa oqishga imtihan topshirish vaqtlari edi ... Osha payt ular anchayin qiynalishdi . Hatto yiglab dodlagan paytlari ham boldi . Tinimsiz ishlashdi . Tungi smenada ham qahvahonalarda farroshlik qilishdi . Yosh boshlari bn eson omon shu kunlarga yetishdi . Endi esa ularning eng katta maqsadlari Uy olish . Kichik bolsa ham òzlarining uylari bolishi ...

Shuning uchun Nargiza ertaga ish izlashi kerakligi haqida oylab oylab yana aylanib Shoxruxga keldi va yuzini yostiqqa bosib uf tortti ... Bu ancha davom etti toki uxlab qolmaguncha ...

\* \* \* \*

- Eshtaman Dilbar Nizamova ?

- Mirzo , menga Anvar Rashidov haqida bor malumot kerak . Tuğilgan yilidan nima yeb nima ichishigacha , oylasi , bola chaqasi ham . Tushunarlimi va juda tez !

- Xop boladi . Kechka qolingizda boladi

\* \* \* \*

- Assalomu aleykum. Hammaga xayrli toong ... - zinadan sochlarini yoyib tezlik bn sakrab tushyotkan yoshi 19- 20 lar atrofidagi yuzidagi kulguchlari oziga yarashib turgan yoqimtoygina qiz tushib keldi va kela solib Anvar Rashidovni quchib qoydi

- Xayrli tong dadajoonn

- Senga ham xayrli bolsin qizalogim .

- Senga ham xayrli tong kichkintoy - qiz nonushta dasturhoniga otirib yonidagi ukasini sochini tozitti

- Uff opaaa bu turmakni qilish uchun 2 soat vaqtim ketti !!! - norozi tongilladi ukasi

- Voyyey Mansur nimasiga qiziqasan shuni . Xorozni tojiga uxshab

- Boringe siz buni baribir tushunmaysiz

- Bolalar tortishmanglar ...- Oshxonada qoliga yaxshilab bezatilgan pirojniylarni patnista kotarib bu uyning bekasi chiqti

- Dadasi siz ham jim otiribsiz . Gapirsangizchi . Indamasang uyni boshiga kotaradi bular !

- Rano qoysangchi . Ularni urushishi ham zavq bagishlaydi . Davom etinglar

- Siz ham bulardan otkan yosh bolasz . Mansur oglim qani ol . Qoy bolam sochingni yaxshi turibti .. Hoy qiz tegma . Zinnura bas qil dedim qizim

- Hop oyi men jimman . Tezroq nonushta qilay ketaman .

- Yolda ehtiyot bol . Haydovchi olib borsin desa yòq deysan

- Kerak emas dadajooon , ozi oqishim uzoq emas . Ungayam mashinada boramanmi ? Hojati yoq . Oyoqim borku !

- Mayli sen nima desang shu malikam .

\* \* \* \*

Sabina ancha vaqt taqillagan eshikni ohiri ochti va yuzi yorishib kòzlari chaqnab ketti

- Assalomu aleykum Shoxrux aka ?

- Sabinaa ? Vaaleykum assalom. Jasur qani ?

- Bilmayman. Kecha uyga birrov kelgandilar . Keyin qaytib kettilar . Telefonlari uyda divanda qolibti .

- Tushunarli mayli bezovta qilganim uchun uzr .

- Yoq xechqisi yoq . Qahva ichib ketin xech bolmasa

- Boshqa safar kechikyabman .

Shoxrux soatiga qarab mashinasiga otirdi va gazni bosdi ...

\* \* \* \*

Nargiza qizlarni uygotmay nonushta ham qilmay yolga chiqdi . Ertaga Layloni tugilgan kuni . Bugun ish topsa keyin shuni oylaydi . Katta yolga chiqadigan kochani boshiga kòzi tushdi va yolida tohtab qoldi . U yerda Shoxrux mashinaga suyanganchauni kutib turardi . Nargiza bir zum nima qilishini bilmay turib qoldi va ohiri uni tanimaganga olib otib ketishini oyladi va qadamini tezlashtirib ketmoqchi boldi . Ammo yolini toskan Shoxruxga qarab yana tohtab qoldi

- Xayrli kun .

- Assalomu aleykum . Sizga ham xayrli kun

- Vaaleykum assalom. Qayerga yol olding ?

- Men haligi ishim bor !

- Eltib qoyishim mumkun ?

- Nahotki . Meni shaxsiy haydovchim emassziku - Nargiza Shoxga òzlarini birinchi uchrashuvidagi gapni qaytardi . U bu bn uni asabiga tegmoqchi bolardi . Ammo òzi bilmagan holsa Shoxruxga olam olam zavq berardi ...

- Agar istasang bolishim mumkun ?!

Nargiza nima deyishni bilmay qoldi . Yuzi qizarib yuragi qattiq ura boshladi va tezroq undan uzoqlashmoqchi boldi ... Òtib ketyotkan payt Shoxrux uni qolidan tutti va oziga qaratti

-Nargiza meni ... - Shox jimib qoldi

- Nima sizni ? - Nargiz shunchalik hayajonlandiki yuragi tohtab qolay dedi ...

- Menn .. men gaplashib olaylik ?

- Xozir nima qilyabmiz ?

- Biron joyda . Seni qahvaga taklif qilsamchi ?

- Janob Shoxrux Nizamov sizni mendan boshqa qiladigan ishingiz yòqmi ?

- Agar buni hozir qilmasam boshqasi bekor .

- Nima degani bu ?

Nargizni savoli javobsiz qoldi . Shox Nargizni qolidan tutib to'g'ri mashinaning old orindigiga otirgizib qoydi va tezda eshikni yopib ting-ting qildi .

Òzi ham aylanib otib mashinaga otirdi

- Bu zòravonlik !!!

- Unda militsiya chaqir ? ... Chaqirmaysanmi ? Demak kettik

Nargiza homrayib qollarini qovushtirib otirgan bolsada ich ichidan xursand va bahtli edi . U Shoxruxni yonida òzgacha tuyg'ular qurshovida boladi . Bu juda yoqimli ... Ammo bunga berilib bolmaydi . Bu huddi shirin tush kabi ...

- Mana keldik . Eshikni ochib berishimni kutyabsanmi yana ?

- Sizdan bunaqa lutf kutkuncha horozdan tuhum kutaman - Nargiza labini burib mashinada tushdi va kafega kirib ketti

### 31- QISM

Nargiza kafega kirib otirdi . Shoxham uni qarshisidan joy olgach kelgan ofitsiytanga oddiy qahva aytidda yaxshilab joylashib olib Shoxga yuzlandi ...

- Menda gapingiz bor edi . Qani boshlang !

Shoxrux aytadigan gaplarini bir bir elaktan òtkazdi . Va nihoyat uzoq vaqttan song gap boshladi ...

- Nargiza , bu sòzlarni aytish biroz noqulay . Har holda hayotim davomida hislarimni ochiq oydin korsatkan inson emasman . Sirlilik niqobim edi . Ammo sening yoningda bari boshqacha . Hatto istasam ham sirli bololmayman . Òzimni juda erkin va bahtli his qilaman . Menimcha bu hislar senga ham tanish . Kòzlaring aytib turibti .

Nargizani yuzi qizarib , issig'li kotarilgan odamdek yondi . U ham anchadan beri uyqusini , hayolini va hatto tushini ham og'irlagan insondan shu so'zlarni eshtishni kutmagandi . Hatto buni oylab ham kormagan edi . Mana Shoxrux uning qarshisida ... hislarini ochiq oydin aytib turibti . Bu lahzalarni u hayot daftariga katta katta harflar bilan muhrlashi aniq . Nargiza beihtiyor jilmaydi

- Ustimdan kulyabsanmi ? - Shoxruxning g'ashi keldi . U qizni tuyg'ularimni tushunmagan deb oylab dakki berdi . Nargiza esa " Yoq " deb bosh silkitgach bu tabassumning asl mohiyatini angladi .

- Shoxrux aka , men nima deyishni ham bilmayman ... - Nargiza o'ziga nima bolyotkanini anglamay qoldi . Doyim sharttaksi , gap otkan yigitni qayta o'tolmaydigan qiladigan , o'ziga ishongan xech qachon bunday kuchli his-hayajon tuymagan edi ... Bu yana nima ? deya o'z o'ziga savol berarkan buning javobini unga ritmidan on chandon tez uryotkan yuragi berdi : Ishq .

- Men sendan xozirning o'zida javob talab qilmayman . Oylab kor , ammo umid qilamanki meni tuyg'ularim jiddiyligiga shubha qilmayabsan ?
- Bilmayman ...
- Demak bir-birimizni yaqindan tanishimiz kerak deb oylaysan ?
- Aslida ham shunday bolishi kerak emasmi ?
- Nargiz biz toydan oldin bir birini korish uchun chiqqan kelin kuyov emasmiz . Bizda vaqt , tuyg'ular va imkoniyatlar yetarlicha . Shunchaki bir birmizga ishonishimiz kerak ?!
- Men ... men oylab koraman . Endi esa ketishim kerak !
- Nargiz tohta !!!
- Xaa ?
- Menga bir yaxshilik qilib ket ?
- Qolimdan kelarmikin ? ahir g'irt kasofat bolsam ?
- Offfff yana mi ?
- Xaa yana !
- Mayli menga desa supurgili yalmog'iz bol , faqat telefon raqamingni tashlab ket ?
- Nimaaa ? Hali yalmog'iz ham boldimmi ?
- Gapimni eng kerakli joyini qoldirib keraksiz joyini eshtibsandaa ? Buncha aqli bolmasang
- Ajab bopti kettim
- Nargiizzz

Shoxrux Nargizani kuzatib qoyishini aytsa ham konmadi . Katta yolga chiqib taksi tohtatti , taksiga otirar chog'l esa yosh boladek homrayib olgan Shoxruxga qarab tez aytish qildi

- Shoxrux aka ?
- Nima ?
- Ulguring !
- A ?
- +933024689 . Boldi kettik amaki
- Tohtaaa 46 dan keyin 88 mi 89 mi ? Nargiiz

Shox Mashinasiga mindi va Nargiz aytkan raqamni terdi .

“ Siz tergan raqam tarmoqta mavjud emas “

Yana boshqa variantini terdi , gudok ketti va bir ayol javob berdi

“ Aloo Indir eto ti ? Pochemu mnya brosisya negodyay ? “

Shox hovliqib telefonni ochirdi va chuqur Uhh tortib ohirgi variantni terdi , gudok...

“ - Alo ? “

Shox xursandligidan mashina rulini mushti bn bir ikki urib qoydi

- Va nihoyat toptim
- Hmm men esa eshtmagansz deb oylabman
- Yana bir necha daqiqa telefon qilmasam qaytib kelib boshidan aytmoqchimiding ?

Shoxning kulgusini eshtib Nargiza ham kulib yubordi

- Ohho orzuga ayb yoq . Agar shu safar bolmaganda balki boshqa uchrashmastik ...
- Ammo boldi . Endi yuqotmayman .
- Men telefonni ochiryabman !
- Darrov a ?
- Shoxrux Nizamov pensiyaga chiqtingizmi deyman . Qachon qarama bekorchidek yuribsiz ?
- Eslatganing uchun rahmat endi ishimga boray .
- Maykli . Charchamang . Xayr
- Tohta ?
- Xa
- Yana qong'iroq qilishim mumkun ?
- Men esa javob berolmasligim mumkun !
- Baribir qilaman ... “

Nargiza telefonni ochirdi va taksiga yol haqqini tolib mashinadan tushdi . Va ish izlashga kirishib ketti .....

\*\*\*

- Eshtaman Mirzo ?
- Siz soragan barcha malumotlarni yubordim .



- Yaxshi ochir .

Dilbar Nizamova honasiga kirib eshikni qulflab oldi . shu kunlarda hamma o'zi bn o'zi ovora . Shox erta ketib kech qaytadi . Aziz Nizamovni esa qachon ketib kelgani ham nomalum. Kelsa ham o'zining ish kabinetidan chiqmaydi . Dilbar Nizamova esa bor fikru hayoli och olish bn band . U umrining gullagan paytini bir ablah uchun xazon qildi va guzalligiyu yoshligini sevmagan insoniga bag'ishladi . U yashab o'tkan bemano va bemazmun hayotining bor aybini anvarga yukladi . U aybdor deb oyladi . Faqat shu hayollargina uni biroz bolsada tinchlantirar va zavq berardi ...

Kelgan faylni ochib oylasi bn tanishti :

[ Anvar Rashidov . 43 yoshda , tadbirkor biznesmen . Mol mulki haqida va hattoli bankdagi mablag'lari ham keltirib o'tilgan .

Ra'no Rashidova . 42 yoshda . Shifokor okulist . O'z shaxsiy klinikasi bor . ( Suratta anchayin yosh va guzal korinardi . Dilbar unga qarab turib beihtiyor ko'zgi tomonga burildi . Chiroydan undan o'tsa o'tadiki aslo qolishmaydi . Ammo uning chexrasi ... ko'zlarin yonib turardi . Bu uning bahtliligidan darak berardi ... )

Munira Rashidova . 23 yoshda , turmushga chiqqan . Hozirda Dubayda oylasi bn istiqomat qiladi

Umida Rashidova . 22 yoshda , AQShning Garvard universitetida grant boyincha oqiydi va hozirda osha yerda .

Zinnura Rashidova , 20 yoshda . U otasining sohasi boyincha ketmoqda bolajak biznes ledy

. ( Dilbar bir zum Zinnuraning chexrasiga qarab qoldi va unda o'zining soddaligi va guzalligini kordi , aynan shu narsa unga qol kelishini bilmay alamli jilmaydi va noutbukni yopti , undan keying malumotlarga nazar ham tashlamadi )

Dilbar endi nima qilishni biladi . Va buni aynan undan boshlaydi ...

## 32 Qism

Jasur erta tongdan xush kayfiyatta nonushta qildi va buyurtma qilgan kiyimlari kelgandan song kiyinib pastka tushdi . Mehmonxona hisobotlar va ohirgi daromadi bn tanishib kerakli hujjatlarga qol qoydi , song xizmatchi qizlarga ko'z siqib jilmayib ketti ... Ortidan esa intizor va hasta nigohlar kuzatganча qoldi .

Jasur tog'ri Nigora Nizamovanning " Barhayot " klinikasiga yol oldi . Ichkariga kirib anchayin navbatni kordi , ammo unga tez yordam bolimi kerak edi , chunki amalyotchilar osha yerda boladi . Jasur tog'ri

tez yordam bolimiga bordi va eshik yonida yana osha kungi Jasurni tili bn aytganda “ Jallod Hamshira “ turardi . Jasur sekin astalik bn mina maydonida yurgan odamdek qadam tashlab bordi va ko'zlar toqnashganda hamshiraga mamnun jilmayib qoydi .

- Yana senmi ?
  - Tanidingizmi ?
  - Xa yana nima boldi ?
  - Haligi ...
  - Buncha tirjayding ? – Jasur uning bu gapidan kulgusi yuqolib yuzi burishdi , shu paytgacha unga bunday deyishmaganda . U doyim insonlar qalbini tabassumi va shirin so'zlari bn zabt etardi . bu ayol esa toshga oxshaydi . Jasur biroz sukut saqladida undan xech narsa chiqmasligini bilib ortga qaytti
  - Hoy ketyabsanmi ?
  - Xa
  - Qayoqqa , doktor kerak emasmi ?
  - Nevrologka boraman .
  - Kardiyolog nima boldi ?
  - Uniku bir amalladim
  - Xosh endichi ? Nega bu yerga kelding o'zi bu yer tez yordam bolimi . Sendan ham yordamga tezroq muhtoj odamlar bor . Yaxshisi ish vaqti tugashini kut Romeo !
- Jasur unga ko'zlarini katta katta ochib qaradida yana tirjaydi ...
- Sezilyabtimi ?
  - Ko'r emasman yigitcha .
  - Mayli unda kutganim bolsin ^^

Jasur aytishga ayttikuya , ammo shuncha joydan uni korish uchun keldi ahir , kalidor odamlar bn gavjum edi . Jasur orindiqlardan biriga otirdi va homrayib oldi . Garchi ajoyib tuyg'uni his qilyotkanini sezsa , negadir ichida bunga qarshilik bor edi . Nimaga bundayligini bilmaydi . Balki qizlar bn xech jiddiy munosabat qurmagan uchundir . U shu paytgacha hayotida uchratgan qizlar haqida oyladi

Yoshligidan quvnoq , kirishimli , gapga usta bolgani uchun ham doyim qizlar borasida omadi kelgan , Qaysi qizga gap otsa doyim nishonga tekkan . U jiddiy munosabatlar haqida oylab kormagan . Ammo endi Laylo bn uchrashgach unga nima deyishini bilmaydi . hardoyimgidek lag'mon ossinmi ? Ammo bu Laylo . Jasur uning g'amginligini ham korolmaydiku . Yo'q . Hislarini oydinlashtirib olishi kerak ...

Jasur soatiga qaradi , qoyil 1 soattan beri qilt etmay bir joyda otiribtiya . Odatta u xech tinchimasdi . Xozir ham hayoliga ajoyib reja keldi .

Jasur tog'ri qabulhonaga keldi , qabulhonada yana osha burni puchiqqina qorachadan kelgan sochlarini bu safar yoyib olgan qiz otirardi . Jasur avval uning boyniga osib olgan beydjigiga etibor berdi : Ruhsora Alimova .

- Xayrli kun ...

- Assalo.....siz ? hm nima boldi miyamga klient toptizmi deyman – Jasur osha kungi xazili bugun qimmatga tushishini angladi

- Nima deganingiz Ruhsora , agar miyangizni sotmoqchi bolsangiz o'zim sotib olaman .

- O'zingizniki ishtan chiqtimi ?

- Yo'q , mahv etildi . Endi boshqa narsalarga joy yo'q . Yangi miya ziyon qilmasdi .

- Demak bu yerga yana mazah qilish uchun keldingiz shundaymi ?

- Aslo , men shunchaki siz bn kelishib olmoqchiman !

- Yana qanaqa kelishuv ? Nima haqida gapiryotkaningizni tushunmayabman !!!

- Menga kichkina malumot kerak

- Nimaaaaa ?

- Hoy tish ! Mahviy malumot emas . Hovliqmang

- Man etilgan . Nigora Nizamova bilsa oyog'imdan osadi . Ishdan haydaydi . Diplomimga pechat bosib beradi . Keyin xech qayerga ishga kirolmayman . ishsiz qolganimdan keyin esa..

- STOP !!! Nega buncha vohimachi bolasiz a ? Menga shu yerga amalyotga kelgan bir talaba qiz haqida malumot kerak holos . Bu unchalik ham qiyin emasku tog'rimi ?

Ruhsora bir zum Jasurga oychan tikildi , har tugul u oddiy malumot sorayabti . Bu unchalik ham muhum emas . Ichidagi hayajonni biroz bosib yigitga yuzlandida nimtabassum bn dedi

- Evazigachi ?

- Maroqli hordiqqa nima deysiz ?

- A ?

Jasur chontagidan qandaydir karta chiqardi , yaltirab turganidan uning qanday qimmatli ekanini bilsa bolardi

- Bu vip karta ! Bu bn siz meni Mehmonhonamdan yoqqan honani tanlab bemalol tekinga 3 kun dam ola olasiz . Buni hammaga ham taklif qilmayman .

- Korrupsiya !

- Aslo . Bu kelishuv , va bundan xech kim ziyon chekmaydi . Siz buni olganingiz uchun qamalib yoki ishdan ketmaysiz . Men esa malumot bn xech qanday davlatni yoki klinikangizni zabt etmayman ! demakki havotirga hojat ham orin ham yo'q .

Ruhsora oylanib qoldi . “ Rostan ham mendan nima ketadi , shunchaki kompyuterdan kerakli malumotni topib bersam kifoya . Uni ustiga bu unchalik ham mahviy emas ekanku ! “ deya oyladi va Jasurga yuzlanib

- Praktika uchun kelgan talabning ismi ?
- Laylo ...

Ruhsora tezlikta kompyuterga nimalarnidir terdi va bir ko'z yugurtirib qog'az va ruchka oldida korganlarini yozib buklab Jasurga uzatti , ammo Jasur endi qol chozgan payt qog'azni orqaga oldi va

- Avval karta !
- O , miyangizni ishlatyabszmi ? Mana marhamat , aytkancha yaroqlilik muddati 3 kun .
- Buni bildim ! Mana . Umid qilamanki endi bu yerda szni kormayman .
- Men esa aksincha , har kuni shu yerga kelishni orzu qilaman ...

Jasur mashinaga mindi va qog'azni ochib kordi . Ism sharifidan tortib , telefon raqami va hatto uy manzili ham bor edi . Eng muhumi esa ertaga qizni tug'ilgan kuni . Ertagaya !!!

Jasur bularni hayolida tahlil qilishga ulgurmay telefoni jiringlab qoldi

- Alo ?
- Jasur qayerdasan ? – Shoxruxning jarangdor ovozi dinamiksiz ham quloqni teshay deyotkandi
- Yettinchi osmonda ...
- Nima ?
- Nimaga sorading ? Endigina baht sharobidan mast bolmoqchiydim
- Nahotki , dostim mensiz a ??
- Senmi ? Qiziq seni yuraging bu sharobni kotaramikin ?
- Aytсам ishinmaysan , ammo men allaqachon sarxushman .
- Aldama !!!
- Ayttimku ishonmaysan deb !
- Xozir yoninga boraman , qayerdasan ?
- Kompaniyada , 2 kundan beri ish tashlash qilgandim , endi esa o'zimni Gimalay tog'ini zabt etyotkan odamdek his qilyabman . Bir dunyo ish !!!
- Yaxshi yoldaman !

Zinnura har doyimgidek darsdan chiqib o'zi yoqtirgan qahvahonaga kirdi va qahvasini olib endi chiqib ketayotgan payt turtilib ketti va qolidagi qahvani turtilib ketgan insoni ustiga behosdan tokilib ketti

- Ayy – ayol qahva tokilgan qolini va koilagining old qismini uf-uflab arta ketti
- Kechiring , behosdan aybdorman , uzr . Tohtang ozim , mana hozir .
- Boldi , yetarli – ayol o'zini undan uzoq tutti
- Ming bor uzr , kormay qoldim
- Xechqisi yoq .
- Juda hijolattaman !
- Boldi kechirim sorashni bas qiling . Agar rostan hijolatta bolsangiz va aybingizni yuvmoqchi bolsangiz men bn birga qahva ichishga nima deysiz ? Vada bergan sherigimni ishi chiqib qolibdi , yolg'izlikni yoqtirmayman !
- Albatta , bajonudil .

Ajoyib suhbat va qaynoq qahvadan song Zinnura qarshisidagi ayolga minnaddorchilik bildirdi

- Tushunganingiz uchun minnatdorman Dilbar Nizamova !
- Ajoyib qiz ekansz Zinnura , sohangiz ham tanish . Meni og'lim ham shu sohada ish yuritadi .
- Nahotki , men hali ham ish organuvchiman
- U esa ish boshqaruvchi . Shoxrux Nizamov . Yaqinda Londondan keldi .
- Ajoyib , demak anchayin tajribali va ishining ustasi ekanligi aniq .
- Albatta , maqtanish emasku , ammo og'lim juda ihtidorli . Fursat bolgandan sizni U bn tanishtirman .
- Nimayam derdim , qarshiligim yo'q . Bu men uchun ham yaxshi bolardi . Ish boyincha fikr almashardim.
- Bolishi mumkun , mayli endi men boray .
- Xayrli kun Dilbar Nizamova .
- Sizga ham Zinnura , yana korishamiz deb umid qilaman !
- Men ham .

Dilbar qahvahonadan mamnun qiyofada chiqib mashinaga otirdi va yolda telefoniga raqam terib kimgadir qong'iroq qildi .

- Nima boldi ? Necha marta qong'iroq qilibsiz ? Muhim xabaring bormi ?

\_ \*\*\*\*\*

- Nahotki ? Aminmisan ?

\_ \*\*\*\*\*

- Demak hammasi tayyor ?

\_ \*\*\*\*\*

- Ajoyib , kerak paytta o'zim senga xabar beraman . Endi esa telefoningni ochirib meni raqamimni ham tozala .

“ Demak ortiqcha harakatga hojat yo'q !!! O'zing o'z oyog'ing bn qasos olovimga sakraysan Anvar Rashidov ...! “

Dilbar Nizamova garchi biznes olamida bolmasa ham o'z vaqtida bu boyincha talim oldi va turmush ortog'iga yordamchi sifatida u bn ishlamoqchi bolgan . Lekin Aziz Nizamovning

“ Rafiqam ishlashini istamayman ! Uy bekasi bolish ham katta vazifa va masuliyat “ degan gapidan keyin hafsalasi pir bolgandi , bu gap unda “ Ishhonada menga poyloqchilik qilasanmi ? Har narsaga burningni tiqmay o'z orningni bil “ degandek tuyulgandi ...

Hozir mashina derazasidan kino lentasidek otyorkan tasvirlarga boqar ekan , qilyotkan ishi tog'riligiga ishonch hosil qildi . Va bu yoldan qaytmaslikka ahd qildi ...!

\* \* \* \* \*

- Xosh ish toptingmi ? – Madina o'zi ishda bolsa ham hayoli Nargizada edi . Shuning uchun holi qolgan kuyda unga qong'iroq qildi .

- Yo'q tayinli ish chiqmayabti !

- Nargiz maoshi katta ishni masuliyati katta boladi . Orqa oldinga qaramay qabul qilma uqtingmi !

- Bilaman Madi havotir olma .

- Aha , hayolim senda qolmasin , vahliroq qayt !

- Hop .

Madina endi telefonni ochirib printerdan chiqqan hujjatlarni tahlayotkan payt honaga Mira shoshilib kirib keldi va Madinani qoliga ikkita faylni tutqazib

- Bularni Farruh Nizamovga olib bor , men Aziz Nizamov bn konferensiyaga yordamchi bolib ketyabman , ha aytganча uzr sorashni ham unutma - dedida hovliqib chiqib ketdi

- Tovba , bu qiz 7 oylik tug'ilganmi , buncha shoshqaloq bolmasa ... tohta iye nega men uzr sorar ekanman ?????

Madina bisotidagi bor ezgu so'zlarini Miraga atab Farruh Nizamovning honasi yonida turib qoldi ,

“ ishqilib ichkarida bolmasinda xudoyim . Eson omon qoyib qochaman . “

Madina sekin eshikni ochib moraladi va xech kim yoqligini korib ichkariga kirdi , tog'rida ish stoli va aylana kursisi bor ekan , Madina unga etibor bermaslikka harakat qildi , ung tomonda stolga teskari qilib deraza tomonda divan va kursilar ornatilgandi , Madina u tomonga qaramay tog'ri stol ustiga hujjatlarni qoydida ortiga burildi va endi qadam qoygan ham ediki ....

### 33-QISM

Madina to'g'ri stol ustiga hujjatlarni qoydida ortiga burildi va endi qadam qoygan ham ediki palakat eshik ochilib Farruh Nizamova va oldida bir oyimcha bn kirib keldi .

Farruh yonidagi qizga qarab

- Biroz otira tur , ishlarimni bitishi bn ketamiz ...- dedida divandan joy korsatti . Qiz ham modellardek qadam tashlab bir yarim qarich keladigan tuflisini taqillatkancha borib otirdi . Ular huddi bu honada Madina yo'qdek harakat qilishardi . Madina ham ozini borligini sezdirib qoyish uchun oraga suquldi ...

- Assalomu aleykum Farruh Nizamov

Farruh shundagina huddi endi payqagan odamdek qiyofaga kirib Madinaga yuzlandi

- Salom ... mm ismingiz ?

Madina bundan ensasini qotirib qoydida bazor

- Madina Davletova !

- Xa Madina bu honada nima qilyabsiz ?

- O'tkan oydagi hisobotlarni soragan ekansiz ?!

- Xa o'tkan oyning boshida soragandim . Endi teptimi ?

- Menga emas Miraga . U berib yubordi .

- Òzi qani ?

- Aziz Nizamov bn konferensiyaga ketishdi .

- Yanachi ?

Madina Farruh nimani nazarda tutyotganini angladi .” Mira rostan ham bularni besh qoldek bilar ekan “  
deya oylab qoydi

- Yana uzrini yetkazdi . Kechikkani uchun !

- Axa , manabu hisobotlarni olingda - Farruh stol ustida turgan qogozlarni Madinaga tutqazdi - Qaytib olib keting . Va shu oyniki bn qoshib tayorlang !

- M..menmi ?

- Yòq , Zarnigorga aytyabman - orqa divandan qizning piq etib kulgani eshtildi . Madinaning asablari taranglasha boshladi . Xozir shu ishi uchun yaxshilab tepkan bolardi , ammo sinov muddati " Xuddi shunday Madi , sinov muddati , sinov muddati . Ichki hotirjamlik , ichki hotirjamlik ... Yaramas , olifta quyon "

- Xop bbolladi !!!

Madina honadan chiqib ketmoqchi bolgan payt Farruh chaqirib qoldi

- Madina ?

- Xxa ?



- Ketyotkaningizda Muniraga ikkita qahva aytib keting !

" Oldidagi telefon reklama uchunmi ? Uuff baribir olifta quyon "

- Xop .

Madina eshikdan chiqti va eshikka qarab ichida uni yaxshilab tarifladida qizga taqlid qilib poshnasini taqillatib ketdi . Qahva esa hayolida ham yoq !

\*\*\*\*\*

Zinnura uyiga kelib honasiga kotarildi va tezda eshikni yopib òzini yotoqqa tashladida

" Shoxrux Nizamov " deb internetga qidiruv berdi . Instagramdan chiqqan profiliga kirib yigit bn tashqi tarafdin tanishti .

Kelishgan , chiroyli va aqlli . Qarashlari jiddiy , tabassumi ham odamni òziga tortadi . Nigohlarida esa qandaydir otash bor . Qalbidagi olovni aks ettirgandek goyo . Zinnura bu yigitning suratiga qancha vaqt tikilib qolganini bilmaydi , eshigi taqillab ukasining ovozi kelgach hayolini yigishtirib telefonini darrov ochirdi va eshikka qaradi .

- Mumkinmi ? - Mansur eshikdan boshini kirgizib ruhsat soradi .

- Albatta kiraqol !

Kelib otirgach biroz jim turdida song opasiga yuzlanib gap boshladi ...

- Men sevib qoldim !

Zinnura 17 yoshli ukasidan bu gapni eshtgach biroz dovdirdi . Chunki uning kòziga Mansur hali ham yosh bola bolib korinardi , ammo ukasining tabiyatini bilgani uchun ham bu shunchaki havas deya oyladi ...

- Oxo , sevgi degin . Hmm sinfdoshingmi ?

- Yoq .

- Xaa kurslarda tanishtingmi ?

- Yòq .

- Unda internettami ?

- Shunaqaroq .

- Tushunarli . Men bn tanishtirasanmi ?

- Albatta , ahir shu uchun keldimku .

Mansur telefonini olib yoqti va Instagramga kirdi . Biroz titkilagach opasiga telefonini uzatti ... Zinnura telefonni olib korgach yotoqdan yiqilib tushay dedi . Chunki u korib turgan qiz Mansurdan kam deganda 4-5 yosh katta edi ...

- B...bu qizni opasimi ?

- Yòq . Òzi Dilshoda

- U sendan kattaku ?!

- 4 yosh katta . Ammo sevgi yosh tanlamaydiku ...

- Mansur sevgi nimaligini bilasanmi ozi ?

- Xa . Bu boshqaning istaklarini özingnikidan ustun qoya bilish

- Menga kitobdan organgan satrlaringni oqima ... Sen bu sòzning mohiyatini hali anglamagansan .  
Boshqaning istaklarini òzingnikidan ustun qoyish. Sen uni qaysi istagini ozingnikidan ustun qoyding ?  
Unga qanday gapingni òtkazasan ? Unga sizlab murojat qilasanmi ? Ikkingizni dunyoqarashingiz  
òzgacha ! Sevgi deganda boshqa boshqa narsani tushunasiz . U katta qiz ekan . Hatto mendan ham 1  
yosh katta . Sen 17 yoshdasan U esa

- 21 ... Boldimi ?

- Yoq bolmadi . Bolmaydi !!! . Esingni yigda blokka tiq !

- Ammo men uni sevaman...

- Sen haliyam sevgi deyabsanmi ? Oyim bu qizni korsa xushlaridan ketadi . Òzinga opa emas qiz top !!!

- Ammo meni tuygularim samimiy ...

- Albatta bunga aminman . Ammo bu sevgi emas Mansur ! Bu shunchaki yaxshi korish . Bular farqli  
narsalar .

- U bn uchrashmoqchiman !

- Mansur , bu yaxshi fikr emas .

- Unda nima yaxshi fikr ?

- Mana bu ...!

Zinnura Mansurning telefonini yoqtida Instagramidan " Dilosh\_123 " ni blokka tiqti va Mansurni Instagramdagi akkauntini udalit qilib telefonni ochirdi . Ichidan simkartani olib sindirdi va qayta telni yoqib ukasiga tutqazdi .

- Ammo uni yuragimdan bunday chiqarib tashlolmaymanda

- Havotir olma . Yangi simkarta qoysang boldi .

\*\*\*\*\*

Nargiza qizlar bn TV qarshisida otirardi . Qizlar berilib kino korsa Nargizani ikki kòzi telefonida edi . Qani endi jiringlasa ...

Homrayib olgan dugonasini korib Madina Layloni turtti va qoshini uchirib Nargizni ishora qildi . Laylo esa " bir gap booor " degandek boshini silkitib qoydi .

Kechki dasturhonda ham qizlar bugungi kun haqida tolib toshib qarqab gapirishsa Nargiza quvvatlagichga ulangan telefoniga qarab tuz ham totmadi . Ohiri qizlarning zòrlashi bn bir ikki qoshiq yegan boldi . Piyoladagi choyni endi hoplagandi telefon jiringladi , stuldan otilib turib telefonini oldida yotoqhonaga kirib ketdi ...

- Yaa kordingmi ? - Layloni turtti Madina

- Kormay boladimi , bu qizda aniq...

- Bir gap bor ! - yakunladi Madi - Xosh Layloginam nima qilamiz ?

- Xardoyimgidek - qizlar besh tashlashib sekin yotoqhona eshigi tomon borib quloqlarini qoyishdi .

- Xoy Laylo ?

- Nima ?

- Seni anavuning bor ediku ...

- Qaysi ?

- Bugun shifhonadan olib kelganingchi boyningda qolib ketgandi .

- E haa fanindaskopmi ? xozir ... - Laylo yugurib borib olib keldi va Madinaga berdi . Madina uni qulogiga taqib eshikka tiradi va quloq tutti ...

Nargiza shuncha kutganiga yarasha telefonni ancha jiringlattti . Yana raqamniham " Yana kòtarma " deb saqlab qoqgandi . Ammo foydasi yoq . Ohiri javob berdi

- Aloo ? Kim bu ?

- Xayrli kech!

- Siizz , sizga ham xayrli kech .

- Kuttirib qoymadimmi ?

- Qanaqa kuttirish haqida gapiryabsiz ?

- Demak kutmagansan ?

- Nima gapingiz bor edi ?

- Aytsam telefonni ochirmaysanmi ? - Nargizni yuragi hayajondan qattiq urib ketti . Havo yetmay chuqur-  
chuqur nafas oldi va bazor - Aytib koringchi .

- Seni korgim kelyabti ?!

- Nimaa ? Yana nima hohlaysiz . Unutmang Shoxrux Nizamov siz Toshkentning markazidagi qasrda men  
esa chekkasida turaman . Masofa juda uzoq .

- Yaqin kongillar uchun masofa xech qanday ahamiyta kasb etmaydi .

- Nahotki , qani isbotlangchi ?

- Mayli . Derazadan qara ...

Nargizani shu on yuragi tohtab qolay dedi . Qattiq qorqdi , xursand boldi , hayajonlandi . Hatto nima his qilyotkanini ozi ham anglamay qaltiragancha sekin sekin deraza tomonga yaqinlashdi . Va pardani ehtiyotkorlik bn chetka surdi ...

Ishonish qiyin , tashqarida Shoxrux mashinasiga suyangancha derazalarga kulib qarab turardi .

- Nega hayottan buncha xursandsiz ?

- Qaysi derazadasan ?

- Nima edi ?

- Uyingni bilmaymanku , topolmayabman ! - Shoxruxning hamma derazaaga umid bn qarab chiqyotkanini korib Nargiza kulib yubordi . Uning hatti harakatidan zavq olib kulardi .

- Ajab bopti . Men esa sizni aniq korib turibman .

- Xa kul kul . Uyingni topib olay ...

- Nima qilasz ? Eshigim tagiga yotib olasizmi ?

- Umuman olganda yaxshi fikr . Ammo menga bu yarashmaydi .

- Albatta ahir kimsan Shoxrux Nizamov . Ozi bu tumanda nima qiilyabsz . Keng va xashamatli honangizda miriqib dam olmaysizmi !!!

Nargiza Shoxruxning ohirgi gapidan negadir jahli chiqdi . Nimagaligini ozi ham bilmaydi . Keyin biroz qattiq gapirib qoymadimmi deya uyaliq qoldi .

Shoxrux qizni jahli nega chiqyotkanini anglab turardi . Ozini osmon olib yuborganini tushundi va biroz paska tushib gap boshladi .

- Nargiz ?

- Xa .

- Men haqimda ismimdan boshqa barchasini unut !

- A ?

- Urunib korchi ?!

- Shoxrux aka ?

- Yana bir bor

- Shoxrux aka ?

- Hmm menimcha bu yerda antena yaxshi emas

- Shoxrux aka ???

- Ovozing yaxshi kelmayabdi

- SHOXRUXH AKAA ???

Nargiza bu safar biroz baqirib aytti . Shundagina boyadan beri eshik tagida otirgan Madinani qulogiga nimadir kirdi

- Eshttim - deya sakradi Madina

- Nimani ?

- Shoxrux aka dediii
- Madi , ichib olganmisan ? Yo ishdan miyang aynidimi ? Bizni Nargiz aaa ???
- Endi bizniki emas-oov ...

Nargiza Shoxruxning ataylab shunday qilyotkanini faxmlab jahli chiqdi , ammo umuman hafa bolmadi

- Endi yaxshi eshtildi !

- Hmm voy ayyoree

- Nargiz , balki endi aytarsan ?

- Nimani ?

- Qaysi derazadaligingni ?

- Hoop aytaman .

- Xosh ?

Shoxrux Nargizni gapi ohirlamasdan orqasidan kimdir kelganini sezdi va ogirilib qaraganda ...

34 qism

Shoxrux Nargizani gapi ohirlamasdan orqasidan kimdir kelganini sezdi va ogirilib qaraganda... qolida allaqanday paketlar bn Jasur qarab turardi ...

- Jassurrr ??



- Shooox

- Sennn - ikkisiham bir vaqtda aytgan sòzlari shu boldi .

- Bu yerda nima qilyabsan ? - Jasurning qolidagi paketlarga nazar tashlarkan Shox .

- Aslida sen bu yerda nima qilyabsan ? Men seni hayajondan kòzimga madad bolib korinyabsan deb oylabman !

- Yana qanaqa hayajon ? Qanaqa madad ? Nimani boshlading ?

- Dostim seni menga hudoni ozi yetkazdi . Qani yordamlash ...

- Tohtab tur !!!

Shox telefonini qulog'iga qoyib

- Nargiz keyinroq yana telefon qilaman . Uxlab qolma !

- Nima boldi ?

- Ishim chiqib qoldi !

- Mayli . Xayr .

Shoxrux telefoninini ochirib Jasurga qaradi . Dostining tirjayib turganini korib dakki berdi

- Nima ?

- Nargiizzz , uxlab qolma , telefon qilaman ...

- Tirjayma !!!

- Nima balo meni tabassumimni korolmaysizlarmi ?

- Bu tirjayishning manosini bilaman !

- Ohooo , men ham bu kòzlarni taniyman !!! Nima balo sevib qoldingmi ?

Ayni damda Shoxrux anglolmayotkan narsa shu edi . Sevib qoldimi yo shunchaki yoqtiribmi ?

- Gapni chozma !!! Nima qilyotkanding bu yerda?

- Xullas gap bunday ...

\* \* \* \* \*

Nargiza telefonini ochirib yotoğiga tashladida homrayib eshikka yol oldi . Ammo hayoliga kelgan fikrdan songra labini tishlab kòzlarini yerdan uzmayotkan Layloga qaradi - Qizlaar !! Poyladinglarmi ?

Eshikka òziyam yopishib qolgan Madina ichkariga yiqildi ...

- Ayy

- Ohooo nima qilyabsizlar bu yerda ? - qollarini qovushtirgan Nargiza , shumshayib olgan Madinaga songra labini tishlab kòzlarini yerdan uzmayotkan Layloga qaradi - Qizlaar !! Poyladinglarmi ?

- Shunaqaroq ... - kòzi bn yer chizdi Madina

- Nima degani bu shunaqaroq ?

- Baribir xecnarsa eshtolmadik degani .

- Ajab bopti .

- Kim bn gaplashting ? - Kòzlarini yerdan olib dugonasiga qadadi - Xoosh aka dedingmi ? Yoq Shoxrux akamidi ? Shunaqayaa ???

- Yana xech narsa eshtmadikmush !!!

- Xoziroq javob ber !!! Laylo qaqqayib turma òrab olamiz!

- Nima ?

- Javob bermaguningcha qoymaymiz !!!

Qizlar Nargizani qitiqlay boshlashdi ...

- Boldi , yetar . Bass dedim... Oooff Shoxrux Nizamov !!

Ohiri baqirib yubordi Nargiza ...

Dugonalari tohtab bir biriga qarashdi , songra bir birini chimchilab korishdi .

- Tush emas !

- Tođri .

- Nimaaa ? - ikkisi ham Nargizaga hayrat bn qarab izoh kutishardi va hardoyimgidek Nargiza ham qulayroq otirib oldida gap boshladi ...

Nargizani gapi ohiriga yetmasdan Layloni telefoni jiringladi ...

- Xozir ... - deya telefonini kòtardida javob berdi ...- Alo Assalomu aleykum.

- Vaaleykum assalom Laylo ?
- A k..kim bu ?
- Men Jasurman ... esladimgi ?

Laylo jimib qoldi . Nafasi tiqilib tili aylanmay qoldi , yuzi esa pomidorday qizarib ketti . Nima deyishni bilmay sukut saqlab qoldi ...

- Alo ? Laylo ?
- Xa esladim ....
- Bir daqiqa ...

Endi Jasur jimib qoldi , Laylo ham intizorlik bn uni gapini davom etishini kutardi va biroz vaqtdan song Jasurning ovozi yangradi

- Tugilgan kuning bn Laylo ♡

Layloning yuziga beyihtiyor tabassum yugurdi va kòzlari devorga osilgan soatga tushdi ... Soat 00.00 .. 12 aprel . Layloning yuzidan marjondek tomchi yosh sizib chiqdi . U hayotida ilk bor , yaxshi tanimagan , ammo qalbidan joy olishga ulgurgan insondan tabrik olyotkan edi , ammo bu bilan yakunlanmagandi ...

- Laylo , tashqariga chiqa olasanmi ?

Jasurning bu savolidan biroz gangip qoldi va hatto oyoğidagi shippakka ham etibor bermay tashqariga yugurdi . Nargiza va Madina Layloning telbalardek eshikdan yugurib chiqqanini korib ortidan chiqishdi ...

Laylo tashqari eshikdan chiqib qotib qoldi ... Yerda yurak tarzida tizilib qoyilgan shamlar va ularning ortasida qolida katta guldasta bn qip qizil atirgullar orasiga oq atirgullar bilan Laylo ismini bitib ushlab turgan sehrli tabassum sohibi Jasur òzgacha nigohlar bilan qarshisidagi qizga tikilib turardi...

Biroz uzoqdagi mashinada romantika ruhini beruvchi musiqa taralib deyarli butun qavattagi uylar derazalari ochilib tomosha sahnasi ham qoyilgandi . Didjey esa qolida telefon bn dostini boyniga arqon osilishini muhrlab turgan Shoxrux edi ...

Ammo uning tirjayishi uzoqqa bormadi , tashqari eshikdan yugurib chiqqan Nargizani korgach beyihtiyor qolidagi telefon U tomonga toğirlandi . Qizning yuzidagi tabassum , kòzlaridagi quvonchni iloji boricha kattalashtirib oz telefoniga saqlab qoyishni istardi ...

Laylo qarshisidagi yigitga tikilib turishdan nariga òtmadi , nima qilishni bilmay qoldi . Na aqli va na qalbi ham hech ishora bermasdi . U Jasurning keyingi qadamini kutardi . Va Jasur ham qadamni kop kuttirmay tashladi . U olovli yurak ichidan chiqib Layloga yaqinlashdi va guldastani tutti ...

- Laylo ... xayrli kech .

U yoğiga tili aylanmadi . Soatlab Shoxruxni Laylo qilib repetitsiya qilgan , avvaldan yozib kelgan sòzlarini yotlab aytgan bolsa ham hozir qizning kòzlariga tikila turib hammasini unutti ... Va biroz muddat jim qoldi ...

Uning bu sukuti nafaqat Layloni balki ularni chettan kuzatib turgan Madina va Nargizni ham ado qilyotkan edi . Bu manzaradan ichagi qotib kulyotkan faqat Shoxrux boldi . U gapga chechan , lagmonfurushlikta oldiga jon solmaydigan dostining bir gapni ikkinchisiga qoshib aytolmayotkanini korib kulgidan ozini tohtatolmasdi ...

- Laylo , uzr yodlaganimni unutib qoydim , umuman olganda men yodlab yurmayman , qizlar bn gaplashganda ey yoğe nimalar deya bman ozi aniqroği gaplashib qolsam agar ... ish yuzasidan albatta , bunaqa tutilib qolmayman . Ularga bunaqa sòzlarni aytmaymanda . Xullas ...

Men ... men seni ilk korganimda òzgacha tuyğuni his etkanman . Buni sòz bilan tariflab bolmaydi , agar iloji bolganida dunyodagi jamiki guzal iboralar bilan ifoda etardim ... Ammo qisqa va tushunarli bolishi uchun uni shunday tariflayman : Ishq .

Balki sen uchun bular ishonarsiz yoki ahamiyatga ega emasdir . Ammo tuyğularim samimiy ... Agar tanishgan vaqtimizni oylab shubha qilyotkan bolsang , insonlarni tanish uchun bir qarashning ozi kifoya qiladi , ammo bazida butun umr ham kamlik qiladi . Bu endi men uchun ahamiyat kasb etmaydi . Chunki men seni butun umrim boyi tanishib borishga ham roziman . Xosh sen meni tuyğularimni qabul qilib imkon bera olasanmi ...?

Laylo endi ogiz juftlaganda Jasur tohtatti

- Yoq tohta , xozir emas . Bilasanmi ? Men bu lahzaga qancha tayorlandim . Kechadan beri ichimdagi tuyğularimni aytish uchun taraddutlandim . Ammo shuncha sòzdan keyin bir necha soniyada javob berma !!! Oylab kor . Ertagacha yoki indinga , balki keyingi hafta yoki keyingi oymi??? Muhimi yaxshilab oyla va iltimos aqlingni bir chetka surib qalbing bilan maslahat qil ! Chunki faqat u meni his qila oladi ...

- Jasur aka ... men oylab koraman .

Laylo bu sòzlarni xech tutilmay ishonch bilan takidladi . Ha u oylab koradi , aslidaku oylashga hojat yòq . Chunki ayni damda uni yuragini monitorga ulasa chiziq orniga ... Jasur .. Jasur ... degan yozuv chiqadi . Ammo hozir buni oziga bildirsa aniq Jasurning yuragi tohtab qoladi ...

Jasur Layloning javobidan xursand boldi , chunki ayni damda bu u uchun Umid edi . Va shuning ozi unga cheksiz quvonch hisini beryotkan edi . Qolidagi gullarni Layloga tutqazdi va yana bir bor tabriklab qoydi

- Tuğilgan kuning muborak bolsin Laylo ♡

- Rahmat ...

Nargizaning kòzlari nogahon undan uzilmayotkan nigohlarga tushdi . Va ich ichidan quvonch hisini tuydi . Negaligini ozi ham bilmaydi . Balki uning tunde k qora kòzlarida uzoqtan bolsa ham oz aksini korgani uchundir ...

Shoxrux anchadan beri kuzatyotkan chehraning etibori oziga qaratilgandan song unga yana ham mehrli nigohlar bn boqti . Goyoki senga bolgan tuygularimni korib qoy degandek ... Va ayyorona jilmayib kòzini siqib qoydi . Nargiza esa javoban labini burib yana kozini bu tunning oyiga aylangan juftlikka qaratti , ammo hayoli osha tarafda qolgandi .

Bu imo ishorani kuzatib turgan Madina bu tun juda kop narsa olib kelganini guvohi boldi . Jasur va Laylo , Shoxrux va Nargiza ... shu on uning hayoliga bugungi kundagi Farruhning hatti harakati keldi va beyihtiyor tilidan " Olifta quyon " deb chiqib ketti . Nargiza unga savol nazari bilan qaraganini korgach samimiy jilmaydida va boshini silkitib qoydi .

Jasur Layloga gulni tutqazgach , mashinaga suyangancha tirjayib turgan Shoxruxga ishora qildi . Ammo Shoxruxning kozi Nargizadan boshqasini kormasdi ... Jasur hatto hushtak ham chaldi . Ammo befoyda , ohiri ozi bordi va mashina bagajini ochib boyi òzidek keladigan yumshoq ayiqni oldida Shoxruxni turtib

- Romantikani ham beliga tebtng ey ! - deya yumshoq ayiqni kotarib Layloga uzatti aniqrogi uzatmoqchi boldi , ammo qizning kichkina va nozik jussasini korib bu ayiq ostida nafasi tiqilib qolmasin deya qolida ushlab tura qoldi .

Laylo qanchalik sovgalarni rad etsa ham Jasur ozining muloyim va yoqimli sòzlari bilan uni kondirdir ... Keyinchalik esa qizlar uchovi bolib yumshoq ayiqni kotarib olishdi . Jasurning bu yerdan ketishi qiyin boldi . Shoxrux uni sudrab mashinga otirgizdi va gazni bosdi . Qizlar ham derazalardan qarab turgan jonli kameralardan qochib ichkariga otishdi va uyga kirib tinmay baqirib kulishardi , faqat Laylogina boyagi atmosferadan chiqolmay koz oldidan Jasurning òtli nigohi ketmasdi ...

Qizlar Jasur bergan tortni ochib korishdi , ustidagi ozgacha zeb bilan yozilgan " Laylo " ismini korib pichoq bilan kesishga kòzlari qiymadi va shu holicha muzlatkichga solib qoyishdi . Madina esa muzlatkich atrofidan nari ketolmasdi . U shirinlik jinnisi edida ...

Biroz vaqttan song qizlar òz sovgalari bilan dugonalarini hushnud etishdi ...

Nargiza Laylo sevib oqiydigan va anchadan beri reja qilib turgan kitoblarni sovgà qildi ... Madina esa ortasida " Laylo " degan yozuvi bor medalyon taqdim etti ...

- Bizniki ja Jasurbekni chalik katta bolmasa ham ...

- Juda qadrli - deya Laylo Madinani gapini yakunlab qoydi ...

Qizlar òzlari olib kelib tayorlab qoygan torttni sham qoyib pùflashdi , song kesishdi ... Ammo Madinaning kòzlari hali ham muzlatkichda edi ...

Tabrik sòzga navbat kelganda Nargiza qadahni qoliga oldi va tomoğini qirib qoyib sòz boshladi

- Qadrligim ... sirdoshim , dugonam , opam , singlim , otam , onam , oylam seni bugungi tavnallud ayyoming bilan tabriklayman . Ollohimni seni bizga bergani uchun mingdan ming shukur qilamiz ... Sen juda ajoyib qizsan Laylo . Bebahosan ... Va biz uchun juda qadrlisan ... Umid qilamanki 21 yoshing senga 21 hil baht olib kelsin . Senga sevis va sevilish nasib etsin . Hayot yolingda doyim soğliq va omad hamrohing bolsin . Niyatlaring ijobatini tilayman dugonajon . Tuğilgan kuning bilan ... - Layloni qattiq quchib qoydi Nargiza . Song Madina ornidan turib qadahiga qolidagi vilka bilan bir ikki chertib qoydi vaholanki ikki dugonasini ham quloğı unda edi ...

- Layloginam ... guzalim seni tuğilagn kuning bilan tabriklayman . Doyimo hozirgidek xursand va bahtli bolishingni , kòzlaring quvonchdan porlashini , yuraging davleniyadan emas sevgidan qattiq urishini , kòz yoshlaring ğamdan emas xursanchilikdan tokilishini , va hayoting sevganing bilan mazmunli òtishini tilayman . Sen bu dunyodagi eng yaxshilariga munosibsan guzalim . Bahtli bol !! - Madina bir varakayiga ikki dugonasini ham quchib oldi va quloqlariga sekin shivirladi ...

- Balki Jasur olib kelgan tortni kesarmiz ...

- Uff Madina - uning bu gapidan Nargiza dakki bersa Laylo qotib kulardi ...

\*\*\*\*\*

Farruh uyiga kirib keldi . Chiroqlar yoqilgan demak oyisi uyda

- Oyi ?

- Keldingmi ? - oshxonadan fartuguni yechgancha Nigora Nizamova chiqub keldi va kelib oq Farruhni bağriga bosdi ...

- Tinchlikmi ? Bugun biron bayrammi , oshxonaga shaxsan òzlari tashrif buyuribtilar ?

- Xa bayram ... Anchadan beri kutilgan kun yaqin keldi ..

Farruh , Shox aksiyalarni sotmoqchi !

### 35 qism

Shoxrux mashinada yonida Jasur bilan ketardi ... Ikkisi ham jim , aniqroği òz olamlarida edi . Bu jimjitlikni Jasur buzdi

- Shox ?!

- Xa .

- Esingdami Azizni toyi ? Toyhona eshigidan bizga yuqmasin deb hatlagandik )

- Xa ( tabassum qilib yana yolga qaradi )

- Oshanda aks tasir qilgan ekan !

- Nima ? Nega ? Tohta sen uylanmoqchimisani ?

- Xa nima ? Men Laylo bilan birga bolishni hohlayman . Hozirgidek . Meni ornimda U , rolda esa men mashina boshqarib uni qolidan tutishni istayman !



- Shundoq ham qolidan ushlayver !

- Ee yoq . Laylo unaqa qizlardan emasda . Juda uyatchang , gap olish qiyin . Uni doyim yonimda bolishini hohlayman . Jin ursin bu qanaqa tuygu ozi ? Ortga qaytamizmi ? A Shox ?

- Bu safar aniq qoshnilari chiqib quvib soladi . Oziyam fonogramkali serenadang bilan hammani bezor qilding ! Bularni qanday bilding ? Qachon tayorlading ? Bugun gaplashganimizda aytmagandingku !

- Kecha . Laylo ammingni klinikasida praktikaga kelgandi . Osha yerdagi qabulhonada U haqida malumot oldim . Unda tugilgan kuni bugunga sanada korsatilganda va yana...

- Yana nima ?

- U Bolalar uyida katta bolgan ekan ! Buni bilgach esa unga yanayam koproq gamhorlik qilgim yonida bolgim keldi .

Shox bir zum oylanib qoldi . Nargiza va yonidagi qiz ham Layloni dugonasi . Shoshma ! Yonidagi qiz ... Ahir U bizning kompaniyada ishlaydiku . Ismi nima edi , Mubinami ? Munira yoki haa Madina . Nargiza haqida undan koproq malumot olishim mumkun.

- Shox yolga qaraaa !!!!

\*\*\*\*

Dilbar Nizamova hali ham mijja qoqmay telefoniga qarab otirgandi . U kutgan xabar nega haliyam kelmayabti ? Nega buncha chozilib ketti ? Yoki uxlab qoldimikin ?

Va nihoyat uzoq kuttirgan qongiroq chalindi

- Alo ?

- \*

- Qachon boladi ?

- \*

- Demak hammasi taht , faqat imzo kerak shundaymi ?

- \* , \*\*\*\*\*

- Boldi . Seni ishing hujjatlarni vaqtida menga yetkazish . Qolgani bilan ozim shugillanaman !

\*\*\*\*

Farruh honasida shiftga termulganча hayollari bilan edi ... U ozi tushgan yol qanchalak togriligi haqida oylardi . Ammo Onasining gaplariga suyansa U oziga tegishli narsanigina olyabti va bu unchalik ham yomon emas ! Ahir Shoxruxni bor budini ( Undan ham ortigini ) tortib olmayabtiku . Bir necha foyiz aksiya holos . Demak bundan vijdoni qiynalamasa ham boladi .

Ornidan turib yuvinish honasiga kirdi va yuz qolini yuvib oynaga qaradi . Kòzlaridagi ishonchsizlikni korib yuzini burdi va yotoqhonaga qaytti . U ozida umuman yoq deb oylagan vijdoni qiynalyotkanini tan olgisi kelmasdi va endi bari kech ekanini ham anglab turardi .

\* \* \* \* \*

Nargiza Shoxruxning qongirogini uzoq kutti va ohiri uxlab qoldi .

Laylo esa tuni boyi kòz ilmadi . Hayajon shamoli uyqu shamini ochirib bolgandi . Uning hayoli uzoq - uzoqlarda edi ... Ertalabgacha shu oy hayollar bilan quyoshni qarshi oldi va tongi nonushtani qizlar bilan qilib klinikaga yòl oldi .

Madina esa bugun ishga borishga oyoqi tortmayotkandi . Hatto kasal bolib qildim deb yotib ham oldi , ammo unga muzlatkichdagi tortni kesib berishgandan keyin yedida , dugonalari aldab ishga jonatishdi .

Madinaning ishga bormasligiga yagona sababi Farruh edi ... Birinchidan u bergan tushunarsiz va qiyin hisobot bolsa , ikkinchidan uni korganda òzini egallab oladigan hislar edi ... U bularning ikkisidan ham tezroq qutulishni oylab kompaniya binosiga tikilib turardi .

Nargiza " Kitoblar Olami " kafesidan ish tobtı . Ishi unchalik qiyin emas , maoshi ham yaxshigina . Va eng muhimi kitoblar bor . Hatto izlagan kitobingizni pdf variyanti bolsa ham topib berishadi . Bu esa Nargiza uchun ayni muddao edi ... Isho soat 08:00 da boshlanib 18:00 da tugardi .

Nargiza yol boyi telefoniga qarab keldi , balki òzi qongiroq qilar . Yoq , gururi yòl qoymaydi .

" Ee shu gururinga ham ot tebsin " deydigan odam yoq . Ayni damda qongiroq qilishi kerak bolgan inson kasalhonada osma ukol tagida yotardi .

Shoxrux hayoli Nargiza bn band bolib oldidan òtkan mashinani payqamay yol bermay otib ketmoqchi bolganida onga burildi va yoldan chiqib ketti . Boshi mashina old oynasiga urilgan edi . Ammo jarohati oğir emas . Jasur esa oyogı lat yegan va peshonasi biroz shilingandi ...

- Uygondingmi Shox ?

- X.xa ahvoling yaxshimi ?

- Sal qolsa òldirardingku yaramas . Endi yashashni organyotkan paytim edi .

- Vahima qilma . Biroz peshonang tiralibti holos .

- Shu peshonam shor bolmaganda seni mashinanga chiqarmidim ? Qachon zreniyadan ayrilding ? Yòq oldingdan òtyotkan mashinani qanday kormaslik mumkun ?

- Mana mumkun ekanku . Hayolim chalğibdi .

- Qaysi guzalga ?

- Layloni dugonasi ekan .

- Ohho boja bolarkanmizda . Toy kuni sen bilan bir mashinga otirmayman . Visol oqshomimga yetmasdan bir yòqlik qilasan !!!

- Bir bolib qoldi endi . Shuni yana qancha yuzimga solasan ?

- Xumorimdan chiqquncha !

Eshik ochilib Nigora Nizamova va uning ortidan oq halatta Laylo kirib keldi . Jasurni korib kòzi chiqib ketay dedi . Nigora Nizamova ularni tekshirib , Layloga nima kerakligini aytti

- Ancha yaxshimisizlar ? Shox oğlim nega ehtiyot bolmading ?

- Men ham shunga hayronman . Qatiqni ham puflab ichadigan Shoxrux Nizamovni kòzi qayerda edi ? - Jasur ornidan qimirlamay Shoxga qarab qoydi .

- Sendan ajoyib jurnalist chiqarkan Jasur - gapga aralashdi Nigora Nizamova- yoq joydan gap olib , pashshadan fil yasaysan !

- Nahotki , demak qarindoshchiligimiz bor ekan Nigora Nizamova. Mabodo Otam tarafdan emasmikin ?

Uning bu xazilidan Laylo piq etib kulib qoydi . Shox esa norozi qarashi bilan

" Jim " degandek ishora qildi . Nigora Nizamova Shoxga salomatlik tilab chiqib ketti va honada Laylo va yigitlar qolishdi ...

- Òzi nima boldi ? - havotir aralash gapirdi Laylo Jasurdan kòz uzmay .

- Bahtsiz hodisa - deya tarifladi Shox

- Sal qolsa javobingni u dunyodan eshtib olardim Laylo

- Uf bu yana boshladi - deya choyshabni boshiga orab yotti Shoxrux .

- Hudoni òzi asrabti Jasur aka .

- Sen uchun ...

Bir biriga mehr bilan tikilib turgan oshiqnlarni Shoxruxning tomoq qirishi chalgitti va Laylo honani tark etti ...

- Shu shartmidi hozir ? - Shoxruxning ishidan hafsalasi pir bolgan Jasur dostiga dakki berdi . - Men bolganda jiiim otirardim .

- Men sen emasman ! Yaxshisi hozir jiiim otira qol . Boshim tars yorilay deyabti !

Laylo honadan chiqqan hamono qoliga qol telefonini oldi va ...

### 36 Qism

Laylo honadan chiqqan hamono qoliga qol telefonini oldi va ...

\* \* \* \*

Nargiza kafeda mijozlardan buyurtma olyotkan edi . Birdan jiringlagan qol telefoni uni chalgitti va mijozlardan uzr sorab chetka chiqdi .

- Eshtaman Laylo ?

- Nargiz xoziroq men praktika otayotkan klinikamga kel !!!

- Nima boldi ? Ahvoling yaxshimi? Senga biron nima boldimi ?

- Uf menga emas . Shoxrux Nizamov! U palatada yotibti ! Kecha qaytishyotkan payt avtohalokatga uchrashibti !!!

- NIMAAA ???

- Nargiz qulog'im ! - Laylo telefonni qulog'idan biroz uzoqlashtirdi va gapida davom etti ...- Bahtsiz tasodif . Kelasanmi ?

- A.. X..aa xa albatta xozir !

Nargiz telefonni ochirdi va joyida bir muddat turib qoldi . Ichidagi qorquvdan hatto qimirlolmasdi . Kozlari oz ozidan yoshga toldi ...

" Agar unga biron nima bolgandachi ? Unda ... " Nargiza Shoxruxtan ayrilishini va uni boshqa korolmasligini oylagan zahoti kòzidan yosh oqib tushdi . Qachon ? Qachon uni shunchalik sevib qolishga ulgurdi ? Buni òzi ham bilmaydi . Yagona biladigan narsasi xozir Shoxruxni yonida bolishi kerak !

Nargiza kòz yoshlarini artib Matluba opani yoniga bordi ...

- Mumkunmi Matluba opa ? - Hona eshigi ochiq bolgani uchun eshik oldiga kelib ruhsat sòradi ...

- Xa ? Kel .

- Assalomu aleykum .

- Vaaleykum assalom , nima boldi ? Mijozlar bilan muommomi ?

- Yòq , ish boyincha hammasi joyida . Haligi ... sizdan ruhsat sòramoqchi edim .

Yoshi ellikka qarab ketyotkan , sochlariga oq oralagan bolsa ham qora kraskaga burkangani uchun bilinmagan , yashil kòzlarini kòzoynagi ostidan Nargiza tikib nigohi bn qizni damini ichiga tushirdi !!!

- Ruhsat ? Birinchi kundan a ? Yana hali tush payti ham bolmadi ? Xosh ...

- Bilaman , bu ishim noto'g'ri , ammo tanishim kasalhonaga tushib qolibti ! Xozirgina xabar toptim , kormasam bolmaydi .

- Tanishing bolsa ishtan keyin ham boraver !

- Aniqro'gi dostim .

- Hmm , bir necha soniyada tanishingdan dostinga aylandi , demak bir necha daqiqadan keyin kim bolishini hudo biladi ...

- Gap shundaki ...

- Tushundim . Sevgan yigiting mi ?

Nargiza bunday jiddiy va sovuq qarashli ayoldan bu gapni kutmagandi . Sevgi dedimi ? Sevgi nimaligini bilarmikin ? ... bu savollar Matluba opani korgan har qanday kishini hayolidan o'tadi ...

Undagi sovuq qarashlar , hissiz nigohlar , kòziga tik qarab gapirishga izin bermasdi . Nargiza ham uning savolidan biroz hijolat tortib boshini tasdiq manosida qimirlatib qoydi ...

- Yaxshi . Mayli bor ! Ammo bu birinchi va ohirgisi deb umid qilaman Davletova !

- Albatta , rahmat Matluba opa .

Nargiza kòzlaridagi yoshni korsatmay honadan otilib chiqdi va narsalarini olib kafedan chiqib ketti ...

Matluba opa Nargizani ortidan oylanib qoldi ... Va bir paytlar o'zi ham u kabi hayajonlangani , qòrqqani , sevgani haqida oyladi ...

Oshanda Matluba endi 17 yoshda edi . Oddiy qishloq qizi , otasi dalada fermer edi ... Har pahta mahali tinmay pahta terar , oqishi ham chala qolgan edi ... Istarasi issiq , tarbiyali , aqlli va muloyim bolgani uchun ham u bilan tanishgan har qanday kishini konglidan joy olardi . Shu jumladan Fermerlarga yordam uchun yuborilgan Agronom Adham Umarovni nazaridan ham chetta qolmagandi ... Garchi chiroy borasida undan ming chandon oldinda bolgan qizlar ham yoq emasdi ... Ammo Adhamni Matlubadagi bir hislat òziga tortardi ... Buni nimaligini òzi ham bilmaydi ... Bora bora U tinmay Tohtamurod akaning ( Matlubaning otasi ) yerlariga serqatnov bolib qoldi . Boshqa fermerlar chaqirsagina borar bu yerda esa qachon qarama boy korsatib turardi ...

Qishloqning shpiyon hotinlari ham buni payqashgani hamono òzlarining

" Qishloqdagi issiq xabarlar " gazetasida chop etishdi . Nimamush

" Agronomning ishqiy sarguzashtlari yoki Pismiqlik bolish ham sanat ekanda Matlubahon "

Bu Tohtamurod akani qulog'iga yetkani hamono qizini oldida turgazib soroqqa tutti ...

Matlubaning harqancha

- Otajon , men u yigit bilan hatto gaplashmaganman ham ...

deyishiga qaramay ...

- Shamol bolmasa darahetni uchi qimirlamaydi ... - deya qizidan shubha qildi va qishloqdagi gaplardan or qilib eshikni birinchi urgan kishiga qizimni berganim bolsin deya òziga vada berdi .

Endi 18 ga qadam qoyish arafasida bolgan Matluba narigi mahalladagi yaqinda hotini qazo qilgan Malik ismli kishiga uzatildi .

Toy kuni otasidan oq fotiha olarkan ich-ichidan qilmagan ishi , gapirmagan gapi uchun olyotkan jazosidan norozi edi . Tanimagan , bilmagan , hattoki endi korib turgan kishisini etagidan ushlab ketyabti . Òzga uy , òzga insonlar va umrini ohiriga bir yostiqa bosh qoyadigan umr yoldoshi ...

Endi mashinaga otiryotkan payt eski devorli kochalar boyida òziga qaratilgan nigohlar diqqatini tortti ...

Adham qizargan kòzlari bilan uni kuzatib turardi ...

Garchi Matluba boshini kotarib unga javob qaytarmagan , dil isxorlariga rozilik bildirmagan bolsada , qalbida unga nisbattan Ishq bor edi ...

Ilk bor unga xechbir sabasiz yordam bergan ( tushlik vaqti kelganda choy qaynatish uchun suv tashishdan tortib , dasturhon tuzashgacha bolgan kichik yordamlar ham Matluba uchun bir olam



quvonch berardi ) , g'amhorlik qilgan ( pahta tolgan qopini og'irligi uchun ozi kotarib tarozigacha eltib bergan ... doyim tarozida muommo chiqsa uni tarafini olgan ) , unga mehrli nigohlari bilan qarab butun olamlarni bolmasa ham oz dunyosini vada qilgan inson uni kòz yoshlari bilan kuzatardi ...

Hattoki Adham toydan ( Xechqanday dabdaba va oq libossiz otkan toy . Kuyov bolmishni hotinlari yaqinda qazo qilgani va bu ikkinchi turmushi bolgani uchun ham xech qanday bazm bolmadi . Xechkim qiz hali yosh , orzu havasi nima boladi . Xech bolmasa oq koylak kiysin demadi ..deyolmadi .

Tohtamurod aka ham huddi yelkasidagi yuktan qutulyotkandek qosh qollab berib yuboraqoldi . Nikoh oqilgach qizni kòz yoshlariga garq qilib olib ketishdi ... )

Bir kun oldin kelib Matlubaga qochishni taklif qildi . Shu paytgacha qancha marta qizga sòz qotgan bolsada xech aniq javob ololmagan hattoki Matluba unga gapirmasdi ham . Ammo bu kun u ichida borini aytib solishi mumkun edi , lekin indamadi ... Ozgaga yor bolib yigitni shu olovda kuydirib ketishni eb kormadi . Gunoh sanadi ... va

- Bas qiling ! Men endi boshqani haloli bolaman ! Unuting meni . Sizga biron marta bolsin rozilik berganmidim ? Hislaringizga javob qaytardimmi ? Nahotki anglamadingiz ? Sizda konglim yoq ! Bolajak umr yoldoshimga kelsak ... ha U Otamni tanlovi va bu men uchun qonun ! Endi esa keting ! Va bu yerga boshqa qaytmang !!!

Matluba mashinaga otira turib yana bir bor unga kòz tashladi ... Va huddi vidolashyotkan inson singari mahzun jilmayib qoydi ...

Keyingi voqealar huddi kino lentasidek Matluba opaning hayolidan majburan otti , ozi hohlamasa ham kòz oldiga kelaverdi ...

Erining birinchi hotini bilan bolgan 5 yillik turmushida farzandi bolmagan ekan ... 35 yoshli Malikning Volidasi Risolat aya yangi tushkan kelinning yangiligini kuta kuta charchadi va ohiri yorildi . . .

Endi Matluba ga xechkim kun bermas " Tugmas hotin " , " Bepusht " deya tamga bosishti . Bolaligida onasi ukasini dunyoga keltiraman deb bu yoruq olamni tark etgandi . Otasi esa uzatkandan keyin qizini hatto yoqlab ham qoymadi ...

Bu azob va dashnomlardan ichi tolib ketkan Matluba dardini kimga aytishni bilmasdi . Bu ham yetmagandek turmushi buzilib qaytib kelgan qaynisinglisi ham ogli bilan unga kun bermaslikka qaror qilishdi choqi , uning ham erkaliklari va injiqligi boshlandi .

" Òlgan ustiga tepkan qilgandek " eri ham ichib keladigan odat chiqardi va Matlubani " Hudoni bergan balosi " deya tinmay kaltaklardi , ohiri charchab uxlab qolardi ...

Bolam bechorani " aroqxor , alkash qilding shumqadam " deya qaynonasi ham kuni boyi qarqab jagi tolmasdi ...

Tinmay horlanishlar , kaltaklar , betinim ish , uyqusiz tunlar ... Matlubani ado qildi ...

Ohiri qoliga arqon olib Molhonaga òtti va hayoliga kelgan u uchun

" Najot " bolib koringan ishga qol urdi . Arqonni ustinga boglab kursiga chiqdi va kòzlarini yumib chuqur nafas oldida kursidan sakradi ...

Kòz oldi qorongulashib , nafasi tiqilib endi òldim deganda ... arqon ustundan uzilib yerga " gurs " etib yiqildi ...

" Qirq kun qirgin kelsa ham ajali yetkan òladi ... " deb bejizga aytishmas ekan .

Matluba ham kòzlarini shifohonada ochti . Militsiyadan kelib nega bunday qilgani haqida sòrashdi ...

Uni Molhonadan qaynisinglisini ogli Rasul topib olgan va baralla baqirib hammani chaqirgan . Devori tokilib ketgani uchun ovozi kelgan hamono qoshnisi Ruqiya aya ham yugurib kelgan va tezda shifohonadan yordam chaqirishgan . Shuncha kun kasalhonada yotsa ham xech kim korgani kelmabdi ...

Xorligi kelib yiglab yubordi va militsiyaga erining qilmishlarini aytib berdi , uyiga ochgan yashirin qimorhonasi haqida ham xabar berdi . Malikning qamoqqa ketganidan song anchagacha Risolat aya va qaynisinglisi Sabohat bilan ortada janjallar bolib òtti ...

Ammo endi Matluba uchun bular xech qanday ahamiyatga ega emasdi . Chunki U oziq berilgan ikkinchi imkoniyatni , ikkinchi hayotni qolidan kelgancha ozi istagancha yashashga qaror qilgandi ....

Avvaliga shaxarga keldi , bari oson bolmasligi ayon edi ... Ammo boshi doyim qiyin boladi . Ter tokib ishladi . Oddiygina ammo anchayin gavjum bolgan restoranga ishga kirdi . Avvaliga farroshlik qildi , song idish yuvdi . Keyinchalik osha yerdagi oshpaz Yuriy dan har hil taomlar va pishiriqlarni organdi ... Orzu qildi , maqsad qoydi . Va kichik bolsa ham òz qahvahasini ochdi . Oshpaz ham ozi , ofitsiyant ham òzi va bazida mijoz ham òzi bolardi ...

Ammo " oyning 15 - i qorongu bolsa 15 - i yoruq boladi " ... Sekin sekin oyoqqa turdi . Gavjum odamlar va yaxshigina daromad bilan qahvahasini kengaytirdi va ishchi kuchi oldi . Avvaliga bitta , keyin ikkita va mana xozirga kelib 4 taga yetti .

6 yillik umri , yoshligi osha noinsoflarni qolida xazon boldi ... Undan keyin Matluba oyla qurmadi . Ammo kòrgan kechirganlari hisobi uchun doktor korrigiga bordi va u uchun bu hayotta eshtgan eng ajoyib sòz va kòzidan yosh oqizib yiglatgan jumla

" Siz ona bola olasiz " ...edi

Matluba achchiq hotiralardan kòzi yoshlanib kòzoynagini yechdida romolcha bilan kòz yoshini artti va yana kòzoynagini taqib bu hayotta mazmunga aylangan ishiga qaytti ...

\* \* \* \*

Madina ishxonada Mira va ozi uchun ajratilgan honadan chiqmay otirardi. Mira ham hali qaytmadi . Bu hafta qaytmasa ham kerak . Chunki konferensiya Dubayda bolib òtarkan . Endi undan umid yòq . Ammo Madina xisobot tayorlash boyincha xech qanday tajribaga ega emas ! Va u eng yomon korgan narsa kimgadir xisob berish .

Boshini stolga qoyib yiglagudek bolib otirgan Madinani eshikning ochib yopilishi diqqatini tortti va boshini kotarib tepasida qolini qovushtirganicha unga òtkir nigohlari bilan qarab turgan Farruh Nizamovni kordi ...

- A..ass.alomu aleykummm ...

- Salom ... Xosh Madina ? Shuyergacha kelishga majbur qilganinga yarasha xisobotni qoyilmaqom qilib tayorlagan bolsang kerak !!!

Madina sekin ornidan turib stol tagiga kirdi va osha yerda otirmoqchi boldi . Bu xechqanday foyda bermasa ham u xozir mana bu " olifta quyonna " oldida yiglab yubormasligini taminlardi ...

- Bu yerda nima qilyabsan ? - Farruh stol tagiga egilib unga ahmoqqa qaragandek qaradi ...

- Izlayabman ... - deb burnini tortib qoydi va kozidan yosh oqib tushmasligi uchun uzun uzun kipriklarini pir-piratti ...

- Nimani ? Xisobotnimi ?

- Uuff xisobot , xisobot deb odamni ezib yubordingiz . Bilmayman men , xisobot tayorlashni bilmayman !!!!

Madina ovozini balandlatib boshini kotargani hamono stolga urib oldi

- Ayy boshim ...

- Òzi bom bosh edi , haliyam pachoq bolmabti ... qani qolingni ber bu yerdan chiq . Yosh bolasan a !!!

Farruh Madinani qolidan ushlab stol tagidan chiqardi va qolini qoyib yuborib unga yuzlandi ...

- Demak bilmaysan ?

- Yòq - yosh bolalrdek aybdorona ikki yuzi qizarib boshini egib oldi va burnini tortib qoydi .

- Yaxshi unda ....

Madina Farruhning " bu yerni boshatib qoy " degan gapini eshtishdan chochib kòzlarini yumib oldi ...

- Yaxshi undaaa organasan !

- A ?

- B . Qani otir , senga ozim dars otaman .

\*\*\*\*

Nargiza shifohona eshigidan kirishi bilan uni Laylo kutib oldi va Shoxrux yotkan palata eshigini korsatib Omad tiladida òzi shifokorni yoniga ketti ...

Nargiza palata eshigi yonida ancha turib qoldi .

Nima deyman ? Nima qilaman ? Yana yiglab yuborsamchi ? Yòq kirishim kerak !

Eshikni sekin ochib ichkariga qadam qoydi . Uni korgan Shoxruxni kòzlari porlab jilmaydi ...

- Assalomu aleykum... - eshik oldida turib qolgan Nargizani korgandan keyin Shoxrux ođzi ochilib qolgan Jasurga yuzlandi ...

- Jasur mayli endi boraver !

- Nima ? - xech narsaga tushunmagan Jasur Shoxruxga angrayib qarab qoldi .

- Ahir boyadan beri bu yerda nafasim siqilib ketti deytokandingku . Endi men yolđiz qolmayman borishing mumkun - deya dostiga qoli bilan " ket " ishorasini qildi .

- Menmiii ? - Jasur bir Shoxning ishorasiga , bir eshik yonida turgan Nargizaga va bir ođriqtan zirqarayotkan oyogiga tikildida choyshabni olib ornidan turdi . Oyogini yerga qoygan hamono ong oyogi zirqirab ketti . Ođriq zòridan baqirib yubormaslik uchun tishini tishiga bosdi va Shoxga boshini silkitib qoydi ...

Dostini ođriqtan qiynalganini korib Shoxning ichi achidi ammo Jasur irodali va kuchki yigit . Bu ođriq unga xech narsa emas deya vijdoniga lagmon osdi .

Jasur eshiktan chiqayotib Nargiz bilan sòrashib qoydi . Chiqib ketgach Shox Nargizaga yuzlandi ...

- Xush kelibsan !

- Ahvolingiz yaxshimi?

- Aytsam ishonmaysan , ammo endi batamom tuzaldim .

- Nahotki ... Bu qanday boldi ozi ?

- Bir qizni deb .

- Qiz - Nargiza shu onda bu yerga kelgani uchun endi ozini sokmoqchi bolib turgandi ...

- Xa qiz . Osha qiz xozir qarshimda turibti .

- M..meni debmi ? Qanday qilib ?

- Hayolimni ogirladingda . Yolni ham kormay qoldim ... Qora mushuksanda ....

- Ajab bopti . Kim sizga oylang dedi . Menga oxshab uyingizga borib maza qilib uxlamadingizmi ?

- Sen uxladingsmi ?

- Bolmasamchi ? Boshqa nimayam qilardim ?

- Nargiz ?

- Ha ?

- Uxladingmi ? - Shox bu safar jiddiy ohangda va huddi shu jiddiy qarashda soradi ... Nargiza ham uning tunde qora va ayni damda mahzun kòzlariga boqib beyihtiyor rost gapirib yubordi .

- Kòz ilmadim .

Shoxruxning kòzlaridagi mahzunlikni ayyorlik egalladi va qah qah otkancha kulib yubordi ... Nargiza esa ozi bilmagan holda noto'g'ri gapirib qoyganini sezib ham uyaldi ham jahli chiqdi .

- Bilgandim ... qongiro'g'imni kuttingmi ? - Shox qoshini qoqib sòradi .

- Har baloni bilasiz . Balki kutgandirman balki yòq .

- Demak shuning uchun kòzlaring qizarib ketibtida ... Kechir .

- Siz aybdor emassiz . Hudoni ozi asrabdi . Unchalik ham jiddiy jarohat olmabsiz . Laylo 1-2 kunda javob berishadi dedi .

- Osha zahotiyòq aybimni yuvaman !

- Nima ?

- Seni uchrashuvga taklif qilaman . Xosh rozimisan ...

- Ushrashuv ? Men ...

### 37 qism

- Uchrashuv ? Men ....

- Etirozga orin yòq .

- Ammo meni ishim bor ! - Nargiz aybdorona bosh egdi va bugun Matluba opaga ruhsat sorashi ohirgisi bolishi haqida vada bergandi . Va dam olish kunlarisiz ishlardi .

- Buyog'ini o'zim hal qilaman ! - Shox kòzini Nargizga siqib qoydi va qizning pomidorday qizarib ketkan yuziga qarab jilmaydi .

\* \* \* \*

- Toza havomush , shunaqa og'riq paytida nafas olish ham og'riqli - yolak boylab Jasur o'ziga o'zi gapirib og'riqtan choloqlanib ketardi . Yolidan chiqqan chiroyli hamshira qiz uni korib oldiga keldi ....

- Ahvolingiz yaxshimi ? Palatangizdan nega chiqdingiz ?

- Chiqmadim , quvishdi ! Menga boshqa palata beringlar . Ha aytgancha Salom , ismingiz nima ?

Hamshira qiz ham bu xushbichim va shifohona kiyimida ham kelishgan korinyotkan yigitga jilmayib qoydi

- Umida ...

- Umidaa siz ... - deya endi gapirmoqchi bolgan payt kòzi ularga qarab turgan Layloga tushdi . Va nafasi ichiga ketti ! - Siz nima qilyabsiz o'zi ?

- A ? Nima tushunmadim ?

- Bemorlarga qarash orniga menga girdu kapalak bolganingiz nimasi ? Qani boring ishingizga ... Tez !!!

- Siz !

- Bilaman palataga qaytishim kerak va qaytaman ham . Yolimni tosmaganizda allaqachon qaytardim .

Jasur palataga qarab oqsoqlanib yura boshladi . Umida xamshira biroz angrayib qoldida , jahldan qizarib qarshi tarafga yurib ketti ...



- O'griyabtimi ? - Jasur bilan teng qadam tashlab u qatori kelyotkan Layloning mayin ovozini eshtgach o'griq biroz bosilgandek boldi .

- Yòòq qanaqa o'griq . Tuzaldi menimcha .

- Oqsoqlanyabsiz !

- Xa bumi , mana bemalol yura olaman !

- Jasur aka bas qiling !

Jasur tohtab unga qaradi va chuqur nafas oldida

- Voy voyy oyog'im , Laylo hozir bu o'griqtan o'lib qolaman nimadir qil !

- Siz ...

- Laylo qarab turma nimadir qil ...

Laylo Jasurni qoltiqlab palataga olib kirdi . Uni ahvolini korgan Nargiza bilan Shoxrux qòrqib ketishdi

- Nima boldi ? - Shoxruxning vahimasi va qòrquvi ovozidan malum edi ....

- Hozir doktorni chaqiraman ! - deya Laylo endi ketmoqchi bolgan payt Jasur qolidan ushlab qoldi . O'ziga qaratilgan hayrat tola nigohlarga sehrli tabassum qildi

- Qòrqib ketting a ?

- Bu ... bu xazilmidi ?

- Birozgina ... Ahir men jiddiy bolsam òlib qolaman !

- Birozgina - Jasurga taqlid qilgan boldi Laylo - Xozir men sizga birozginani kòrsatib qoyaman - deya qoliga yotoqdagi yostiqli olib Jasurni ura ketti . Bor kuchi bilan yostiqli unga urar Jasur esa qoli bilan boshini tosiib turardi .

Shox buni korib oġzi ochilib qoldi va sekin Nargizga kòz qirini tashladi . U pinagini ham buzmay dugonasining ishidan mamnun turardi . Shox ichida

" Yuvoshginasi shu bolsa ... Ohhoo " deya oylab yutinib qoydi .

- Uh , xosh birozgina qalay ekan ?

- Tovba qildim . Boshqa qilmayman . - deya boshini silab qoydi Jasur

- Aniqmi ?

- Yòòq .

Honada kulgu yangradi ..

\* \* \* \*

- Shu xolos . - deya Farruh Madinaga oylik hisobot tayorlashni orgatti . Va deyarli shu bilan kunni kech qilishdi .

- Oson ekan kuuu

- Buni ham eplaganga chiqargan .

" Olifta quyon " - Madina tabassum qilib qoydi .

- Demak qolganini ertaga bitirib menga yetkaz .

- Xop boladi Farruh Nizamov . Keyin ...

Madinani gapi ohirlamasdan Farruhning qol telefoni jiringladi

- Alo

-....

- Xa Zarnigor nima boldi ?

- ...

- Yaxshi xozir òzim boraman oldinga , havotir olma . Qòrqma !

- ...

- Boldi , hammasi joyida . Yaxshi boldi ochiryabman .

Madina bu suhbatni eshtib òzini yomon his qildi . Juda yomon his qildi . Tezroq bu yerdan ketishni istadi . Va Farruh bn xayrlashmay honadan otilib chiqti . Tashqarida yomgìr tomchilayabti . Aprel havosi ...

Hozir tomchilayotkan yomgìr yo tohtaydi yo bolmasa chelaklab quyiladi .

Madinaning esa usti yupun . Klassik uslubdagi toq kòk kostyum shimda edi . Baland poshna va yoyilgan sochlar . Hardoyimgidek qirmizi lablar .

Labini tishlab , burnini tortib qoydi va kòzidan oqyotkan yoshni jahl bilan artti

" Uff Madii boldi qil . Nega yigìlayabsan ozi ? Ahmoqsan ! Ahmoq ! Nimani kutganding ? Bu shunchaki yordam edi . Odamgarchilik yuzasidan . Sendek ahmoq qizga yordam ... Yordam ! "

Madina òziga dakki bera turib beihtiyor kechagi Jasurning Layloga qilgan dil isxorini esladi ...

Har qanday qiz buni orzu qiladi . Madina ham shu qizlar sirasidan . Ammo unga bunday dil isxorlari kop bolgan . Lekin xech biriga qayrilib ham qaramagan , eshtib ham otirmagan edi ... " Muhimi mening konglim " derdi doyim .

Endichi . Endi osha konglida Ishq guncha ochmoqda , ammo ....

Odatta gulni bulbuli boladi deyishadi . Ammo Farruh bulbul emas . Bamisoli Asal eri edi . U guldan bu gulga , bu guldan u gulga qonib asal yigadigan . Madinaning aynan shundan jahli chiqardi . Ammo tan olgisi kelmasdi .

Va nihoyat tomchilayotkan yomg'ir qaror qabul qildi . Shu qiz ham kòz yoshini ayamay tokar ekan nega men chekinishim kerak degandek chelaklab quydi ...

- Haliyam ketmadingmi ?

- Nima ? - Madina ortiga burilib qollarini chontagiga solganicha oziga qarab turgan Farruhni kordi . Shu on ichki ovozi " yaxshilab tarsaki tushir " deyotkan paytta ozini qolga olib javob berdi.

- Yòq . Yòmgir yog'otkan ekan !

- Endi u ertalab tinsa ertalab ketasanmi ?

- Sizga nima ?

- Xechnima . Xayrli kech .

Farruh ong tomonga burilib ketti . U kompaniya yerostiga tushib mashinasini oladi va issiq mashinada yomg'ir ostida maza qilib ketadi ...

Madina qollarini qovushtirganicha yolga otlandi . Va yomg'ir ostida kolmak bolishga ulgurgan joydan poshnasini taqillatib yurardi . Birdan oldida tohtagan mashinadan chochib ketti ...

Oyna ochilib unda Farruhning chiroyli yuzi korindi ...

- Otir .

- Yòq . Ovora bolmang . Ahir sizni kutishyabti .

Madinaning ichida urush ketardi .

Ongi " Tilingni tiy " desa

Yurgi " Xechamda " deb qoymasdi

- Qaysarlikni vaqti emas . Shamollab qolasan !

- Sizga nima ?

Farruh uni gapidan yuzini burib chuqur-chuqur nafas oldi da mashinadan tushdi . Yomg'ir ostida Madinani yoniga kelib endi qolidan tutgan ham ediki

- Qoyib yuboring nima qilyabsiz ?

- Xoziroq mashina old orindig'iga otirasan yoki bagajga ortaman !

Farruhning kòzlaridagi vajohatini korib dami ichiga tushdi va borib mashina eshigini ochdida otirdi . Farruh ham aylanib rolga otirdi . Bir necha daqiqada yomg'ir sochini hol qilibdi . Sochidan tomyotkan tomchilar yanada kork berardi .

Madina hayollarini yig'ishtirib oyna tarafga qaradi va bir xozirgi holatidan xursand bolsa hademay mashinadan uni tushirib oyimchasini yoniga ketishidan xafa bolardi ...

Ammo nima ham qila olardi ...?

Madina manzilni korsatib yana oynaga qarab oldi .

- Nima boldi ?

- Sizga ...

- Nimaaa ? Bu qoshiqni eshtib boldim , balki endi odamga oxshab gaplasharsan !

- Men kimga oxshab gapiryabman ?

- Totiqushga ! Tinmay bir sòzni takrorlayabsan !

- Yaxshi . Unda gapirmang !

- Mashinani eshigidan uloqtirib yuborardimu . Qiz bolasanda .

- Shu gapingiz uchun yaxshilab taziringizni berardimku . Boshligimsizda .

- Tiling zahar !

- Siznikinidan ja asal tomyabtimi ?

- Qiz bola degan biroz shirin sòz boladi .

- Odamiga qarab .

- Axboroting uchun qizlar meni korsa òzini tomdan tashlaydi .

- Sizdan shu yòl bilan qutulsa kerakda .

- Yigiting bormi ?

- Nima ? - Madina unga qaradi . Yoldan kòzini uzmay ob-havo yoki soatni sòragandek gapirishinichi , nima deyishini bilmay qoldi . Niyati nima ? Nega buni sòrayabti ? Ey hudoyim . Yuragim nega bezovta . Boldi . Hayollaringni yigishtir .

- Alooovv

- Xa ? Sizga nima ?

- Yana jinnilikni yoqib oldingmi ? Mayli aytmasang aytma . Yòqligini òzim ham bilaman .

- Qayerdan bilasiz? Balki bordir ?

- Xa-xa-xa . Yòq .

- Buncha ishonch bilan gapirmasangiz ?

- Agar bolganida xozir men bilan gap talashmay , U bilan bir soyabon ostida ketarding !

" Men hali ham U bilan ketyabman , faqat U buni sezmayabti "

- Ohho , naqadar dono fikr . Enshteynni avlodimisiz deyman .

- Yòòq . Shunchaki sendan farqli olaroq oylayman . Bu juda oson urunib kòr .

- Balki buni ham orgatarsiz ?

- Mayli derdimkuya , senga orgataman deb òzimda qolmaydida .

- Juda kulguli ...

Yoldan kòzini uzib Madinaga qarab kulib qoydi . Homrayib tođriga qarab olgan qizni nam sochlari , uzun kipriklari , va bir tarafdin yurak shaklini keltirib turgan labi .... Farruh bir zum unga qaradi va yana yolga qaradi . Gazni bosib Madinani uyi joylashgan kochaga keldi va mashinani tohtatti . . .

- Xayrli kech .

- Sizlarga haaam - deya Madina sòzlarga urđu berib qoydi mashinadan tushib eshikni " qars " etib yobti .

Farruh rolni ushlab silab qoydi

" Sen hafa bolma . Buni esi joyida emas ekan . " deya mashinasiga gapirib haydab ketti ...

### 38 Qism

Madina uyga bir ahvolda kirib keldi . TVni ovozi baland , qizlar esa deyarli uni ichida edi ...

- Ihm , ihm ... - tomoq qordi Madina .

- Voy Madii keldingmi ? Soat nechi boldi ? Shu paytgacha pishirib qoyganmidi kochada ? Qancha havotir oldik ahir !!! Odam degan xech bolmasa tel qilib qoyadiku ... - Nargiza ornidan turib Madinani qarshisiga keldi...

- Xaa korinib turibti , havotir olganlaring - deya TVga qarab homrayib oldida yotoqhonaga qarab keta boshladi ...

- Iyy tohta !!! Madinaa ? - bu safar Layloning qarashlaridan yana ortga burilib " nima Madina ? " degandek dugonalariga oqrayib qoydi . - Òzingmisan ? Nima boldi ?



- Xechnima ! Charchadim . Dam olmoqchiman .

- Kechki ovqatchi - ovqattan boshqa hamma narsa tayorlab qoyilgan dasturhonga ishora qildi Nargiza .

- Toydim ..! - Yotoqhona eshigini zarb bilan yopti .

Qizlar bir-birlariga qarab bu sòzning manosini qay darajada ekanini tushunmay qolishdi ... Ular ham deyarli ovqatlanishmadi . Dasturhonni yigishtirib , idishlarni yuvishtida yotoqhonaga otishdi .

Uy unchalik ham katta emas edi . Ammo 3 kishi bermalol yashashardi . Kirishda ayvon , toğrida oshxona , ong tarafda mehmonxona , chap tarafda yotoqhona va chapdan ikkinchi eshik yuvinish honasi edi . . .

Madina boshini yostiğ tagiga tiğib yotardi . Òzini chulğab olgan hislardan halos bolish yolini izlab bir necha soat ichida ado bolayozdi . . .

Birdan tortib olingan yostiğtan sergak tortib ornidan turib otirdi ... Dugonalarining bejo qarashlaridan nima kutishyotkanini angladi va burnini tortib qoyib hammasini gapirib berdi !

- Men ... Menimcha ... Menimcha men ... Sevib qoldim . Yòq jim ! Gapimni bolmanglar . Yòqsa keyin tilimnm tanglayimga yopishib qoladi . . .

U men ishlaydigan kompaniyada ishlaydi . Juda aqlli , sovuqqon ammo xazil ham qila oladi , etiborli va etiborsz . Shunaqa ... Juda kelishgan , jahl qilganda ham , kulganda ham . Hatto ğazabi qaynaganda ham juda yoqimtoy . Menga ... menga boshqa insonlar singari muomila qiladi , ammo ... ammo shuning òzi ham men uchun kaattaa yutuq va zavq ! ... U xozir ... boshqasi bn . Kim bilsin balki unga turmushga chiqishni taklif qilyotkandir , yoki sevgi isxor qilyotkandi yo bolmasa ...

- Yo bolmasa uylari portlab òlib qolgandir . - Madinaning qòrqinchli hayollar girdobidan qutqarish uchun daxshatlar ichiga tashlay qoldi Nargiza

- Nafasing buncha sovuq Nargiz !!!

- Ha nima òzing aytingku kim bilsin ...

- Yetar sizlarga dardimni tókkan men ahmoq ! Uxlanglar - deya Madina choyshabni yopib yostiқ orniga qolini qoydi .

- Voy bu qizni . Osha bizdan ortiq boldimi ? Qani tur ... tur dedim . Laylo yordam bersangchi ...

\*\*\*\*

Farruh mashinada Zarnigorni uyiga qarab ketardi . Boya negadir sezmagandi , ammo xozir juda qattiq havotir egalladi ... Ahir Zarnigor uni singlisi edi ...

" Farruh bolaligida doyim Ota onasining etiborida bolgan . To osha kungacha ...

Maktabdan qaytgan 11 yoshli Farruh uyda xechkim yòqligini korgach muzlatkichdan saryoғni olib nonga surkab yemoqchi boldi . Birdan ochilib yopilgan eshiktan onasi hongragancha kirib honasiga yugurdi ...

Farruh avval xech onasini bunaqa ahvolda kormagandi . Tomoғiga yutkan luqmasi tiqilib onasini ortidan honaga kirdi .

Gilamda otirib oksib oksib yiglayotkan Nigora barmoғidagi nigoh uzugini yechib otti va oғliga qarab

- Endi yòq ... Endi sening otang yòq !!!

deya dona dona qilib shivirladi .

Boshida bu sòzlardan qòrqib toғri mánoda tushungan Farruhni vujudini qòrquv va qayғu egalladi , kòzlar jiqqa yoshga toldi . Yosh aqli bn

" Shoxruxni onasi òlganida yonida bolmaganim uchun meni ham Otam ... "

Ammo eshik ochilib kirib kelgan Otasi va uning ortidagi 5-6 yashar qizaloq Farruhga qarab turishardi ...

Otasi kelib Farruhni yelkasidan tutti va U qatori òtirib unga mehr bn qaradida

- O'glim , men oying bn gaplashib olishim kerak ! Sen ungacha ... singling bn oynab tur . Xopmi ?

" Singling " bir necha daqiqa ichida hayoti ostun ustun bolgandi . Buni eshik ortidan eshtilyotkan baqiriqlar , yigi va singan idishlar ham tasdiqlab turardi ... Farruh ilk bor hayotida shunaqa qòrquvni tuyushi edi ...

Butun vujudi qaltirab , kòzlari yoshga toldi ... Qollari musht bolib tuguldi va hali ham eshik yonida eshtilyotkan ovozlardan qòrqqanidan titrab qoyiyotkan mitti qizaloqqa qaradi .

Negadir barchasiga uni aybdor deb sanadi va shaxd bn u tomonga yura boshladi . Bir qadam qolganda esa tohtadi ... Uning yoshga tolga qahvarang qòzlari Farruhga tikilgach unda òz aksini korib tohtadi . Va tomo'giga tiqilib qolgan luqmasini yutib yubordi ...

Qizaloqning kòzlaridan oqyotkan yoshni beyihtiyor qollari bn arta turib tushundiki uning qòrquvi qizchanikini oldida orinsiz va keraksiz edi ...

Ahir U yol'giz va qòrqiyahti . Shu onda Farruh uni himoya qilgisi keldi va doyim yonida bolishni istadi .

- Isming nima - deya qoldan kelganicha jilmaydi Farruh .

- Z..Zar..ni..gor

- Z..Zar..ni..gor - unga oxshab tutilib gapirganidan qizchani yuziga tabassum yugurdi , yuzida kulguchi bor ekan . Quncha labi va uzun sochini aytmaganda quyib qoygandek Farruhni òzi edi ...

- Qòrning ochmi ?

Qiz indamay boshini egib yer chizdi .

Farruh uni mitti qolchasidan tutib oshxonaga yetakladi va òzi saryo'g surtib yeyotkan nonni unga berdi .

Yotoqhona eshigi ochilib avval kòzlari yigidan qizargan Nigora va uni ortidan Farruhni Otasi chiqib keldi

- YUQOTASIZZ , BIZNI DESANGIZ OSHA YETT...- gapi ohiriga yetmay kòzi oshxonada oturgan Farruh va mitti Zarnigorga tushdi . Tilini tishladi , o'glining iltijoli qarashi va turmush ortogining kechirimlaridan song Zarnigorni bu uyga qabul qilishga rozi boldi . Ammo ...

Ammo erining vafotidan song ogay qizi bn umuman chiqishmadi . Hatto Farruh ham bu janjallardan bezib uyga kelmasdi . Oshanda Zarnigor 16 yoshda edi ... Va balogatga yetishi bn Otasining oziga qoldirgan mol mulkini olib boshqa uyga chiqib ketti .

Nigora Nizamova esa tishini tishiga qoyib mol mulkining yarmini Zarnigorga qosh qollab berib yubordi ( Boshqa iloji ham yòq edi . Ham qonun ham vasiyat )

Kop qavatli uylar yonida tohtagach Farruh zudlik bn mashinadan tushdi , lift tugmasini bosib 8 qavatgacha kotarildi va lifttan tushib uyga otilib kirdi .

- Zarii , Zarnigor qayerdasan ? Za..

Honasida yerda xushsz yotkan Zarnigorni korib otakasi yorildi , uni yuziga urib kordi ammo befoyda xushiga kelmadi suv ham septi ... Shundagina kòzi divan ostiga dumalab ketkan dori idishiga tushdi . Qoliga olib qaradi tinchlantiruvchi ekan ...

Boshini changallab oldi va tinmay ozini aybladi ... Ammo xozir vijdon bn suhbatlashib kuyadigan vaqt emas. Zarnigorni kòtarib togrì Onasining klinikasiga yòl oldi , ulgurishi kerak . Bunchalik dozadan keyin katta ehtimol bn yuragi tohtab qolishi mumkun edi ...

Farruh esa qollari qaltirab kalitni ham kerakli joyga tiqilmoy tushirib yubordi

- JIN URSIN !!! MING LANAT !!! MING LANAT - jahldan rolni mushtlab ura boshladi va chuqur nafas olib kalitni oldida mashinani yuqori tezlikta haydab ketti ...

\*\*\*\*

- Malikam nega hali ham uxlamadi ? - Anvar Rashidov mehmonxonada Noutbook chuqilab otirgan Zinnurani boshiga kelib soroqqa tutti ...

- Chunki qirol ertak aytmadi - vaziyattan golibona chiqib ketmoqchi boldi Zinnura ...

Anvar Rashidov qizini bilagonligidan kulib yoniga otirdi .

- Nima qilyabsan ? Bu yana nima ?

- Xa bumi - noutbookni yopib Otasiga yuzlandi Zinnura - Bu sir . Vaqti kelsa bilasiizz ..

- O , qanaqa sir ekan ? Men qiziqishdan yorilib òlamanku qizim , aytsangchi

- Yòq dada , yòdòq . Meni avrab gap ololmaysiz . Aytmayman ! Sir dedimku . Aytsam qizigi qolmaydi .

- Demak qiziqarli ?

- Xa .- Mamnun bosh silkib qoydi Zinnura

- Hm yaxshi , demak men uchun syurpriz ?

- Albatta .

- Demak ish bn bogliq

- Xaa ... voy , Dadaaa siz meni aldab gap olyabsizkuu bu adolattan emas !!

Anvar Rashidov kulguncha qizini boshini silab qoydi .

- Mayli gulim mayli . Hafa bolma , hop kutaman . Ammo xozir yotib uxla

Vaqt ham alla mahal boldi . Qani borchi .

- Xop , xayrli tun dadajon - Zinnura narsalarini yigib honasiga chiqib ketti . Anvar Rashidov esa chuqur horsinib qoydi .

### 39- QISM

Farruh Zarnigorni kotarib Onasining shifohonasiga kirar ekan bog'zida tiqilib qolgan alam otilib chiqq boshladi va bor ovozida baqirib yubordi

- DOOOKKTORR !!!!!!!!!!!!!!!

Farruh yolakta boshini changallab olib tinmay o'zini ayblardi , ahir Zarnigor uni singlisi Otasi unga ishonib ketkan edi ... Ammo

Zarnigor o'zi alohida yashay boshlagach oqishini ham bir chetka surib qoydi , bankta yastanib yotkan millionlarni sovrish kerakku . Ammo bu pullarni Otasi qanday ter tokib topkanini oylamadi . Kuni dugonalari bn dukanma dukan , kechalari esa klubma klub ota boshladi . Farruh ham har zamonda bir yoqlab yoqsa shunchaki telefon qilib qoyardi , chunki osha damlar o'zini kompaniyada korsatish bn band edi . Nigora Nizamova esa Zarnigorni o'zi tugul ismini ham eshtishni hohlamasdi ! Shu shu Zarnigor o'zboshimcha va xudbin bolib qoldi . Oylasidan kormagan mehr etiborni tashqaridan izladi ... Kutubhona yoki oqishdan emas , klublardan . Osha klubta Rasul ismli bir yigit bn tanishib qoldi . Yoqimtoy va chiroyli yuzi , shirin so'zlari va Zarnigor istagan etiborni berib qizni yuragini zabt etti , lekin bu uzoqqa bormadi . Osha kunda ... aniqrog'l tunda Rasul Zarnigorni klubga taklif qilib o'zi bn olib keldi va yo'lg'izligidan nolib ko'z yosh tokyotkan qizga yettinchi osmonni vada qilib qoliga bir dona tabletka berdi . " Bu nima ? " deya so'ragan qizga " Tinchlantiruvchi asalim , qara seni korib men ham ezilib ketyabman Zarii ichaqol ancha o'zinga kelasan shirinim qani ol , mana suv " deya qizga dorini ichirdi . Bir necha daqiqadan keyin qayg'urib otirgan qiz klubda yangrayotkan musiqaga tebranganча raqs tusha boshladi . Belidan quchgan qollarga etibor bermay davom etti va hatto o'zini kim yetaklab ketyotkanini ham anglamadi !

Ertalab ko'zlarini ochkanda qandaydir begona honada ekanligini kordi , va faqat choyshabni quchganча ko'zi yoshga tola boshladi ....

- Hayrli tong shirinim ... - eshik ochilib kechagi kiyimda Rasul kirib keldi . - Yaxshi dam oldingmi ? ex nimalar deya bman o'zi bu aniq ku . Xosh kayfiyatlar qalay ... Hey qizaloq ? Nimaga yig'layabsan ? Nima boldi ? Hmm tushunarli ... ammo bu yig'lashga arzimaydi , ahir menga yoqasan derdingku ! Zarii

- Y...uqoll ablahh !!! - Rasul kulganча ornidan turdi va yerda yotkan kiyimlarni g'ijimlab oldida Zarnigorni yuziga qarab otib yubordi - Kiyinda daf bol qushча !

Eshik yopilib honada o'zi qolgach Zarnigorni qattiq titroq tutti , o'zini ahvolidan daxshatga tushib yig'lay boshladi , ammo endi bundan naf yo'q edi . Qaltiraganча tezda kiyindida honadan chiqib ketti . Bu yer klubning yertolasi ekan ... Zarnigor tezda u yerdan chiqib mashinasiga otirdi va tog'ri uyiga keldi , o'zini honasiga otib yana hongrab yubordi ... Uni hayolida " Nima uchun ??? " degan savol aylanardi . U doyim hayotida suyansa boladigan , ishonish mumkun bolgan va sevib seviladigan insonga muhtoj edi . Ahir Rasulni osha inson qiyofasida kormadimi ? Lekin bu niqob ekan !

Zarnigor anча vaqtgacha tashqariga chiqmadi , Farruh telefon qilsa yolg'ondan " Men yaxshiman , kelib ovora bolmang " deya qaytaraverardi . Ahir endi uni ko'zlariga qanday qaraydi ? Har kuni boynidagi ko'karish izlaridan tezroq halos bolish uchun malham surtardi , song yana osha kunni eslab yig'lardi . Garchi ko'z yosh bn xech narsani o'zgartirib bolmasada bu shor tomchilar bn biroz bolsada aybimizni yuvmoqchi bolamiz . Ikkinchi kuni Zarnigor o'zini yomon his qila boshladi , nafasi qaytib yuragi tez-tez urardi , o'zi nima hohlayotkanini bilmas va o'zi bilmagan holda qoliga tushgan narsani g'ijimlab tashlardi .

Birdan eshtilgan qong'iroq ovozi cholda suv topkan odamdek Zarnigorni quvontirdi va yugurib telefoniga javob berdi

- Hellooo shirinim ... - Rasulning ovozi va bemani kulgusi yangradi
- S...s.enn . O'l..ging kel..yabt....imi ?
- Shoshilma qizaloq ! Men o'lsam kim senga dori topib beradi ?
- N...ni...maa ? Ya...na ...q...aa..naqa dor..i
- Qaltirayabsan , demak vaqti bolibt ! Qanaqa bolardi bu dorini hayot deyishadi asalim . Uni ichkan zahoting yashash nimaligini bilasan , ahir sinab korgandingku !

Zarnigor osha tunda Rasulning unga bergan tabletkasini esladi va uni nimaligini endi angladi . Nahotki endi giyohvand bolib qolsa ? Yo'q ... bunga aslo yol qoymaydi ! Aslo !

- H..hech qanday dorrini keragi YO'Q !!!

Zarnigor telefonini ochirib otib yubordi . Bu bilan otib ketadi deb oyladi ... ammo ichini kemiryotkan narsani nimaligini bilmay uni dardida ado boldi . Ohir taqdirga tan berdi va ....

Kerakli pulni Rasulga berib dorini oldi ... Ertasiga esa eshigini Farruh qoqib turardi , uni tushlikka taklif qildi . Ajoyib tushlik va suhbattan song shuni angladiki u o'zi oylaganchalik yolg'iz emas ekan . Uni akasi bor ! va doyim uni yonida .

Bir necha kundan keyin bu yana takrorlandi , Zarnigor yana Rasulga qong'iroq qilishdan boshqa iloj yo'q deb oyladi , agar buni akamga aytsam mendan yuz ogiradi deya Rasulga xabar jonatti .

- Salom shirinim , o'zing yo'qlaganinga qaraganda Tovar yoqqan korinadi ?
- Maynavozchilikni bas qil ablah ! Menga dori kerak !
- Ohhoo ham yordam bersam ham Ablah bolsam . Bunaqasi ketmaydi qizaloq !
- Kerakli pulni olasan , ammo menga dori keraakk !
- Yo'q bu safar pulga ehtiyojim yo'q
- N..imaa ?
- Balki menga boshqa narsa taklif qilarsan , masalann
- Ablah ! Ming lanat senga , doring boshingda qolsin . Olloh jazoyingni bersin!!!!

Zarnigor telefonni ochirib yana otib yubordi , shu baloga oralashganidan beri bu nechinchi marta telefon sindirishi ekanini bilmay qoldi . Avvallari qol telefonini avaylab asrardi , hozir esa sal narsaga ham alamini undan oladi . Ahvoli yomonlasha boshladi ... Va Farruhga qong'iroq qilishga qaror qildi . Sumkasini ahtarib ikkinchi telefonini oldi va uni raqamini terdi ...

- Xa Zarnigor nima boldi ?
- Aka qayerdasiz , kela olasizmi ? Qo'rqiabman !

- Yaxshi xozir òzim boraman oldinga , havotir olma . Qòrqma !

- Kutaman , tezroq keeling !

- Boldi , hammasi joyida . Yaxshi boldi ochiryabman .

Zarnigor qancha harakat qilmasin o'zidagi titroq va og'riqni bosolmadi va tinchlantiruvchi dorini olib borini ichib qoydi ... Keyin esa ...

-----

Farruh hali hamon yolakta doktorni kutib otirardi , chiqib " hammasi joyiga tushdi " deb aytishini kutardi . Shu orada yelkasiga qoyilgan qolni sezib boshini kotarib Onasiga qaradi . Nigora Nizamova oglining ko'zlaridagi qayg'u va og'riqni korib uni yoniga otirdi va bag'riga bosdi . Farruh boshini onasining yelkasiga qoyar ekan hali hamon o'zini bosishga , tinchlanishga yosh bolaga oxshab hongrab yubormaslikka harakat qilardi !

Va nihoyat doctor chiqib keldi va tomog'ini qirib qoyib gap boshladi .

- Farruh og'lim , qizni tekshirdik , oshqozonini yuvib dori zahridan tozaladik va ... afsuski – doctor jimib Nigora Nizamovaga qarab qoldi . Huddi hozir gapirsa uni qahridan omon qolmaydigandek , ammo uning bosh silkishidan song gapida davom etti – Afsuski homilani saqlab qololmadik .

- Nima??? - bu xabar Farruh va Nigora Nizamovani ham birdek SHOK holatiga tushirdi .

#### 40 - Qism

Zarnigor uyg'ongach Farruh honaga kirdi . Akasini korgach Zarnigor yig'lab yubordi va kòzini choyshabdan uzmay Farruhning kòzlariga qaray olmay otirardi ...

- Kechiriiing ....

- U kim ? - Zarnigor akasining bergan savolidan dovdirab , nima deb javob berishni bilmay qoldi . Ahir Farruh buni qayerdan bilganini anglamay , indamay turaverdi .

- Zarnigorr U kim ? KIM DEDIM ? - Farruhning baqirigidan song honaga Nigora Nizamova ham yugurib kirdi va eshik yonida turib qoldi ... Uning kòzlarida zarracha achinish yoki afsus yòq edi . Aksincha bu nigohlar

" Onang kim edi-yu sen kim bolarding ?! " degan ma'no aks etardi .



Farruh iloji boricha singlisini ko'zlariga qaramaslikka urinardi . Bu honada xech tab tortmay tikilgan nigohlar faqat Nigora Nizamovaniki edi . U honadan chiqmay Zarnigorni ertagini tinglash uchun qollarini qovushtirib turib oldi , garchi uning niyatini anglab turgan bolsada Zarnigor xechnima demay tilini tishlab otirdi . Ayni damda akasiga nima deydi ? Shuni oylashi kerak ! Ammo akasi buni qayerdan bildi ekan ?

- Men javob kutaybman ! – iloji boricha sokinlik bn so'radi Farruh ammo ovozdagi keskinlikdan qanchalik asabiy ekani bilinib turardi .

- M..Men , a..ka me..n bil..magand..im . Men ichkan dori giyohvand modda ekani bilmagandim , uni menga ...- Zarnigor shu joyida tohtab qoldi . Agar xozir Rasulni nomini aytsa nima boladi ? Akasi uni nima qilishini Hudoni o'zi biladi ...

- Davom et ! Uni senga ...

- Qoyil . Seni hotirang doyim shunaqa narsalarni eslaydiya . Ishga aloqadir bolsa " hotiram past deysan " . Agar pasti shu bolsa ... Ohho
- Mazah qilishni bas qiling ! Nima qilmoqchi edingiz ?
- Madina ... agar vaqtingiz bolsa ...
- Vaqtim yòq ketishim kerak !
- Avval gapimni esht .
- Ammo
- Bas . Yana bir òg'iz gapirsang ozim se'ni bagajga ortaman ! Ana shunday jim. Endi esa eshit . Agar vaqting bolsa , bolmasa ham men bilan kechki ovqatga bo-ra-san !!!

- Roziman .
- Ana tez organyabsan. Aqlli qiz . Qani kettik . Oldimga tush !

Kompaniya eshigidan avval Madina song Farruh chiqib mashinaga minishdi . Va Farruh mashinani Shaxarning oldi restoranlaridan birida tohtatti ...

#### 45 Qism

Buyurtmalar kelgan song Madina ishtaha bilan ovqatlanishga kirishdi . Har zamonda Farruhga qarab " olib otiring , yoqimli ishtaha " deb jilmayib qoyardi ... Farruh Madinaning ishtahasini korib biroz hayron qoldi .

Disert mahali kelganda Madina 3 hil shirinlik buyurtirdi .

- Ahvoling yaxshimi ?
- Albatta . Hattoki juda yaxshi . Nimaga sòradingiz ?
- Hamma narsani aralashtirib yeding . Shunga
- Nahotki ? Bu yomonmi ?
- Toğri va soğlom ovqatlanish soğlom hayot garovi .
- Shuning uchun boyadan beri sabzavot va kòkat yeyotkan ekansizdaaaa
- Bu kechki ovqat rasiyonim Madina .
- Ajoyib . Unda tushlikka nima ?
- Suyuq taomlar .
- Nonushtagachi ?
- Odattagidek tuhum .
- Har kuni yaa ?
- Ha .

« Daxshat . Buncha òzini qiynamasa . Qarshingda shunaqa shirinlik tursayu yeya olmasang . Yòq . Men bunday qilolmayman . Naqadar ikki hil dunyo qarashli insonlarmiz aa . Men tanlagan narsaning teskarisini u tanlaydi . Biz bir tangananing ikki qarama qarshi tomonimiz ....»

- Maaadinaa

- A ? Ha eshtaman

- Buncha hayolga berilmasang . Nima haqida oylayabsan ?

- Bolmağur narsalar haqida . Muhum emas ...

- Marhamat buyurtmalaringiz . Yoqimli ishtaha... - ofitsiyant qiz ketgach Madina Farruhning nigohi hali ham osha tomonda ekanini kòrdi ...

- Orqasidan borishni oylayabszmi ? - qanchalar zavq va ishtaha bn kutgan shirinligini tatib ham kòrmay chetga surdi va borgan sari buzilib boryotkan asablarini jilovlashga urindi .

- Ýòq . Òzi keladi .

- Òzingizga buncha ishonmasangiz ?

- Demak bunga asosim bor .

- Ota ketkan kalandimoğsiz Farruh Nizamov.

- Maqtov uchun rahmat Madina Davletova . Endi esa hujumga . Shirinlikni qoldirmang !

- Siz ... - Madinani gapi chala qoldi . Uning nigohi beihtiyor Restoran oynalaridan tashqariga tushib qotib qoldi . Butun vijudi titrab kòzlari yoshga toldi ...

Nahotki ... Nahotki U ...

\*\* Bir necha yillar oldin ...

Darvoza eshigi ochilganini eshtgan Madina yugurib honadan chiqti . Oyisiga svetchi amaki ularni uyidan chiroqni uzib qoyganini Òzi qoronguda qolib qòrqqanini aytmoqchi boldi , ammo oyisining qandaydir mast erkak bn qoltiqlashib kirganini kòrgach ortga tisarilib qoldi .

- O...y.ii

- Sen hali ham uhlamadingmiii - oshqirdi shirakayf Nodira qiziga

- Bu amaki kim ?

- Seni ishing bolmasin . Qani tez honanga bor ! Yotib uxla . Bol !!

- Yòq . Avval ayting kim bu amaki ? - devorga zòrga suyanib turgan erkakka qaragancha baqirdi Madina .

- Senga ovozingni ochir dedim - yuziga tushgan tarsakidan yerga yiqilgan Madinani yuzlarini kòz yoshlari yuva boshladi . Shu onda oyisini yomon kòrib ketti . Qoshni hotinning gaplari quloqlari ostida sado berardi

" Seni oying buzùq hotin . Har tunda uyalringa har hil amakilar keladi . Sen bilmaysan ! Ular erta sahardan chiqib ketishadi . Oying shu yol bilan pul topadi . Seni ham shu yòl bn topkan ! Sen ham kun kelib shu yoldan ketasan ! Qush uyasida kòrganini qiladi . Boshqa uyimda oralashganingni qizim bn gaplashganingni kòrmay . Haromi ! "

" U rost gapirgan . Onam har kuni amakilar bn kelgan . Men esa buni bilmay uxlayverganman ! Siz yomon onasiz . Siz yomon ayolsiz . Siz yomonsiz !!! "

Madina ornidan turib uydan chiqib ketmoqchi boldi . Ammo yuziga yana bir tarsaki tushdi . Honasiga qamab qoyishdi va ustidan qulflashdi . Osha tunda bemani ovozlardan quloğini berkitib yiglab chiqqan Madinani hozir ham otmish òz tarsakisi bn siylagandi .

U oynadan termulganacha yol chetida joylashgan ahlatlarni tityotkan ayolni kòrib kòzlari yoshlandi . Ahir bu osha bir vaqtlar buziqlik qilib pul topkan va hatto òz qizini ham savdoga qoygan Onasi edi ...

- Madina ? - Farruhning navbattagi chaqiruvidan song Madina qarshisdagi qahvarang nigohlarga yuzlandi .

- Nima boldi ? - havotirli sòradi Farruh

Nima deyishini bilmay qoldi . Bir zum kòzlaridagi yosh sotib qoymasligi uchun Labini tishlab turdida song bazor

- Ketishim ker..ak - deya sòz qotti .

- Yaxshi . Mayli . Hozir .

Farruh tolov qilgach ular Restorandan chiqib ketishdi . Madina mashinaga otirishdan oldin yana osha tarafga qaradi . Onasi hali hamon chiqindi tityotkan bolsa uni kòrmoqchi boldi . Ammo yòq ... U allaqachon ketkandi . Madina mashinaga otirdi va mashina joyidan qozgaldi ...

\*\*\*\*

Erta tongdan Shoxrux kompaniyaga kelib ishga shong'idi . Anchadan beri kompaniyaning foyizlar bn olingan kreditlari bn shug'illanyotkan edi . Uni oylantirgan narsa shuncha pullar nimaga sarf qilingan . Nega ular haqida hisobot yòq

- Kamila tez honamga !

Eshik ochilib Kamila poshnasini taqillatgancha kirib keldi .

- Soleykum . Eshtaman Shaxrux Nizamov .

- Menga hoziroq banklar boyincha tuzilgan shartnomalarni olib kel . Va kreditga olingan sarmoya qayga uchirilgani haqidagi hisobot ham bolsin !

- Hop boladi . Haligi sizni kutishvotti

- Kim ?

- Nima devdi ? Ha Chittak deb tanishtirdi

- A ? ... kirgiz .

- Hop . Ruhsatingiz bilan .

Kamila chiqib ketgach eshik taqilladi . Shox kursiga yaxshilab joylashi oldida jiddiy qiyofada sòz qotti

- Kiring !

Eshiktan kirgan Guljahonni kòrgach hayratlandi , ammo yashirishga urinib òzini beparvodek tutti ..

- Ha senmiding kel !

- Ha men edim . Sen kimni kutgandin . Shunaqa modelbasharalarnimi ?

- Kim modelbashara ?

- Kotibangda . Nima balo tilini eshik qisib qolganmi ?

- Bu kulguli emas Chittak .



- Unda nega bunaqa gapiradi . Bu bn qanday ishlab yuribsan ? Qanday gapirsa shunday yòzadimi . Hisobotlaring ham juda kulguli chiqsa kerak aa - deya Chittak kulib yubordi .
- Bu kulguli emas !
- Hop . Jimman . Sen gapir unda . Menga qanaqa syurpriz tayyorlading ?
- Syurpriz ? Bu gapni qayerdan olding ?
- Qoysangchi Shox . Seni bilmasam ekan . Aytaqol hechkinga aytmayman
- Jasur seni anchayin òzgargan degandi . Ammo men buni sezmayabman . Hali ham yosh bolasan !
- Bilgandim . Mendan oldin shamolim kelibtida . Men ham senga syurpriz qilib kelmoqchi edim . Ammo har doyimgidek Jek beliga tebti . Demak baribir aytmayman . Mayli kutaman !
- Bilganingni qil . - Shoxrux Chittakka yana bir rov nazar tashlab nigohini kompyuterga qadadi .
- Shox . Farruh qalay ?
- Farruhmi ? Yaxshi . Yuribti . Shu kompaniyada . Keyingi qavatta . Agar hohlasang ...
- Avvalgidekmi ?
- Nimani nazarda tutyabsan ? - Shox tushunqiramay Guljahonga qaradi.
- Beparvo va sovuq...
- U doyim shunday bolgan ... Harholda menga nisbattan !

-----

Nargiza qahvahonada ishlar bn band bolib telefoniga qarashni ham unutgandi . Tushlik vaqtidagina sumkasida qoldirib ketilgan telefonini olib yòqdi . Hamdan akadan xabar kelibdi . Bugun kechki 18 . 00 da toy bor emush ! Nargiz tezda qizlarga xabar berdi ...

Madina bugun ishga bormadi . Sinov muddati tugashiga 2 kun qolganini bilsa ham bugun ish qoldirdi . Qani edi hozir bu uni tashvishlantirsa ! Uning fikru hayoli osha ahlal qutisini tityotkan ayolda edi ... Balki kòziga kòringandir ? Balki oxshatgandir ? Yòq ... Madina bu qiyofani hech qachon unutmaydi ... Hech qachon !

Ertalab qizlarga ham bu haqida aytmadi . Negadir ularni ham dardiga sherik qilgisi kelmadi . Uzoq oylagach yana osha tarafga borishga osha ayolni izlashga qaror qildi . Bordiyu uni topsa nima deydi ? Nima qiladi ? Bilmaydi . Ammo hech bolmaganda u bn suhbat qurishi kerak ! Savollariga javob olishi kerak . Madinani kimsasizlikka otib , buziqlikka berilgan ayolni kòzlariga boqishi kerak ! Hali ham osha ishonchli , kalandimoğ va ayyor kòzlar bormikin ? Yoki Hayot òz shamoli bn u nigohlardagi otni sondirdimikin ? Madina buni kòrishi kerak ! Bilishi kerak !

-----

Farruh erta tongdan negadir kayfiyatsiz uygondi . Huddi nimasidir yòqolgan odamdek . Yuvinib , kiyindi va pastga tushdi . Nigora Nizamova xizmatchi ayol tayorlagan nonushtadan Zarnigordan ololmayotkan alamini olib zahrini sochyotkan edi ...

- Hayrli tong Qirolicham - deya Farruh onasining peshonasidan opib qoydi . Shundagina Nigora Nizamovaning chakagi yopildi . - Hayrli tong Zari

- Sizga ham hayrli tong akajon . Men nonushta qilib boldim . Endi ketaman . Hayr .

- Yaxshi bor . Hosh oyi ikkimiz nonushta qilar ekanmizda .

Nigora Nizamov o'g'liga jilmayib ornidan turdi va oldindan tayorlab qoygan hujjatlarni olib kelib Farruhga tutqazdi .

- Bu ...

- Shartnoma . Yagona imzo kerak holos . U ham bolsa Shoxrux Nizamovniki...

#### 46 Qism

Madina kechagi joyga keldi . Va kecha Onasi titkilagan ahlat qutisini oldida tohtab qoldi . Yon atrofga nazar tashladi . Negadir o'ziga tanish chehra kòrinmayabti . U piyodalar yolagi boylab yurib yana biroz joyni kòzdan kechirdi . Ammo yòq ! Ohiri hafsalasi pir bolib yol chetida joylashgan orindiqlardan biriga chòkti . Hayoliga yana kechagi tun keldi .

" Men kòrdim . Adashgan bolishim mumkun emas ! Men bu chehrani unutmaganman . Oxshatgan bolishim mumkun emas ! Mumkun emas !!! "

Madina yolga qarab qoldi . O'tkan ketkanlarga ham bir rov kòz qirini tashlab qoyardi . Yana Onasi haqida oyladi . U bn bolgan ohirgi uchrashuvi haqida oyladi ....

\* \*

Madina oshanda 8 yoshda edi ... Oyisi buziq yolga kirgach òzi kamdek uyga yana 2-3 hotinlarni ham yetaklab keladigan boldi . Garchi kelgan ayollar Madinani silab siypashsa ham ulardan anqib turgan ichimlik hididan Madinaning kongli aynirdi . Huddi shunday kunlarning birida ...

- Madina qani tur . Mana buni kiy . Bol tez . Yur endi ..

- Qayerga boryabmiz ?

- Ana darvoza oldida mashina turibti . Kòrdingni . Shunga borib otir .

- Sizchi ?

- Men ortingdan keyin boraman

- Men siz bn bormoqchiman oyi

- Hoo kechagina siz yomonsiz sizni yomon kòraman deb vaysayotkandingku !

Shu mahal mashina eshigi ochilib undan yoshi anchayin katta erkak tushib keldi . Sochlariga oq oralagan . Soch saqoli osib ketkan . U Madina va onasiga qarab tirjayib turardi ...

- Hoy qiz - Madinaning yelkasidan tutib silkidi onasi - Menga qara senga yaxshi hayot beryabman . Yeganing oldingda yemaganing ketingda boladi . Menga oxshab kim kòringanni yetaklab uch tòrt chaqa topib yurmaysan . Kazo kazolar bn ishlaysan . Pullaring ham koop boladi . Shuni hohlamaysanmi tentak !

- K...er..ak em..aa...ss i..litti..moo..ss O..y..ii

- Yetar . Hoy sen nega kuygan kalladay tirjayib turibsan . Ol mana buni yoki kerak emasmi ?

Boyagi erkak Madinaga yaqinlasha boshladi . Madina esa chinqirib òzini Nodirani bagriga otar , ammo onasi undan òzini nari tortardi . Erkak kelib Madinani bilagidan ushlagan zahoti Madina uni qolidan qattiq tishladi va halos bolib darvozadan chiqib qoshnikiga yugurdi . Osha onda hayoliga bu fikr , bu jasorat qayerdan paydo bolganini bilmaydi . Ammo qoshnining darvozasini oyogi bn tepib bor ovozi bn baqirardi . Onasi va boyagi erkak yetib kelgunicha u darvoza ostidan uyga suqulib kirib ketti va endi uy eshigini zarb bn urardi ...

Uydan otilib chiqqan Robiya hijobini shoshilib to'g'irladida eshik ostida turgan yig'idan ovozi bog'ilib qolgan qizchani kòrib qòrqib ketti .

- Nima boldi ? - u sòrab ulgurmasidan darvozasini kimdir buzib yuborgudek taqillatti va Nodiraning shallaқи ovozi eshtildi. Nodirani bu mahallada hamma tanisada hech kim uni tođri yolga sololmadi . Undan òzlarini olib qochib yurishardi . Hatto kelgan masullar ham jim qaytib ketishadigan bolishdi .

Robiya avval qizning titrab yiglayotkaniga song Nodiraning baqirigi eshtilyotgan darvozaga qaradida nima qilish kerakligini angladi ...

Tezda kelgan militsita hodimlari avval osha erkakni song Nodirani qoliga kishan taqishdi . Uyda qonim topkan kapalaklarni ham qafasga joylab olib ketishdi. Nodira qollaridagi kishanlarga qarab mashinaga otirar ekan uni kuzatib turgan Robiyaning ortidagi qiziga tushdi ...

- Yaxshilikni bilmagan kòrnamak . Seni deb umrimni xazon qildim . Ablah otangni deb ! Yaramas qiz - u boshqa gapirolmadi , militsiya hodimi boshini ushlab mashinaga tiqib yubordi . Madina esa Onasining gaplarini eshtib battar yigladı ...

Uni avval biroz sòroq qilishdi , song psixolog suhbatlashdi . Ancha vaqttan song esa " Bolalar uyi " ga yuborish haqida buyruq chiqdi ...

\*\*\*

Madina shuni oylar ekan yana kòzlaridan yosh oqti . Ammo bu safar òzini tohtatmadi . Yigladı ... Yuzini qollari bn tosib òksib òksib yigladı . Bu hech narsani òzgartirmasa ham hech bolmaganda biroz kongli boshaydi . Yelkasini silkib silkib yiglar ekan , qarshisidan kelgan ovoz uni chalğitti

- Ahvolingiz yaxshimi ? - Madina sekin qollarini yuzidan olib qarshisidagi ayolga qaradi ... Sochlari oqarib yuzi ajindan tolib ketibti ... Kòzlari ham avvalgidek porlamaydi , juda mungli ... Balki yillar davomida tokilgan yoshlar undagi nurni sondirgandir ...

Ovozi ham avvalgidek jarangdor emas ... Juda solgin korinadi ... Qanday siniqlik bor edi ovozida ... Titrab gapiryabti ... Chunki yoshi otibti ... Endi avvalgidek navqiron , chiroyli va bebaho Nodira emas , aksincha biroz bukchaygan va korgan kishi kampir deb oyalaydigan ahvolga tushibti ...

Madina uni kòrib battar yiglab yubordi . Nodira esa tushunmay qizga yana savol berdi ...

- Nima boldi ? Ahvolingiz yaxshimi ? Biron joyingiz ogriyabtimi yoki ? Qizim ...

Qizim ... Bu sòzni Madina juda kop bor eshtti . Shu yillar davomida . Hatto bir vaqtlar Nodiraning òzi ham unga shunday murojat qilgandi . Murojat qilgandi ! Erkalash emas ! Ammo hozir chin kongildan gapiryabti . Chunki bu sòz Madinaning qalbigacha yetib bordi ...

- O...y...iii ! - Madina shu sòzni bazor talaffus qilar ekan beihtiyor Nodirani bağriga otildi . Uni quchib yigładi . Sòginch , nafrat , alam , qayğú ... barchasi otib ketti ... Goyoki uning birgina " Qizim " degan sòzidan song Olam Madina uchun yorishgandek . Konglidagi hech tolmas va juda qorongú boshliq nur bn tolgaandek edi ... Chunki U endi Onasini yonida .

\*\*\*\*

Farruh ish stoli ustidagi ertalab Onasi bergan hujjatlarga qarar ekan , negadir kongli bezovta edi ... U bu ish uchun qancha vaqttan beri tayorlanadi . Òzini ruhan tayorlab kelmoqda . Ammo nima boldiyu , ikkilanyabti ...

Shoxrux u uchun bir ikki musht yegani uchunmi ? Yòq . Buni aloqasi yòq . Unda nega ? Nega ikkilanyabti . Bor yoği bir qadam . Bu hujjatlarga Shoxrux qol qoyadi . Song aksiyalar Akmalni nomiga otadi . Biroz vaqt otib Shoxruxni kengash ishdan haydagan song toğasi yana Farruhga yuzlanadi . Shunda Farruh aksiyalarni qaytarib olib tayorlab qoygan investorlarini ishga chorlaydi . Kompaniyani jarliktan tantanavor olib chiqadi ... Barchasi oddiy va jon

Hech qanday aksiyalar savdosisiz ham bularni amalga oshirsa boladi . Yani investorlar orqali òzlarini biroz tiklab olishlari mumkun . Ammo bunda hamma maqtov Shoxruxga boladi . Va Farruh yana quruq qoladi !

Farruhning telefoni jiringladi . Goshakka javob bera turib bu ovozi tanidi ... Onasining kompaniyadagi kòz u quloği : Kamila - Shoxruxning kotibasi ekan . Ammo Shoxruxning kotibasini Dilbar Nizamova tanlagan deb eshtgandi . Bundan hayron qolgan bolsada sezdirmaslikka urindi va odatiy tarzda gaplashdi . Kamila hujjatlarni olishini va bu Kompaniyada bolmasligini aytti . Farruh ham roziligini bildirib uni tanish qahvahonaga chaqirdi va oyin boshlandi !

\*\*\*\*

Hardoyimgidek kòzgu qarshisida òziga termulib otirgan Dilbar Nizamovani qol telefoni jiringladi ...

- Yaxshi yangilik deb umid qilaman Mirzo ?

- Albatta honim . Aynan siz kutgan yangilik .
- Demak barchasi tayyor , shundaymi ?
- Ha faqat hujjatlarni qolga olsak bolgani .
- Hujjatlarni qolga olgan zahoti nima qilishni bilasan !
- Albatta . Sizga xabar beraman !
- Yaxshi . Intiqlik bn kutaman .

" Va nihoyat ... bir necha qadam qoldi . Va men hayotim davomida kòtarib kelgan toshdan halos bolaman ! Meni shu koyga solganlar esa bu ishlari uchun javob berishadi . "

\*\*\*\*

- Shaxrux Nizamov hujjatlar - honaga shoshilib kirgan Kamila qolida bir uyim qo'g'ozlar bn Shoxruxni qarshisiga turib oldi ...
- Hozir shoshib turibman . Keyin Kamila
- Ammo shoshilinch . Imzo qoyishingiz kerak . Bor yo'gi bir nechta holos Shaxrux Nizamov
- Juda zarulmi ?
- Aksi bolganda bezovta qilmasdim

Shoxrux tezda kostyumining old chontagidan ruchkasini oldida shoshilib imzo cheka boshladi . Hujjatlarga imzo chekib bolgach Kamilaga " boldimi ? " degandek qaradi

- Mana bungayam - deya konvertni tutqazdi

- Bu ..

- Ishdan boshash haqida ariza . Meniki

- Tinchlikmi ? Nima boldi? - ogay onasining tanlagan kotibasi ishtan ketyabti . Bu hursandchilikmi yo qay'gu . Eng yomoni esa bir vaqtning o'zida ikkisiham !

- Shaxsiy sabablarga kòra . Imzo chekaszmi ?

- Albatta... - Shox unga ham qol qoydi va ruchkasini yana chontagiga solib eshikka yol oldi - Ha aytganча bu haqida Amirani ogohlantirib ket . Ertalab yangi kotiba shay tursin !

- Hop boladi . Yaxshi qoling Shaxrux Nizamov .

- Soğ bol . Ishlaringda omad tilayman .

\*\*\*\*

Zuhra Karimova Jasurni qanday qilib Guljahonga boğlash haqida oylardi . Jasurning " Men sevib qoldim " degan gapidan song yuragini oldirib qoydi .

« Yana kim emush . Bolalar uyida òskan kimligi nomalum qizni . U qizni maqsadi nimaligini yolğiz Hudo biladi . Bolamni boshini aylantirib mol mulkiga ega chiqmoqchidirda . Pul uchun òzini oldim kuydimga solgan . Bolam esa soddalik qilib unga oshiq bolgan . Ah Jasur aa . Bolaginam aa ! Hechqisi yòq . Onang seni bu alvastidan qutqaradi . Seni òzim oydek , tagli tugli qizga uylantiraman ! »

\*\*\*\*

Madina Onasini uylariga olib keldi . Qizlar ishda bolgani uchun uyda hechkim yòq edi . Madina ichkariga kirib Nodirani ham taklif qildi ...

- Kiravering , tortinmang ! - Nodira bazor oyogini sudrab ichkariga kirdi . Òzini qiynayotkan vijdon azobidan qizini kòziga tik qaroy olmas na kechir na afsusdaman deb aytolmas , hatto tili kalimaga kelmasdi ...

- Hozir .. - Madina oyisining qolidagi ahlat solingan paketni olib ahlat idishga soldi va honasiga kirib ust bosh olib chiqdi - Mana bularni oling . Ongdan ikkinchi eshik yuvinish honasi . - Nodira boshini silkitganча yuvinish honasiga kirib ketti .. ..

Madina esa oshxonaga o'tib bu haqida qizlarga habar berishi kerakligini oylab raqamlarni tera boshladi ...

Konferensiya :

-Alo - tezda javob berdi Laylo

- Eshtaman - Nargiz ham bir necha soniya otkandan song kòtardi

- Menda yangilik bor - biroz kutgach gap boshladi Madina .

- Yaxshimi - deya sòradi Laylo

- Yomonmi ? - yangilikni kutib otirmay telefon qilib aytyotkanidan havotirlandi Nargiza

- Ikkisi ham !

- Unda boshla - tezashtirdi Laylo

- Men Onamni toptim !

- Qachon yuqotip qoyganding o'zi ? - tushunqiramay sòradi Nargiza

- Bundan ... 12 yil avval ! Kecha uni yol chetida kòrdim . Ahlat idishini titib yurgan ekan ! Tuni bilan oylab chiqdim . Va bugun uni izlab osha yerga bordim . Qarshimdan chiqdi . Hechnarsa demadi . Deyolmagandir balkim ! Ammo ... ammo uning qarashini o'zi menga yetarli boldi . Qizlar ! U hozir uyimizda . Balki sizlar bunga qarshidirsiz , balki buni qollamassiz

- Madina - gapini kesdi Nargiza

- Xa ?

- Sen bilan faxrlanaman yaramas qiz !

- Men ham faxrlanaman guzalim . Nima bolgan taqdirda ham U sening Onang . Va biz buni qabul qilamiz ...

Madinani kòzlaridan yosh dumalab yuzini yuvdi . U haqiqiy oylasi borligidan va endi u tokis bolganidan behad hursand edi ..

- Demaak - deya Nargiza sukutni buzdi - bugun bayram ekan ! Nishonlash kerak . Tort mendan

- Shokoladli bolsin - deya talab qoydi Madina - osh mendan !

- Mayli unda sizlarga yengillik bolishini uchuuun - deya gapini chozdi Laylo - sizlarga sherik bolaman - deb kulib yubordi



- Ana tayyorga ayyor ...

Qizlar yana kulishishdi ...

Nodira yuvinish honasida oynaga qarab òz aksidan chochidi ...

« Nahotki bu men ? Men a ? Ha men . Yillar òz tasirini kòrsatmay qolmabti . Ayniqsa Qamoq . Qamoqda òtkan 11 yilim ichida ne kòrguliklarni boshimdan kechirdim ... Shunga loyiq edim ... Tovba qildim ... Tovba qildim Ollohim , tovba qildim ... Òzinga shukur . Menga jigarbandimni qaytib berding . Òzinga shukur . Shukur ... »

\*\*\*\*

Nargiza ishi tugagach tortni olib yolga chiqdi , tashqarida esa uni qora otl shaxzodasi kutib turardi ...

- Hayrli kech , sizni bu yerga qaysi shamol uchirdi janob ? - Shoxruxning qarshisida turib hayron qolgan odamdek savol berdi Nargiza

- Qaysi shamol bolardi , Ishq shamolida ...

- Ohoo , bohabar boling yana uchirib ketmasin ...

- Qaygayam eltardi . Aylanib aylanib yana seni yoninga tashlab ketadi ...

- Hmm , ot aylanib qozigini topadi deng .

- Nargizz yaxshi ketyotkandik . Beliga tebtng . Ot nimasi . Hali men senga ot boldimmi ?

- Buncha arazlamasangiz ? Hop boldi . Ot emassiz . Osha ot ustidagi shaxzodasiz . Boldimi ?

- Demak sen qoziqsan shundaymi ? - Nargizni jigiga tegmoqchi boldi Shoxrux
  
- Qoziq ? Men ? Yòq osha qoziqqa oyogini tirab shaxzodasini kutyotkan Malikaman ...
  
- Gapniyam topasanaa Qora mushuk
  
- Meni bunday atamang ! Kech boldi ketishim kerak ... Balki yolga chiqarmiz ?
  
- Yaxshi yur ...
  
- Hoy Shoxrux aka ??? Mashina turganda nega piyoda boramiz ?
  
- Shuyam savol boldiyu . Otni qoziqqa boylab ozimiz yayov ketamizda Malikam ...
  
- Ammo kech bolib ketadi .
  
- Oldingda shunday yigit turganda nimadan qòrqasan ?
  
- Hardoyimgidek Shoxrux Nizamov va uning 40 hunari haqida ertak eshtib ketamiz
  
- Juda kulguli ... Bu nima tortmi ? Tuğilgan kun bormi ? Kimniki ? Bugunmi ? .
  
- Yòq , bayram ... Madina Onasini topibti .
  
- Nima ? Qanaqasiga ? Bolalar uyida katta bolmaganmidi ?
  
- A hop u yerga bolalar qayerdan keladi ? Laylak tashlab ketmasa kerak !

- Òz onalari tashlab ketadimi ? Òz farzandiniya ? Men oylasidan ayrilganlar u yerdan panohtopadi deb oylagandim...

- Ha Layloga oxshagan bolalar ham bor . Ota onasi avtohaloktda vafot etishgan .

- Senchi ..? - Shoxrux bu savolni beihtiyor berdi . Berdiyu song tilini tishlab qoldi. Nargizning tohtab boshini egib olganini korib yuragida oğriq turdi . Vijdoni qiynaldi , endi nima deyishni bilmay qoldi ..

- Men...men..tashlandiqman !

- Nima ?

- Onam tugilgan zahotim , Bolalar uyi darvozasi tagiga tashlab ketgan ! - deya jilmayishga urindi Nargiza , ammo eplolmadi ...

- Afsusdaman ... Kechir ...

- Hojati yòq . Bilishingiz kerak edi . Mana bildingiz ham !

- Men onamdan 10 yoshligimda ayrilganman . Oq qon tufayli bu olamdan erta ketkanlar . Keyinchalik dadam Dilbar Nizamovaga uylandilar va men ortiqchalik qildim . Londonga jonatib yuborishdi . Oradan 8 yil otib qayttim . Qayttim u ilk kunning òzidayoq seni uchrattim Qora mushuk

- Uff Shoxrux akaaa bas qiling dedim sizga . Men kettim - deyarli kocha boshiga yetishgach Nargiza qadamini tezlatib kochaga burildi.

Shoxrux ortidan borib qolidan ushladida òziga qaratti ... Kòzlarini olib qochyotkan qizning yuzlari qizarib bozardi ... Yuragi potirlab otilib chiqay dedi ..

- Nargiz ...

- Hh...aa

- Sen... sen

- Hosh ?

- Seni... men seni ...

- Gapiring ?

- Seni... sen Qora mushukni òzisan - deya Shoxrux Nargizni yuzidan chimchib oldi

- Aa ? Hali shunaqami ? Tohtang Shoxrux Nizamov mendan qochib qutula olmaysiz . Shu tort bn yuzingizni bejayman hali . Tohtang dedim .. - kocha boylab aylanib yuguryotkan Shoxruxni ortidan Quvyotkan Nargiz tortni qoliga mahkam ushlab oldi . Joyiz bolsa uni Shoxruxni betiga yaxshilab otadi . Bir birini quva quva ohiri charchashgan juftlik kocha boyidagi orindiqqa otirib qolishdi ...

- Baribir tutolmading - deya Nargizni turtti Shoxrux

- Siz yosh bolasiz

- Sen mendan battarsan ! Nargiz ?

- Bilaman

- Bilishingni men ham bilaman . Boshqa gap

- Hosh ?

- Seni sevaman . - Nargiza nafas olishni ham unutilib qoydi va umuman Shoxrux tarafga qaramaslikka urinib kòzini qolidagi tort solingan qutidan uzmasdi ... - Buniyam bilasanmi ? Ajoyib . Sen tunda qizil oy bolib turaver . Men esa ketyabman . Qara ketyabman . Boshqa qaytmasligim mumkun ( Nahotki oshanda farishta omin degan bolsa ... ) Nargiizz . Yaxshi ana kettim ...

Shoxrux uzoqlashib ketti . Nargiza esa tabassum qilgan hali ham torttan kòzini uzmasdi ... Uyiga yaqin qoldi . Yol yolakay telefonini olib Shoxruxga habar yozdi va jilmaygan hali uyiga kirib ketti

\*\*\*\*

Aziz Nizamov bugun òz koshonasida oylaviy dasturgan tuzagan edi ... Yaqinda chet eldan qaytgach hamma oyla azolar bilan birga kechki ovqat qilmoqchi boldi ...

Shu munosabat bilan Nigora Nizamova oziga biroz oro berib pastga tushdi ... Onasini tayorlanib chiqqanini kòrgan Farruh biroz gangib qoldi

- Hayron bolishga hojat yòq o'glim . Men ham birga boraman ...

- Ahir siz osha uy ostonasidan hatlamayman degandingizkuu.

- U kunlar otib ketti Farruh . Osha koshona yaqinda qulaydi . Osha ilon ham koshona ostida qolib mayib bolsin ! Kòramiz oshanda ham boshini tik tutib yura olarmikin ?

- Nima desangiz shu . Mashinada kutib turing . Men Zarnigir bn gaplashib kelaman

- Yur yur deb zòrlama . Unga hechkimni kòzi uchib turgani yòq !

- Oyi !!!

- To'g'risiyamda . Uni ustiga undan koplarni habari yòq . Rahmatli otang ham ishini imi jimida bitirgan !

- OYI !!!

- Mayli asabiylashma . Boldi jimman . Tezlash o'glim ,osha uyga borishga sabrim chidamayabti !

Farruh chuqur-chuqur nafas olib yuqoriga kotarildi va Zarnigorni honasini eshigini taqillatti

- Kiring !

- Hayrli oqshom malikam

- Keling akajon ... Sizgam ham hayrli oqshom . Haliyam ketmadingizmi ?

- Yòq . Endi ketamiz . Ketishdan oldin sendan bir habar olay degandim

- Menda hammasi yaxshi . Birozdan song dorimni ichib yotib uxlayman !

- Aqlli qizaloq . Barakalla . Darslaring qalay bolyabti ?

- Nima ham derdim ... Chidasa boladi . Jim otirish juda qiyin ekan. Sendan boshqa hamma gapirishi esa undanda daxshat !

- Meni singlim qachondan jimjitlik malikasi bolib qoldi ?

- Chunki yon atrofimdagilar nuqul kitobhonlar . Ularning suhbatlari ham aynan shu haqida boradi . Men esa hatto maktab darsliklarini ham eplab oqimaganman !

- Ha bunisi yomon bolibti . Demak dostlaringa yetib olishing va hattoki ulardan o'zib ketishing kerak !

- Hosh bu qanday boladi ? Ular shuncha yil davomida oqib kelgan kitoblarni men bir necha haftada oqib tugatamanmi ?

- Gap kitobning sonida emas . Uning mazmunida . Senga bestseller jam bolgan kitobhana ochib beraman. Yotib olib oqiysan ! Hosh nima deding

- Siz bilasizmi kimsiz ?

- Kelishgan ablahman

- Men uchun esa super qahraman. Sizni yaxshi koraman akajon . Yaxshiyam borsiz ...

- Men ham seni yaxshi koraman ... Endi esa oqishni davom ettir . Men kettim ..

\*\*\*\*\*

Nizamovlar uyi ...

Hamma dasturxon atrofida ... Kechki ovqat suzildi ... Aziz Nizamova òz tajribalari va maslahatlari bilan ikki yigitni oldiga otirgizib olib gaplashar edi . Nigora Nizamova esa sanchqini goshtga zarb bn botirar va Dilbar Nizamovaga ola qarash qilardi ...

Ammo bu oqshomdan eng kop hursand va mamnun Dilbar Nizamova edi . Va buni yashirmay yuz kòzida namoyon etardi ... Aynan shu narsa Nigora Nizamovaning gashiga tegib asabini buzardi . Aslida buni teskarisini qilish uchun kelgandi . Ammo uni korib hafsalasi pir boldi ...

Kechki ovqattan song divanda otirib oyla qahva ichishdi va bolib otkan voqealarni sarhisob qilishdi

- Bugun hamma jam bolgan ekan. Shu fursattan foydalanib sizlarga muhim gapni yetkazmoqchiman - dedi bosqlik bilan Aziz Nizamov- men Dubayda bolganimda .. - uning sòzini telefonning bezovta ovozi buzdi ..

Aziz Nizamov qol telefoniga qarab oyla azolariga bir nigoh tashladida ornidan turib nari ketti va javob berdi ...

- NIMA DEDIINNG ??? - Aziz Nizamovning baqirigi butun uyni tutti . Shox va Farruh ham uning oldiga oshiqishdi , ammo yetib ulgurmay Aziz Nizamov yuragini ushlagancha yerga yiqildi....

#### 47 Qism

Qizlar Madinaning onasi bn bir dasturxon atrofida yigilishdi .

- Yaxshimisiz ? - Nodiraga qarab ancha sukuttan song gap boshladi Laylo .

- Yaxshiman hudoga shukur rahmat . Òzingiz yaxshimisizlar . Madina qizim sizlar haqingizda gapirib bergandi . Uch opa singildek katta bolibsizlar . Ollohga shukur bir qizim uchta bolib qaytti ...

- Hush kelibsiz - yuziga zòraki tabassum yugurtirdi Nargiza . U Madinaning dardkashi va sirdoshi bolib kelgan . Uni kòz yoshlariga guvoh bolgan . Negadir hozir Madinaning òzi Onasini quchib otirganda Nargiza bu ayolni kechirolmayabti ... Balki u Ona mehri nimaligini bilmagani uchundir . Onalarning qanday bolishini bilmagani uchundir ... Balki...

- Nargiz

- Ha eshtaman ?

- Tortni kesmaymizmii ?

- Hop hozir sizlar otirib turing , Laylo ikkimiz tayorlab kelamiz .

Laylo choy qoyib damladi . Nargiza esa tortni kesib tarelkalarga qoydida patnisga solib olib bordi . Ikki kòzi telefonda . Nega javob kelmayabti ? Shoxrux akam tezda javob qaytarardilar . Bu paytta telefon qilardilar . Nimadir boldimikin ? Ammo nima ?

\*\*\*\*

Ranimatsiya bolimida orindi qda boshini changallagancha bir nuqtaga tikilib turgan Shoxruxni yelkasiga qol tegdi . Boshini kotarib qizargan kòzlari bn Jasurga qaradi .

- Dostim bardam bol ! Hammasi yaxshi boladi .

- D..adam.. Jasur !

Eshiklar ochilib chiqib kelgan katta yoshli Doktor Alimov Nigora Nizamovga qaradi . Butun oyla Doktorga yuzlanishdi ...

- Aziz Nizamovning yuragi ogir hasta edi . Bu haqida òzlarini ogohlanirgan ham edik . 11 oy muhlat qolgandi . Ammo hozirgi holatni tekshirib aytishim mumkunki ... Shoxrux ... Otangizni 5 oy umri qolgan !  
- Doktor shu sòzlarni aytarkan Nigora Nizamovaga kòz qirini tashlab qoyardi ...

Shoxrux devorga suyanib qoldi . Kòz oldi qorongulashib ketti ... 5 oy ! 5 oy ! 5 oy ! .... bu sòzlar qulogida sado berardi . Ahir endi yarashishgandi . Sòzlashishgandi . Diydorlashishdi . Ota bola bolishdi . Ulgurmadiku . Hali Otasiga orzulari haqida gapirishga , birga biron joyda dam olishga , sevgan qizi haqida aytishga , hatto otirib birga shaxmat oynashga ... ulgurmadi ... 5 oy !



- Bu qanday boldi òzi - karaht ahvolga tushgan oyla azolariga tikilib sòradi Jasur . Amakim qanday bu ahvolga tushdilar ?

- Kimdir telefon qildi - deya gap boshladi titragancha kòz yoshlarini artarkan Dilbar Nizamova- Keyin baqirdilar va behush yiqildilar . Keyin ...keyin - deya gapini yakunlolmay hòngrab yiglab yubordi ...

Farruh esa burchakta toǵasiga nima bolganini qisman bolsa ham anglab turardi . Òzini aybdor his qilar , aybdorlik hisi esa kalamushdek ich etini kemirardi . Òz òzidan nafratlandi va shaxd bn kasalhonani tark etti .

U bilardi . Ahir bilar edi ! Toǵasining umri òz qolganini va aynan shu oz muddatni oyla azolari baǵrida òtkazishni istashini bilar edi . Oǵli bn qiladigan ishlari royhatini tuzib qoyganini ham bilar edi . Bila turib ! Bila turib bu ishga qol urdi . Buni toǵasining yuragi kotara olmasligini oylamadi . Hayoliga ham kelmadi . Endi nima boladi . Agar toǵasiga biron narsa bolib qolsachi ? Òzini qanday kechiradi ? Qanday Shoxruxni kòziga , hatto kòzguga qanday qaraydi ? Qanday ???

Nigora Nizamova kabinetiga kirib eshikni qulflab oldi . Hayajonlanar , titrardi . Tezda tortmasidan tinchlantiruvchi dori olib ichdida kursiga otirib boshini kursiga suyadi ...

" Hammasi joyida . Hech narsa bolmaydi ! Bolmaydi ! Bolmasin ... meni aybim yòq . Men òzimga keraklisini olmoqchi edim holos . Òzimga tegishlisini . Oǵlim Shoxruxni soyasida qolmasin dedim . Aka , meni tushunasiz . Meni kechirasz ... Balki .. balki qondosh emasdirmiz . Ammo men baribir singlingiz bolib qolaman . Buni òzingiz aytgansiz . Meni kechirasiz . "

Dilbar Nizamova yuz qolini muzdek suvda yuvib kòzguga tikildi . Va chuqur-chuqur nafas oldi...  
Telefonini olib raqamlarni terdi

- Eshtaman Honim

- Ish bittimi ?

- Ha samalyot hozirgina uchib ketti . Endi uni izini ham topa olishmaydi . Topkan taqdirlarida ham faqat Farruh Nizamovga eltadi . Siz suvdan quruq chiqasiz .

- Yaxshi . Aksiyalar kimda ?

- Siz tayinlagandek , ularni sottik . Hozirda ular Zinnura Rashidovaga tegishli . Bu haqida kop o'tmay habar tarqaladi .

- Ajoyib . Aksiyalarni birdan o'tkazmadingizmi ?

- Yòq albatta . Siz aytkandek avval biznes bozorida aylantirdik . Shubha uygotmaslik uchun . Song savdolahdik . Zinnura Rashidova ham hech bir shubha va gumonlarsiz sotib oldi .

- Ok . Ochiryabman !

- Yaxshi . Soğ boling .

« Aziz Nizamov .... aksiyalari kochada qolganini eshtgach yuragi huruj qilgan ekanda . Haa peshona teri ... Shuncha yillik mehnati ... Oğli , nevaralari va hatto avlodiga qoldirmoqchi bolgan merosi ... Mana shu kòyga tushsaya ? Afsus ... ammo qutqarish kerak . Buni esa òzim qolga olaman . Oyinni ular boshlashdi . Men nuqta qoyaman ! Endi menga pullaringiz ham merosingiz ham bir tiyin ! Hech qaysisi toptalgan nomusim va oyin qilingan tuygularimga teng kela olmaydi ... Aldangan va horlangan ayolning qalb oğirgi va kòz yoshlari nimalarga sabab bolishini kòrib qoying ..! »

Aziz Nizamov hushiga kelib ancha òzini qolga oldi . Ammo hechkimni kòrishni istamasdi ... Uzoq davom etkan yolgizlikdan song Dilbar Nizamova kirishga muofaqt boldi . Ichkariga ustiga oq halat tashlab kirar ekan , qolida fayl kotarib kelib Aziz Nizamovning qarshisiga otirdi

- Ahvolingiz ancha yaxshilanibdi . Doktor shunday dedi . Erta indin uyga ruhsat berishar ekan ...

Qoliga osma ukol ulangan , yurak urushi monitorda bazor eshtilyotkan Aziz Nizamovga tinmay gapirardi Dilbar Nizamova ...

- Dilbar - Dilbar Nizamovaning gapini bolib uni chaqirdi Aziz Nizamov

- Labbay ?

- Oyla qurganimizga qancha vaqt boldi ?

- N...imaa..a.?

- Men bilan turmush qurib yashayotkaninga qancha vaqt boldi ?

- 9 yil ...

- Toqqiz yil-a ? Shu yillar davomida qanchadan qancha suvlar oqib otti . Seni uchratganimda yosh , guzal va begubor ayol eding . Hayotning achchiq zarbalarini ham tabassum bilan qarshi oladigan irodang bor edi . Hozir esa ... hozir Shaytonga ham dars berasan a Dilbar - deya kuldi Aziz Nizamov. Ammo kulgusi siniq chiqdi va uzoqqa bormadi , gapida davom etti - Shu yillar mobaynida senga yetarlicha etibor , mehr bermagan bolishim mumkun ... Kechir meni .

Hayotim davomida yoldan adashgan odam singari yashadim . Qalbim mudom tentirab yurdi . Birinchi rafiqam Oygulni soginardim ... Seni ham yaxshi korardim . Ozimni ishga bagishladim . Oyla esa ikkinchi orinda , men qurgan koshonada yashab meni ishdan kelishimni va ketishimni kuzatadiganlar bolib qoldi . Bu eng katta xatoyim boldi ... Mana endi buni jazosini olyabman . Men har tarafga tarqalib ketgan parchalarni birlashtirish uchun urungan vaqtim osha parchalar qolimni kesishdi Dilbar . Orqamdan pichoq urushdi ...

Dilbar Nizamovaning nafasi qaytb , yuragi qorquvdan tohtab qolay derdi . Peshonasini ter bosdi , barmoqlarini qayirib tezroq Aziz Nizamov gapini davom ettirishini kutardi ...

- Mana endi bu toshakka mixlanib qoldim . Oglim yarim yolda qoldi . Unga aytmoqchi bolgan gaplarim , orgatmoqchi bolgan narsalarim , nasihatlarim u hasratlarim shu koyda qoldi ... Uni yolgizlikta qoldirgan yillarimni ornini toldira olmadim ... Naqadar badbaht otaman ... farzandimni kozlariga qanday qarayman ? ...

Kompaniya aksiyalaridan ham ayrildik ...

Bu gapdan song Dilbar Nizamova jonlandi ...

- Yòq . Hali imkonimiz bor .

- Qanday imkon haqida gapiryabsan ? Aksiyalar biznes bozoriga chiqib ketgan . Ular kimni qoliga tushganini esa hali ham bilmaymiz .

- Bilamiz . Men bu haqida sorab surishtirdim . Siz bn ayni shu masalada gaplashib olmoqchiman !

- Aksiyalarimizni Rashidov kompaniyasi rahbari Anvar Rashidovning qizi Zinnura Rashidova sotib olgan . Qiz hali yosh ekan . Shoxruxtan 1 yosh kichik . Uni ustiga tajribasiz ... Agarda ....mabodo Shoxrux bilan Zinnurani yulduzlari qoshilsa undan taralgan nurdan eng avvalo bizning kompaniyamiz yashnaydi . Ahir hozir jar yoqasidamiz .

Uni ustiga bu majburiy bolmaydi . Shoxrux ham kap katta yigit ... Bir oylani boshligi boladigan vaqti keldi . Uni ustiga Zinnura ham tagli tugli oyla vakilasi . Aqlli va tarbiyali ekan . U bn uchrashib gaplashdim . Ammo aksiyalarni sotmoqchi emas ! Tajribasi kam bolsa ham ishni kòzini bilar ekan . Agarda ikki yosh qoshilsa ikki oyla ham birlashadi . Bundan esa biz koproq manfaat kòramiz . Anvar Rashidovning ogli bor . Ammo u hali maktab yoshida . U òsib , òzi oyoqqa turguncha kompaniyani Zinnura boshqaradi ... Bu esa ayni muddao ...

Oylab kòring , ahir shuncha yillik mehnatingiz , bunda Shoxruxning ham hissasi bor . Bu kompaniya bu biznes , tadbirkorlik ... ahir bularni nevaralarim davom ettiradi derdingizku ... Nahotki shu ahvolda Kompaniyaning parokanda bolishini jimgina shu yotaqda mixlanib kuzatib tursangiz ?

- Ammo Shoxrux nima derkin ? Qizchi ?

- Har qanday qiz Shoxruxdek shaxzodani orzu qiladi . Shoxruxga kelsak uni yòqtirgan qizi ham yòq .. Va sizning gapingizni ham ikki qilmaydi . Uni kondiring , kelajagi uchun ham . Zinnura juda ajoyib qiz va bebaho rafiqa , tilla kelin boladi hali ... Meni aytti dersiz . Yana ...

- Yana umringiz kam qolgan , keliningizni qolidan choy ichib keting armon bolmasin demoqchisanda ...

- Men... men nima deyishimni ham bilmayman

\*\*\*\*\*

- Laylo nega bunday boldi aa ? - Madina yotoqda istmasi chiqib yotkan Layloni boshiga namlattani qoyar ekan nolib qoydi - Ahir bugun katta toy borkuu

- Hechqisi yòq . Layloni orniga men boraman . - Gapni kesdi Nargiza qolida qaynoq choy bn kirib kelib

- Senmi ? Adashmasam Shoxrux akangiz endi toyhonadan ishlamaysan demaganmidi ?

- Òzi Shoxrux akamni 20 kundan beri kòrmayabman . Telefon qilsam ham kotarmayabtilar . Aziz Nizamovni ahvoli yaxshimikin ?

- Men Jasur aka bn kecha gaplashgandim . Ancha yaxshi ekanlar . Shoxrux esa ish bn ketkan dedilar . - Laylo gapini yakunlab yana boshini yostiqa qoydi

- Yòzda faqat bizni Laylo gripp bolsa kerak ! Teskari tuğilganmisan Layloo- Madina yana nolishga tushdi

- Qizlar - honaga Nodira kirib keldi - ketish vaqtingiz boldi . Qani bolaqoling . Laylo qizimga òzim qarayman . Boringlar .

- Hop boladi oyijon.

- Rahmat holajon - Nargiza Madinaning onasiga shunday murojat qilardi . Laylo ham uni oyijon deb chaqirishni boshladi . Nodira qizlarga mehr va etibor bn gamhorlik qilar edi ... Ammo Nargizaning tili Ona sòziga kelmasdi ... Bir necha bor tilini uchiga keltirdi , ammo talaffuz qilolmasdi . Kòzlari yoshga tolgancha jim bolib qolar edi ...

Qizlar Toyhonaga kelib tayorgarlik kòrishdi ...

- Hamdam aka , Assalomu aleykum. Yaxshimisiz - Madina hardoyimgidek kelgan zahoti Hamdam aka bn sòrashdi

- Vaaleykum assalom. Yaxshi rahmat òzingiz yaxshimisizlar . Qizlar qani ?

- Ha Layloni mazasi bolmadi . Shunga orniga Nargiz bn kelaverdim .

- Maylo tuzalib ketsin . Aytgancha seni ishing nima boldi ?

- Kompaniyadagimi ? Sinov muddatim tugadi . Òzimiz xabar beramiz ketaver deyishgandi . Jim jitku .

- Sendan qutulganlariga hursand yurishgandirdaaa

- Kuling kuling . Hali kòramiz . Ha aytganча bugun kimlar keladi ?

- Telefoniningni tayorlab turaver . Bugun zòr zòr mashxur qoshiqchilarni aytishgan . Òziyam katta odamni toyi ekan .

- Yoǵe kimniki ?

- Haligi , ismi nima ediya ?? Haa

- Madinaaa - Hamdam akani gapi tugamasdan Nargiz yugurib keldida Madinani tortqilab olib ketti - Assalomu aleykum Hamdam aka . Madi sen yur Iroda opa chaqiryabtilar

- Hop mayli Hamdam aka . Yaxshi qoling

- Mayli ishingizga omad !!!

Qizlar hamma narsani tayorlab taht qilib qoyishdi . Song oshxonaga otib otirishdi . Bugungi toyga jami 50 ga yaqin ofitsiyant yollashibti . Shularni dastidan qizlarga deyarli ish ham qolmadi . Faqatgina biron nima kerak bolsa yetkazib berish qoldi holos ...

Madina qizlar bn oshxona otirishardi ...

- Bugungi toyga rosa havasim keldii - deb kòzlari chaqnab gapirardi Ruhsora

- Haa nimasini aytasan . Dekorasiyasiga gap yòq . Kelin kuyovni kòrmadinglarda . Men boya kelganda moralab kòrgandim . Uzukka kòz qoygandek biram bir birga moss - deya tolib toshib tariflardi Nigina

- Iloyim bahtli bolishsin - deya niyat qildi Nargiza...

- Haa omin aytganing kelsin guzalim , sizlargayam yuqsin - deb kuldi Madina ... Shu onda Madinaning telefoni bezovta jiringladi - Men hozir - deya chetka otib javob berdi

- A..loov Madina Dav..letova!!!

- Farruh Nizamov , shu mahalda nega qongiroq qilyabsiz ?

- Qay..erdasiizzz ?

- Sizlab gapiryabsizmi ? Ichganmisiz ?

- HA-HA-HA , ichtim . Bòkib ichtim . Bugun qanday kunligini bilasanmi . Bilmaysan BILMAYSAN BILMAYSAN !!!

- Baqirmang . Qayerdasizzz ?

- Bilmayman... bilishni ham istamayman

- Janob buni menga bering - birdan Farruh tomondan ofitsiyant yigitning ovozi eshtildi - Iltimos bering , qolingizni kesib olasiz

- Tegma ! Yaqinlashma . Ket yuqol

- Farruh qayerdasiz ? Men boraman . Siz ayting . Qayerdasiz ?

- Rostan kelasanmi ? Rostan a ???

- Ha ha boraman . Qayerdasiz ?

- Men qayerdaman - deya oshqordi boyagi ofitsiyantga Farruh

- Janib siz \* siz . Boldi . Kop ichdingiz . Bunisini qoying !

- SENG TEGMA DEDIM . Madina eshtingmi ? Kelasanmi ?

- Ha hozir boraman . Hechqayerga ketib qolmang . !

Madina telefonni ochirib qizlar tomonga bordi va Nargizni chetka tortti

- Nima boldi ? Kim ekan qongiroq qilgan ?

- Men ketishim kerak .. bu zarul . Kelgach barini bafurja tushuntirib beraman . Sòz beraman . Ammo hozir hechnarsa sòrama.. Nargiz ketishim shart .

- Shunchalik muhim bolsa mayli . Boraqol . Òzim orningni bildirmay turaman . Faqat keyin xabar berib qoy . Havotir olaman ...

- Hop , rahmat shirinim - Madina Nargizni mahkab bağriga bostida song narsalarini olib orqa eshikdan chiqib ketti . Orqa eshik oshxona tarafda joylashgan bolib u yerda asosan xizmat korsatadiganlar uchun edi ...

Birozdan song Nigina yigitim qongiroq qilyabti deb tashqariga chiqib ketti ... Oshxonada esa hamma òz ishi bn band . Faqat Nargiza bn Ruhsora otirib qahva ichishardi ... Birdan yugurib kirgan Iroda opani korib ularning kapalagi ucti . Chunki Iroda opa vajohat bn kirib huddi hozir kimgadir tashlanadigandek qarab turardi

- Hozir kelin kuyov uchun tort olib boriladi . Mahsus bezatilgan pichoq qani ????? - oshxonadagi hamma bu ovozdan gangib keyin pichoq izlashga tushishdi ... Ruhsora pichoqni olib kelib patnisa qoydi ...

- Men olib boraman . Beraqol - Nargiza patnisni olib chiqib ketti ...

Davra ortasida 5 qavatli tort qad rostlab turardi... Kelin kuyovni esa yoshlar qurshab olishgandi ... Nargiza yigit va qizlar orasiga suqulib kirib ketti va patnistagi mahsus pichoqni joyiga qoymoqchi bolgan payt uni qolidan pichoqni olishdi ... Pichoqqa kim qol chozganini kòrish uchun boshini kòtarib qarshisiga qaradi ....

Ilk bor uni uchratgan payti ... uning gaplari , jahli , gázabi , kulgusi , mazah qilishi , ayyorona qarashi , samimiy nigohi .... hammasi jo bolgan osha tun zulmatini eslatuvchi va Nargiza qaraganda faqat òz aksini kòruvchi nigohlar turardi uning qarshisida ...



Nargiza joyida qotib qoldi . Na gapirishni na yig'lashni na ketishni bilmasdi ... Jimgina to'grisida undan kòzlarini olib qochyotkan xiyonatkorga qarab turaverdi ...

" Bu tushmi ? Bunday bolishi mumkun emas ... Shoxrux akam menga bunday qilmaydi... U bunday qilmaydi... qilolmaydi ... "

Shoxrux Nargizani bu yerda kòrmayman deb oylagandi ... Ahir unga Toyhonada ishlashni man qilgandi ... Uni nafaqat bu yerda balki endi hayotida ham kòrmaslikka qaror qilgandi ... Ammo ... ammo taqdir oyinini qarangki hozir U qarshisida turibti ... Yosh tola kòzlari bn Shoxrux ga hayrat bn boqib turibti .... Shoxrux qanchalik kòzlarini undan olib qochmasin , ayni paytta unga talpinyotkan yuragini tohtata olmasdi ... Qalb o'grigini yengishi , chidashi kerakligini oylab tabassum qildi ...

Kòzlarida tolgan yoshdan biroz kòzi achishdi , chuqur nafas olib yon atrofiga qaradi va unga umid , faxr mamnuniyat bn qarab turgan Otasini kòrdi ... Jilmaydi ... Kòz yoshlarini yashirdi ... Yelkasiga qoyilgan qolga qaradi ... Jasurning hamdardlik va afsus tola nigohlariga qarab kulib qoydi ... song yonida u bn butun umrini bo'g'lamoqqa shay turgan qizga yuzlandi ... Òziga tikilgan nigohlarda sevgi va cheksiz mehrni kòrdi ... Yana jilmaydi va kelinning qolidan tutib tortti kesishdi ...

Endi doyim shunday boladi ... Har safar qalbida o'griq turganda , ishq ortaganda , yuragi uni ismini takrorlab qoymaganda .... shunday qiladi . Yaqinlarini kuzatadi va jilmayadi ... Chunki ular bahtli ... Bahtli ... Hamma sevganlari bahtli bolganda unga baht yetishmasa nima qilibti ? Ammo Nargiza chi ? - bu savolni qalbi ongiga har kun , har soat , har daqiqa beradi ... Yuragiga nishtardek sanchilib paydo bolgan jarohatni esa Nargizaning achchiq kòz yoshlari yana kuydiradi ... Ongi esa faqat bir javobni beradi ... Afsusdaman....

Nargiza buni tush bolib chiqishini hudodan ilitjo qilib qayta qayta qolini chimchilab qizartirib tashladi ... Shoxruxning unga hechnima demaganini esladi ... Song uni yonida oq libosda malikalardek guzal bolib oy nuridek jilo sochib turgan shaxzodasini qolini ushlab olgan qizga naftrat bn qaradi ... Va kòzlari Shoxruxni yelkasiga qolini qoygan Jasurga tushdi ... Jasur ham Nargizaga aybdorona qarab yuzini burdi ... Nargiza ortga tisarila boshladi ... Otyotkan ofitsiyantlar esa uni turtib ketishardi ...

Bo'g'ziga tiqilgan alamdan baqirib yubormaslik uchun òzini oshxonaga otti ...

tashqariga chiqib bòg tomonga otti ... Yurolmadi , oyo'gidan mador ketib yerga otirib qoldi ... Ohiri chidolmadi , òzini tutib turolmadi ... Yig'ladi ..... Hatto ovozi ham chiqmas nafas yetmasdi ... Chuqur nafas ololmay tiqilib qoldi ... Kòksidagi o'griqdan mushtlab mushtlab yig'ladi.... Òzini yana bir bor tashlandiqdek his qildi ...

Ammo bu safar oldingidek emas ... Bolalar uyi darvozasi tagida tashlab ketilgan chaqaloq sovuq va ochliktan yig'lagan bolsa hozir alam , naftrat , yol'gon va xiyonatni his qilardi ...

Qalbidagi yaralangan ishqning o'g'rigi bosilmas qaytaga yanada kuchayardi ...

Va nihoyat opkasiga havo tegdi va ovozi chiqdi ... endi baqirib yig'ladi ... Toyhona ichidan chiqyotkan sado uning ovozini bildirmasa ham o'ziga eshtilardi ...

" Nima uchun ? Shoxrux aka ? Nima uchun ? Nimagaaaa ? Men....menchi ? Men nima qilaman ? Nega bunday qildingiz ? "

Bu savollarni tashqariga chiqarmasa ham butun vujudini ortardi ... O'zini hali hamon yig'idan tohtata olmas titragancha yana nafasi tiqila boshladi

Kòz oldidan Shoxrux bn ilk tanishuvi , liftga qamalib qolganlari , Shoxruxning honasiga bostirib kirgani , U bn ilk ovqatlangan vaqti , ilk sayr , janjallar , tortishuvlar , vadalar , isxorlar .... va songi uchrashuvi.... bari kòz oldidan kino lentasidek otib ketti .... Afsuski bu shirin tushdek otib ketti ...

Nargiza endi titramas , yerga otirgancha qimir etmasdi ... Faqatgina kòzlarini qizartirib tokilyotkan yoshlar hali hamon tohtamagandi ... Ular ham birozdan song tohtar balkim ... ammo qalbidagi yara va o'g'riq hech qachon tohtamaydi ... tanadagi har qanday o'g'riq ham kun kelib o'tib ketadi , balki chandiq qolar , do'g' qolar ammo ular hotiradan boshqa narsa bermaydi ...

Ammo qalb yarasi ... hechqachon tuzalmaydi , o'tib ketmaydi ... Har gal eslaganda....kòrganda....so'g'inganda huddi ilk bora bolganidek o'g'riq beradi ... Yaralangan qalbdagi ishq esa o'z boshlig'ini faqat zulmat va o'g'riq bn toldiradi ... Bu esa insonda ishonchsizlik tuyg'usini uygotadi ... Sevgiga nisbattan , ishqqa nisbattan ... Bunga sababchi esa YARALANGAN ISHQ...

#### 48 Qism

Nargiza bir nuqtaga tikilgancha otirardi ... Shunda yelkasiga qoyilgan qoldan ortiga ugirildi ... Osha bevafo ...

- S..iiz..z q..qa..n...da...y q..i...lib me...n...ga.. bun....day qil....din...giz ?

- Nargiza men seni sevaman . Yur bu yerdan ketamiz . Hamma hammasini tashlab ...

- NIMA ???

- Ha qara men sen uchun toydan qochib keldim ahir .

- Yòq siz

- Yur ketamiz . Qolingni ber . Qani yuraqol

- Yòq

- Nargiz nahotki men bilan ketmasang ?

- Shoxrux qayoqqa - Nargiza va Shoxruxga kelinlik libosini etagini kotarib yugurib kelgan kelin oqrayib qaradi . Va Shoxga savol nazari bn tikildi

- Nargiz endi kech - Shoxrux indamay kelin tomonga ildamlab keta boshlad

- Shoxrux aka ... Shoxrux aka ... Shxorux aka ...

xxxxxxxxxx

- NARGIZA - yuziga sepilgan yaxtek suvdan òziga kelgan Nargiza ornidan otilib turdi ... Titrab ketti ... Madina sochiq olib kelib suvdan namlangan yuz kòzini artib qoydi va sochlarini yigib ortiga tashladi ... Laylo esa qolida bir stakan muzdek suv keltirib berdi ...

- Hoy qiz nima balo ? Jin pin chaldimi ? Uyguda yiglashga balo bormi ? Shoxrux aka deb hammani oyoqqa turgazdingku ? Nima boldi òzi ?

- Men... men..bu....sen....bu...tushmi ?

- Voy ha da . Seni biror mullaga oqitvorish kerak òzi ! Sevgi gormonidan miyang aynib qolibti !

" Oллоhim òzinga shukur... Tushim ekan ! Ammo nega bunaqa tush kòrdim ? Tabiri nima ekan ? Yòq ishqilib Shoxrux akamga nimadir bolmasinda !!! Ular bilan gaplashishim kerak !!! "

Nargiza shu hayollar bn qol telefonini olib Shoxrux ga qonguroq qildi ....

Biroz gudoktan song narigi tomondan javob keldi ...

- Alo Shoxrux aka . UZR bezovta qilgan bolsam . Bilaman yarim tun ammo ... Haligi ahvolingiz yaxshimi ? Bilmayman ammo negadir konglim gash ... Alo Shoxrux aka ? Eshtiyabsizmi ?

- N..argiz. ?

- Ha eshtaman . Aytavering ?

- D..da..damni berib qoy...dik !

Nargiza qolidan telefoni tushib ketti .... Nima dedi ? Dadam dedimi ? Aziz Nizamov a ? Ahir ....

- Nargiza nima boldi ? Nega yiglayabsan ? GAPIR ! - Madinaning baqirigidan song bir seskanib unga qaradida - Aziz Nizamov olamdan otibti !

Honaga sukunat chokti .... Bu sukunat huddi tuman kabi edi ... qachon tarqalishi nomalum ... Na boshi bor na ohiri ... Nargiza joyiga behol otirib yuzini yuyotkan kòz yoshlarini artti .... .

Aziz Nizamov bn ilk bor kòrishganini hotirladi ... Oshanda Nargizaga beminnat yordam bergandi ... Undan song boshqa kòrisholmadi ... Konglining tubida kun kelib choy quyib uzatarman degan yaxshi niyatini komdi ... Endi u inson yòq ... Afsuski bu olamda endi yòq ....

\*\*\*\*

Shoxrux otasining janozasidan song uyga keldi va otasi bn suhbat qurgan divanda otirib ichini kemiryotkan alamni tashqariga chiqardi ... Yig'ladi ... Hayotida ikkinchi bor yigit boshi bilam yosh bolalarcha kòz yosh tokdi ... Ilk bor onasini yuqotgan on shunday yig'lagandi ... Endi otasi ham bu olamda yòq ... Yetimlik yosh va kongil tanlamaydi ... Shoxrux òzini juda yolgiz his qilardi .... Ammo kongli hech narsani tusamay qoldi . Divanga yotib boshini otasi doyim suyanib otiradigan yostiqqa qoydi va kòzlarini yumdi .... Hayoliga otasi bn bolgan songi suhbat gavdalandi ...

\*\*\*

Shoxrux Dilbar Nizamov palatadan chiqqach otasini kòrgani ichkariga kirdi ... Eshikni ochib kirdi va tohtab qoldi ... U doyim kòrganda hayajon bosadigan , sòzlari insonni yuragigacha yetib boradigan va nigohlarida faqat ishonch kòrinib turadigan inson Aziz Nizamov yotoqda behol yotar , olyotkan nafasi ham azob berar ... qollarida osma ukollar , monitordan eshtilyotkan yurak urushining ovozi esa sust edi ....

- Kel... - Shoxruxning eshik yonida turganini korgan otasi qoli bn imlab chaqirdi ... Shoxrux ham sekin qadamlar bn borib kursiga chokti va otasining uzatgan qolini mahkam siqti

- Yig'layabsanmi ? Shoxrux ?

" Yòq " degandek bosh silkidi Shox

- Kechir bolam ...

- Nimaga aytmadingiz ..?

- Ahir bu suyinchi oladigan yangilik emasdiku ...

- Nega yashirdingiz ...

- Mana shu uchun ... Menga qara Shoxrux . Oglim qara menga ?...

Shoxrux boshini kotarib otasiga qaradi ...

- Yòq . Bunday emas . Mana shu nigohlarni kòrmaslik uchun yashirdim . Menga doyimgidek faxr bn qarashingni istadim... qayǵu alam bn emas oǵlim . Menga bu nigohlar bn qarama Shoxrux ...

Shoxrux kòzlarini olib qochti . Labini qattiq tishlab oldi ...

- Shoxrux , hozir senga aytadigan gaplarimni yaxshilab tingla va tushunishga harakat qil bolam ... Men...men..umrim..davomida..qilgan mehnatim va erishgan hurmatimning kuli kòkka sovurilyabti ... Men qoshiq bilan yiqqanimni chelaklab tokishyabti bolam ... Kompaniyam inqirozga yuz tutti ... bolinib ketti ...

- MENI KECHIRING...MENI AYBIM

- Yòq , m...meni esht ! Bu hayotimda erishgan eng katta yutuǵim sensan oǵlim . Hech qanday kompaniya ham biznes ham emas . Mendan keyin sen davomchim bolasan... Men bolalar uyida katta boldim . Hòrlik va yolǵizlikta ... Chunki ota onam bolmadi . Menga hechkim otalik qilmadi . Ammo seni otang bor edi . Lekin otalik qilolmadi ... Men ota bolish nimaligini bilmayman degandim . Oǵlimga nima deyishni nima qilishni biayman deya qòrqqandim .... Ammo bilmabmanki senga emas òzimga tarbiya berishim kerak ekan . Shox sen menga oxshama . Hayotingni doyim sevgan narsalaringa baǵishla . Zavq ol . Yasha . Ish bu huddi avtobusga oxshaydi . Biri kettimi boshqasi albatta keladi . Ammo unutmaginki umringni mana shu transportta emas oylang davrasida sen sevgan va seni sevganlar orasida otkaz .... Hayotingni òzing afsuslanmaydigan darajada yasha ....

Sen bn birga otkaza olmagan vaqtlarim uchun qattiq afsuslanaman oǵlim ... Men kechir ...

Kompaniyaga kelsak bolar ish boldi . Bu seni aybing emas . Bu meni aybim . Men...men Shoxrux ammang

Shu payt honaga doktor kirib keldi va Shoxruxdan chiqib turishini sòradi ....

Shoxrux yolakta tezroq otasi bn suhbatni davom ettirishga sabrszlanar ekan , ammasi ham akasini kòrish uchun palataga kirib ketti . Birozdan song esa ....

- AKKAAAAA - Nigora Nizamovaning chinqirigi deyarli butun shifohonani titratti .... Shoxrux nima bolganini tushunishga ham qòrqiib sekin qadamlar bn palataga yaqinlashdi va qollari qaltiragancha eshikni ochti ... Ichkariga kirib otasining jonsiz tanasiga tikildi yu devorga suyanib yerga otirib qoldi ...

\* \* \* \*

Qizlar hatto Shoxrux ga taziya bildirishga ham ulgurishmadi ... Madinaning onasi bn kelib Nigora Nizamova va Dilbar Nizamovaga taziya bildirib ketishdi ... Ammo Nargiza ketolmadi ...

- Jasur aka ?

- Nargiza ? Sen bu yerda

- Shoxrux akani kòrishim kerak . Iltimos - kòzida yosh bn yalindi Nargiza

- Ammo u hozir . Menimcha u hozir yolgiz qolishi kerak Nargiza

- Yòòq . Yòlgizlik juda yomon narsa . Men hozir ularga kerakman . Biz birgalikta butunmiz . Iltimoss

- Yaxshi . Men bn yur

Jasur Nargizani ikkinchi qavatga bildirmay chiqardida , Aziz Nizamovning honasida kirgizib yubordi . Òzi esa pastka tushib ketti ...

Nargiza honaga kirgan zahoti kòzi divanda yostiqliqni quchganicha kòzlarini yumib yotkan Shoxga tushdi ... U tomonga bordi va yoniga tizzalab otirdi ...

- Shoxrux aka ?

Shox qizargan kòzlarini ochib Nargizaga qaradi ... Uni oldida ojiz va bechora kòrinishga gururi yol qoymadi shekilli ornidan turib otirdi ...

Nargiza ham ornidan turib Shoxruxni yoniga otirdi ...

Ikkisi ham jim edilar . Ayni damda ularga sukunat maqul edi ... Nargiza Shoxruxni qolidan ushladi

- Men yoningizdaman . Hechqachon tashlab ketmayman ... Bardam boling .

- Ular endi yòq ...

- Joylari jannattan bolsin

- Omin ..... Ular endi yòq

- Shoxrux aka

- Ular endi yòq . Buni qabul qilolmayabman Nargiz . Qabul qilolmayabman . Men endi .. endi yettimman . Ğirt yetimman
- Men ham ... Ammo yolġiz emassiz . Men borman ! Yoningizdaman . Doyim shunday boladi ...
- Meni tashlab ketmaysanmi ?
- Aslo . Toki òlim bizni ayirmaguncha ...

Shoxrux Nargizani baġriga bosti . Ollohga qaysi ishi manzur keldi ekan unga shunday juft ato etti ... Buni òzi ham bilmaydi , ammo endi Nargizani qoyib yubormaydi . Hech qachon ...

Birdan birinchi qavattan baland tovushlar eshtila boshladi . Shox va Nargiz zinadan pastga tushishar ekan eshik oldida turgan Militsiya hodimlariga kòzlari tushdi

- Assalomu aleykum Shoxrux Nizamov
- Vaaleykum assalom. Xa bu men
- Otangiz uchun afsusdamiz . Taziyamizni qabul qiling
- Soġ boling . Marhamat sizni buyerga
- Gap shundaki sizga qarshi davo ochilgan . Biz bilan birga ketishingizga toġri keladi ...!

#### 49 Qism

" Bazan biz umuman kutmagan va hatto hayolimizni bir burchagiga ham kelmagan ishlar sodir boladi ... Va hayotimiz tubdan òzgarib ketadi . Bu yaxshilikka yoki aksi buni davomida bilamiz ... Muhimi har qanday zarbadan òzimizni yuqotib qoymay tik tura olish ... Ammo bazan shunday holatlar boladiki ortiq tik turolmaysan va yiqilasan , zarbaning qattiqligidan emas , davomiyligidan .... "

Shoxrux nima bolishini anglab ulgurmasidan unga ayblov yuklashdi. Unga kòra Kompaniya aksiyalarini noqonuniy " Biznes bozoriga " chiqarib yuborganlikta ayblanmoqda edi .



- Meni bundan habarim bolmagan ! - bu sòzlarni kelganiga 5 soat bolgan bolsa hali ham birinchi martadagidek qatiy taklidlamoqda edi Shoxrux

- Ammo hujjatlardagi qol sizniki .

- Men bunday hujjatga qol qoyganimni eslolmayman ! Men buni birinchi marotaba kòrib turibman . Uni ustiga kompaniya òzimniki ahir . Aksiyalarimni bozorga olib chiqqandan nima foyda ?...

- Mana shu yerga kelganda tohtaymiz . Chunki aksiyalar sizniki emas aksincha ammangizni ogli Farruh Nizamovga tegishli bolgan . Siz uning aksiyalarini noqonuniy ravishda òzlashtirmoqchi bolgansiz yoki sotib qarzlaringizni yopmoqchi bolgansiz !

- Safsata ! Meni bunday niyatim bolmagan !

- Hosh unda qanday bolgan ?

- Men qongiroq qilib olishim kerak !

Uzoq muddatlik bahs dan song munozoraga kela olmasligini tushungan Shoxrux Jasurga qongiroq qildi .

- Alo .

- Jasur bu men Shoxruxman

- Jin ursin Shox ahvoling qalay ? Yaxshimisan . Nimalar boldi ?

- Ahvol chatoqqa oxshaydi . Men umuman bilmagan narsalar haqida sòrab bemani ayblov qoyishmoqta . Emushki men Farruhni aksiyalarini noqonuniy ravishda biznes bozoriga olib chiqibmann !

- Men allaqachon advokat yolladim . Bu begona . Sizing oylaviy advokatingizni topolmadim . Aksiga olib ...

- Nima yana? nima boldi ?

- Shox advokatning aytishicha agar ... agar Amakim vasiyatnoma yozib bor mulkini senga qoldirgan bolmasa..

- Gapir !

- Unda sen birovni mulkini noqonuniy ravishda òzlashtirmoqchi bolganing uchun jinoyi javobgarchilikka tortilasan .

- NIMA ? Ammo meni aybim yòq Jasir

- Bilaman . Senga ishonaman dostim . Lekin vaziyat jiddiy . Kim bolsa ham bu ishga obdon tayorlangan kòrinadi !

\* \* \* \*

Dilbar Nizamova yana òz honasida va kòzgu qarshisida edi ... Boshida oq rumoli va pardossz yuziga termulib kòzlariga yosh keldi . Va yuziga tomchilagan kòz yoshlarini arttida rumolini yechdi ... Song oyna oldida turgan lab boyog'ini olib labiga surtti , biroz upa va kòzlarga qalam ... Va yana osha Dilbar Nizamovàga aylandi .

Takabbur , kalandimoq va sovuq ...

Hona eshigi zarb bn ochilib ichkariga Nigora Nizamova kirib keldi . Unga peshvoz chiqqan Dilbarni yuziga ayamay tarsaki tushirdi ...

Dilbar avvaliga ong tomoni achishgan yuzini qoli bn silab yana Nigora Nizamovaga qaradi va istexzoli jilmaydi . Uni bu tarzda òzgargan qiyofasini kòrib jazavaga tushgan Nigora Nizamova yana bir marta tarsaki tushurishga shaylanganda Dilbar qolini tutib qoldi va mahkam siqdi . Tirnoqlari uning terisi botib boryotkanini va buning o'grigidan yuzi burishib qolini tortyotkan Nigora Nizamovani kòrib zavqlandi va qolini qoyib yubordi

- Hamdardlik bildirishga keldingizmi opa ? - deya hechnarsa bolmagandek jilmaydi Dilbar va borib honasidagi divanga oyog'ini chalishtirib otirdi

- Ilon... Seni ishing ! Sen qilgansan !

- Nimani nazarda tutyabsiz ?

- Sen... ha sen . Yana hech narsa bolmagandek tirjayishinichi ? Akamni sen öldirding

Nigora Nizamovaning bu gapidan Dilbar jiddiy tortti va biroz tikilib turdida kulib yubordi

- Yomon emas ! Agar meni ornimda bironta yuvoshrogi bolganida bu sozlaringizni miyasiga qorgoshindek quyib ozi ham ishonib yurardi ...- deb kulishda davom etti

- Aksiyalarni ham sen almashtirgansan ! Shoxruxni ulushi emas Farruhniki yuqoldi . Seni deb !

- Alam qildimi ? Siz shuncha harakat qilib tayorlagan rejangizni barbod qilganim yetmagandek uni oz hisobimga hal qildim . Qoyilmisiz - deya kòzini siqib qoydi Dilbar

- Nimaga erishmoqchisan . Faqat oglim Shoxrux uchun deya kòrma . Uni qanchalik yomon kòrishingni bilaman . Bu bn nimaga erishmoqchi eding ? Oz eringni ajal bn yuzlashtiradigan darajada kòzlaringni parda qopladimi ? Akamni...

- YETAR !!! AKAM ...AKAM.. AKAM

U SENI AKANG EMAS EDI ...

MENGA BUNDAY QARAMA . MEN HAMMASINI BILAMANN. SEN DAVO QILYOTKAN MEROS VA MOL DAVLATTA SENI ZIGIRCHA HAM HAQQING YÒQ .

SEN VA ERING AZIZ NIZAMOVNI BOYLIGINI SOVURISHTAN BOSHQA NARSAGA YARAMADINGLAR !!!

ERING QIMORGA BERILIB BOR BUDINI YUTQAZDI . HOSH KIM QUTQARDI SIZLARNI OSHA YOQCHILIKTAN ?

KIM OYOQQA TURISHING UCHUN MABLAĞ AJRATIB KLINIKA OCHIB BERDI ?

ERINGNI JASADINI KOCHADAN TOPISHGANDA KIM UNI MARAKALARINI BEMINNAT ÒTKIZIB BERDI ?

BOLANG OTASIZ QOLGANDA KIM UNI QANOTI OSTIGA OLDI ?

KIM ?... MEN AYTAMAN KIMLIGINI ...

SEN HECHQACHON CHIN KONGILDAN TAN OLIB YAXSHI KÒRMAGAN ... AMMO SENI QONDOSHIDAN HAM ORTIQ BILIB MEHR BERGAN AKANG !!!

SENDEK KÒRNAMAK MENGA AQL ORGATADIMI ?

HOY AVVAL ÒZINGA BOQ DEYISHGAN . SENDEK NOSHUKURGA BU HAM KAM . MENGA KELSAK MENI HAM ÒZ REJALARIM BOR VA ULAR HAQIDA SENGGA HISOB BERISHGA MAJBUR EMASMAN . ENDI ESA UYIMNI BOSHATIB QOY ! AGAR ÒYOQLARING ÒZINGA BOYSUNMAYOTKAN BOLSA SENGGA YORDAM BERISHLARI MUMKUN !!!

\*\*\*\*

Dilbar Nizamova Umida xolani chaqirib butun uyni tozalashini buyurdi

- Ha keyin Shoxruxni ham honasini tozalab qoy ! Qayta mehmonlar uchun honaga àylantir .

- Ammo Shoxrux chi ?

- Unga panajara ortida shinamgina hona tayorlab qoyishgan - deya bepisand gapirdi Dilbar Nizamova va mehmonhonadagi divanga oyogini chalishtirib otirdida qahvasini hopladi .

\*\*\*\*

- Ming lanat ! Ming lanat senga ilon .

- Oyi boldi tinchlaning - kelganidan beri qoliga tushgan narsani otib sindiryotkan Nigora Nizamovaga bosiqlik bn gapirardi Farruh

- Qanday tinchlik haqida gapiryabsan ? Qanday sokinliikk ? Hammasi chippakka chiqdi . Endi hech vaqoying yòq ... Ulishingdan ayrilding . Endi nima boladi ?

- Avval tinchlaning . Qon bosimingiz oshib ketadi

- Bu qanday boldi ? Kim ? Kim xiyonat qildi ? - hamon òziga telbalarcha gapirishdan tohtamasdi Nigora Nizamova

- Akmal va Kamila . Ikkisi ham mamlakatni tark etgan . Akmal avval boshidan mi yoki keyinchalik Dilbar Nizamovani qoliga tushgan . Ammo Kamila boshidan oq unga xizmat qilgan

- U qizni men òzim topkanman

- Yo Kamila haddan tashqari zukka va aqlli yoki Dilbar Nizamova . Bolar ish boldi . Endi suvdan quruq chiqishni oylash kerak . Shoxruxni ham

- UNUT UNI . ÒZINGNI OYLA !

- Ammo u men tufayli qamoqqa tushishini istamayman ! Uni bu yerda hech qanday aybi yòq . Bu XUDBINLIK

- Agar uni qutqaarmoqchi bolsak òzimiz choxga tushamiz . Yaxshisi vasiyatnomani kutamiz

- U Yòq

- Nima ? Qanaqasiga yòq boldi ? Men...men uni òz kòzlarim bn kòrdim . Sen ham

- Ha ammo endi u yòq ! Advokat ham

- Bu ham osha ilonni ishi . Òldiraman . Òldiraman - deya oshiqrdi Nigora Nizamova ....

\*\*

Dilbar Nizamova tortinchi qavatta ishlayotkan xizmatchilarga bir rov nazar tashlash uchun Shoxni honasiga chiqti

- Tohta ! - dedi Shoxni kiyimlarini avaylab chamadonlarga solyotkan xizmatchi qizga qarab - Bularni hammasini olda tashlab yubor .

- Ammo..

- Takrorlashim shartmi ? - deya sovuq va òtkir nigohlarini qizga qaratib jilmaydi

- Yòq . Hop boladi honim .

Xizmatchi kiyimlarni endi chemadonlarga emas katta qora paketlarga joylay boshladi . Barchasi eng songi modeldagi smokinglar , brend oyoq kiyimlar hatto kòzgu qarshisidagi atirlarni ham yigishtirib tashlab yuborishdi ....

Honaga chang yutgish solishdan avval jihozlarning joyini almashtirishdi . Shox toq rangni yaxshi kòrgani uchun honasi asosan qahvarang jihozlar bn bezatilgan edi . Endi ularni mehmonga taklif qilib bolmaydi ... Xizmatchilar jihozlarni almashtirib hamma narsani yigishtirishdi ..

Aslidaku bir hona bn uy kengayib qolmaydi . Ammo Dilbar Nizamova Shoxruxni nafaqat kompaniyadan hattoki uyidan ham quvib chiqotkanini zavq bn tamosha qilardi ....

Xizmatchi qizlardan biri paketlarni ustma ust qilib olib chiqotkan payt qolidan tushurib yubordi va paketlardan birini ichidagi narsalar yerga sochilib ketti

- Ehtiyot bolmasanmi ? Landovur ! - deya tanbeh berdi Dilbar Nizamova va sochilib ketgan narsalarni oyògi bn yigmoqchi bolib turtkan payt kòzi yerda yotgan tanish medalyonga tushdi .

Shu on Dilbarning qalbini qorquv egalladi ... Juda galati hislar qurshovida qoldi . Hayajon...soginch....ayriliq...azob.....alam...yolgizlik....nochorlik....ilojsizlik.

- Chiqib keting ! - deya shivirladi Dilbar Nizamova xizmatchilarga .

- Hamasi joyidami ? Honim yana biroz ish qoldi . Yarim soat bering tugatamiz

- CHIQ DEDIMM !!! - uning baqirigi va telbanamo boqotkan kòzlarini kòrib qizlar qòrquvdan otilib chiqib ketishdi .

Eshikni ichkaridan yopgach yerga otirib osha medalyonni qoliga oldi . Yurak shaklida . Ochilardi... Ochdi ham . Ichida oppoq atirgulni rasmi bor edi ... Ha bu osha ...

" Qanaqasiga ? Ahir bu ... Bolishi mumkun emas .! Men buni ... Oxshashlik ... Bu tasodif ... Bu shunchaki ahlat ..! Ahlat ..! Otmish ahlati ..! Yòq . Yòq . Yòq "

Kòzlaridan oqayotkan yoshlarni tohtata olmay qoldi . Goyo barchasi ostun ustun bolgandek . U allaqachon unutgan narsani eslagandek... Qalbidagi qorongu zulmatni umid uchquni yoritgandek boldi ...

20 yil avval ...

- Bola teskari kelyabti . Hoy qiz . Òlib qolmaysanmi ? - dedi òzini doyaligi bn maqtangan Rusta kampir ...

- Il...ti..mos.. qut..qa..ring oli...b qola..maaaaaannn - deya oğritan chinqirardi Dilbar .

Anvar bedarak ketgach Dilbar nima qilishini bilmadi . Bolani oldirishga kech edi . Homiladorligi malum bolgach òzi ishlaydigan qahvahona egasi yengiltak deya haydab yubordi

Qornida 6 oylik bola bn kochada ishsiz va uysiz qolgan Dilbar shaxar chetidagi òzi tanishgan va bir ikki marta yordam bergan kampirnikiga iltijo qilib bordi ... Rusta kampir ham insoniyligini yuqotmagan ekan Dilbarni uyiga kirgizib joy berdi . Shu vaqt mobaynida kampirni uyida goh non ham bolmay qolardi . 3 honali devorlari kochib tushgan sichqon ham in qilgan va har teshiktan suvarak bosh suqadigan bu joy Rusta kampir uchun jannat edi ... Dilbar qolida bor bir ikki chaqasini ham kampirga berdi ... Eson omon osha 3 oyni otkazib mana oy kuni ham kelgandi

- Chida qizim chida . Odamdan odam tugilyabti ahir . Oson ekanmi . Dilbar... qizim bola teskari kelmoqda . Bardam bol ! - dedi Rusta kampir . Ammo Dilbarni qulogiga sòz kirmasdi . Oğriq zòridan chinqirib yotardi ....

Ancha urinish va azobdan song chaqaloq dunyoga keldi . Ammo yiglamadi ... Kampir ham , bir òlimdan qaytgan Dilbar ham kòzlarini bolaga qadab yiglardi ...

- Òldimi ?

- Tovba de qizim . Nafas olyabtiku - deya Rusta kampir bolani ketiga bir ikki tushirgandi chinqirigi butun uyni tutti - Voy shumtakaye...!

Dilbar yarim tunda shiringina bolib uxlab yotkan qizchasini boshida turar ekan Rusta kampirning allaqachon uyquga ketganiga amin bolgach bolani orab quchoǵiga oldi kochaga otlandi . Yol yolakay hali ham uxlab yotkan bolaga gapira boshladi

- Sen meni tushunishing kerak ! Ahir hali yoshman . Ozim bolaman . Senga qanday qarayman . Ertaga nonushtaga nima yeyishimni bilmay , topolmay turib seni qanday katta qilaman . Men ona bololmayman . QOLIMDAN KELMAYDI . Sen esa yaxshi hayotga munosibsan . Mendan yaxshisiga . Seni ham onang boladi . Otang boladi ... Men bunga tayyor emasdim . Aldandim ... Qalbidagi yara bn seni qanday yaxshi kòraman ... Sen ham bir kun katta bolasan ... Va meni tushunasan ... ammo taqdiring menikiga oxshamasligi uchun meni hech qachon tushunmasang ham mayli deyman ... Men ishqtan kuygan insonman . Sen esa osha YARALANGAN ISHQ mevasisan ...

" Bolalar uyi " darvozasiga yetgach Dilbar chaqaloqni yerga qoydi . Darvoza tagida onasini issiq quchoǵidan va ovozidan uzoqlashganini sezgan bolakay yiglashga tushdi ... Huddi uni tashlab ketyotkanini his qilgandek ... Chinqirib yigladi ... Qayta Onasining issiq baǵriga qaytishni hohladi ... Kòzlarini ochib ulgurmay iforidan tanigan onasiga intildi ....qalban ...

- Jim bol ... tshsh... mana buni ol - deya Dilbar boynidagi medalyonni yechib chaqaloqning boshi tarafga qistirib qoydi ...- Bu osha otangni menga bergan yagona sovgasi ... sen esa ..! Alvido ...

Dilbar ornidan turib qadamini tezlatti . Hatto kimdir chiqib chaqaloqni olishini ham kuzatmay , kutmay keta boshladi . Ortidan kimdir quvgandek yugurdi ham ... ancha uzoqlashgach quloǵi ostida bolasining yigisi keldi... qalbi oǵridi . Hayolida toǵi qildimmi ? degan savol ham otti ... Huddi shu savolni kutgandek ongi ham

" Hali kop bolang boladi ... Uni ham unutasan .. Oylang hayotingni yolga qoygach balki uni oldiga qaytarsan ... " deya tinchlantirdi

Dilbar uyga kelib yotib uxhladi . Rusta kampirga nimalar qilganini ertalab yotigi bn tushuntirmoqchi boldi ...

Ertalab turib qarasa Rusta kampir hali ham uyǵonmagandi....va boshqa hechqachon uyǵonmadi ....



Yana yolgizlikta qolgach Dilbar òziga ish izladi ... Endi hayotida hechqanday tuygularga orin yòqligini uqtirib davom etti .... Oradan hash pash deguncha 11 yil ham otti ... Shu yillar mobaynida Dilbar qizalògi haqida eslamadi ham ... Huddi bu bir tushdek qabul qildi va unutti ...

Hayotida Aziz Nizamov paydo boldi . Òzini ayni gullagan yoshlik cho'gini yosh biznesmenga bahsh etti va òzi doyim orzu qilgan va hayol qilgan

" Yaxshi hayot " ga erishdi ...

\*\*\*

Hozir esa osha medalyonni qolida tutib turar ekan òzini yigidan

tohtatib turolmadi . Quvondi ... Qaygurdi .. Hayajonlandi ...

Nima qilishini bilmay gangib qoldi ...

Bu medalyon kimniki ? Kim osha qiz ? Va nega aynan Shoxruxni honasida ?

50-- Qism

Dilbar kòz yoshlarini artib yuzini muzdek suvda yuvdida pastka tushdi ...

Tog'ri oshxonaga bostirib borib Umida holaga yuzlandi ...

- Bu Shoxni honasida qayerdan paydo boldi ? - deya qolidagi medalyonni kòrsatti

- M..men bilmayman . Haligi bunaqasini birinchi bor kòrishim

- Uni honasida qiz bola kirganmidi ? Yoki bolmasa sevgan qizi bormidi ?

- Men bilaman - deya ortaga qoshilgan Zarina Dilbar Nizamovani qarashlaridan keyin gapini to'g'irladi - shekilli

- Gapir unda !

- Shoxrux Nizamovni honasiga bir qiz kirgandi . Kecha ham osha qiz yonida edi . Ismini Nargiz deyishdi . Menimcha sevgan qizi bolsa kerak ! Honasida ham telefonda necha bor gaplashganini eshtib qolgandim

- Gap boyladingmi ? - deya qizga tanbeh bermoqchi boldi Umida hola

- Bas ! Demak Nargiza shundaymi ?

- Ha

" Nargiza .... Nargiza ... Tanish ism ... Ahir ! "

- Assalomu aleykum men Nargiza Davletovaman ! - deya Aziz Nizamov tanishtirgan qizni esladi .

" Bu osha bolishi kerak ! "

Telefonida raqamlarni terib chaqiruvni bosdi

- Eshtaman honim .

- Mirzo . Menga Nargiza Davletova haqida malumot kerak . U jurnalistikada oqiydi . Uyimizga ham bir marta kelgan edi . Hozir q u haqida barcha malumot qolimda bolishi kerak

- Tinchalning . Ism va oqish joyi bn bir kunda topishim mumkin . Biroz sabr qiling !

\*\*\*\*\*

Nigora Nizamova klinikasida òz honasida boshini kursiga suyagancha hayol surardi ...

U òzi tushib qolgan orgimchak toridan qanday halos bolish va suvdan quruq chiqish haqida oylardi ...

“ Shoxruxni ayblashdan foyda yòq . Endi Farruhni hech vaqosi yòq . Bu daxshat . Meni oğlim bunday hayotta yashay olmaydi . U katta martabalarga loyiq . Vasiyatnoma ham yuqolgan . Bu birtarafdan yaxshi ham . Shunki endi bizning hechqanday merosxor emasligimizni isbotlay olishmaydi . Shoxrux qamalib ketsa uning mulkiga ogay onasi hojayinchilik qiladi . Bunga esa jim qarab turolmayman . Yòq !!!

Nigora Nizamova hayoliga yashin tezligida urilgan fikrdan ornidan turib ketti va yuziga golibona tabassum yugurdi... U topti . Yechimni topti . TOPTI !!!

\*\*\*\*\*

Nargiza yiglayverganidan kòzlari qizarib qovoqlari shishib ketgandi . Qizlar ham uni kòrib siqilishar Nodira esa ularni yupatolmay halak edi ...

- Nega bunday boldi ? Ahir kechagina otasidan ayrilgan bolsa endi bu ish ... Shoxrux akamga nimadir bolsachi !! - deya yana yiglashga tushdi

- Boldi yeee biz Shoxrux Nizamov haqida gaplashyabmiz . Nizamovlar òzini hafa qildirib qoyadiganlardan emas . Rahmatli Aziz Nizamovni esla ... Shoxrux u kishini oğli ahir ! - deya Nargizaga dakki berdi Madina

- Madinani gapida jon bor Nargiz . Ahir ular kazo kazo odamlar . Bu ishdan bemalol chiqib keta olishadi .. Boz ustiga Shoxruxni aybi bolmasa demak havotirga orin yòq - dedi bosiqlik bn Laylo - Men yana Jasur akamdan telefon qilib sòrayman .

Shu payt Nargizani qol telefoni bezovta jiringladi

Nargiza shoshib kotardida notanish raqamni kòrib biroz dovdirdadi

- A..l..oo
- Bu Nargizani raqamimi ?
- Assalomu aleykum ha men Nargizaman
- Vaaleykum assalom. Men Dilbar Nizamovaman .

Bu ovoz va sòzdan keyin Nargizani yuragi yorilay deb ura boshladi . Nafasi ham tezlashib hayajon bosti . Huddi hozir Dilbar Nizamova unga tashlanib haqorat qilib ayblaydigandek . Ammo hayolida bunga sabab yòq degan fikr kelgach biroz tinchlandida qizlarni oldida hozir deya chetka chiqdi

- Eshtaman Dilbar Nizamova
- Uchrashib gaplashib olsak boladimi ?
- A..? Hali..gi
- Yarim soatga vaqt ajrata olasanmi ?
- Haa ha albatta . Hop
- Yaxshi . Uyimga kel .
- Hop.

\*\*\*\*\*

Dilbar Nizamova qolida Mirzo bergan malumotni oqib chetka surdi .

Agar medalyon Nargizaniki bolsa ? Nargiza ham bolalar uyidan ? U ham yetim ! Yangi tuğilgan chaqaloqlik paytida tashlab ketishgan ! Buncha tasodif ...

Balki tan olishdan qòrqiyoatkandir . Ahir oson emas ! Agar Nargiza bir vaqtlar o'zi voz kechgan bola ekanligi aniqlansa ...

Dilbar bu hayotta Onalik tuyg'usini his qila olmadi . Bunga anchayin sabablarni keltirishi mumkun . Ammo konglining tub tubida endi buning javobini aniq bilardi ... Chunki U bunga loyiq emas !!! Agar Nargizadan ham shu so'zlarni eshtsachi ? Und nima boladi ? Balki hammasi shunday qolgani yaxshimikin ? YO'Q !!! U albatta buning tagiga yetadi va qizini topadi ! Ahir endi hamma narsasi bor . Pul , uy , molu davlat ( Dilbar Nizamova uchun " Yaxshi hayot " tushunchasini yaratadigan jamikiy narsalar . Ammo ularning yana bir nomi ham bor edi ... " O'tkinchi " ... )

Nargiza yana osha uy ostonasiga yetganda biroz turib qoldi ... Negadir kongli biron nohushlikni sezayotkandek kirishga oyog'i tortmayotkan edi , ammo kirishi kerak , shart!

- Assalomu aleykum ! – dedi Nargiza yutunib eshikni ochkan sariqsoch qizga ( Zarinaga )
- Vaaleykum assalom , siz ..?
- Nargizaman – bu gapdan song Zarina bir qoshini ko'tarib qaradida bu qizni qayerda ko'rganini esladi . U doyim ikki ko'zini Shoxruxga tikib qaraganidan yonidagi odamni ham payqamay qolardi .
- Kiring marhamat ...

Nargiza og'ir qadamlar bn ichkariga kirib qiz boshlagan tomonga yura boshladi ... Va mehmonhonoga yetgach tohtashdi . Divanda otirgan Dilbar Nizamovaniu ko'rgach battar hayajon bosdi . Huddi filmlarda ko'radigan Ogay onalar esiga tushdi . Xozir Nargizaga pul taklif qiladiyu og'lini tinch qoyishini so'raydi

- Nega qaqqayib turibsan ? – O'ziga qarab joyida qotib turgan Nargizadan so'radi Dilbar Nizamova – Otir .
- Assalomu aleykum
- Vaaleykum assalom
- Hamdardligimni qabul qiling . Aziz Nizamovning joylari jannattan bolsin !
- Omin ... Nargiza
- Ha
- Seni nega bu yerga chaqirganimni bilasanmi ?
- Yooq ( o'zini qorqinchli tahminlarini unutmochi bolib javob berdi Nargiza )

- Bu senikimi ? – stol ustiga qoyilgan medalyonni ko'rib Nargizni ko'zi chiqib ketay dedi ? O'z narsasi bu yerda ? Bu uyda ? Yana Dilbar Nizamovani qolida !!!

- H...ali...gi bu

- Hosh ? – qizga sinchkov tikilib har bir hatti harakatini va nigohini ilg'amoqchi boldi Dilbar

- Ha , ammo bu yerda

- Shoxruxni honasidan chiqti !

“ Bolishi mumkun emas ! Shoxrux akamda bu nima qiladi ? Ahir.. Ahir bunday bolmasligi kerak edi . Men u kishini honalariga bor yo'g'i bir marta kirdim ! U ham bazm kuni edi . Oshanda medalyonim yo'q edi . Ohirgi marta uni ... Unda qanday qilib ?.. Aqldan ozish hech gap emas . Kim degan odam boldim endi ??? Nima deyman ? Men haqimda yomon hayolga borgandir . shuning uchun ham chaqirgan . Nargiz tamomsan ! endi nima deysan ?! Balki Shoxrux akam bn uchrashuvga chiqqanda mashinasida tushurib qoldirgandirman ? Ammo men buni taqqanim esimda yo'q ! “

{ Bu osha qiz ... Meni qizim ... Osha ko'zlar ... Men hatto eplab qaramagan , yodimda qolmagan , iforini tuymagan hatto qornini ham toydirmay tashlab ketgan bolam...bolam..meni bolam . U juda chiroyli qiz bolibti , juda aqlli ham ... Menga deyarli oxshamaydi ... Faqat burni menikidek puchuq ekan . Anvarni burni katta . Qizniki ham shunaqa xunuk !

Meni qizim chiroyli ... Qosh ko'zlari osha ablahnikidek . Labi esa o'ziniki ... hechkimnikiga oxshamaydi ... Yuzi qizarib ketti ... Men ham yoshligimda sal narsaga shunaqa hayajonlanib uyalardim ... YO HUDOYIM NIMALAR QILIB QOYDIM ... U ulg'ayibti ...mensiz ... Otasiz , onasiz . Bolalar uyida . Men oylagan hayotta emas ! HECHKIM ASRAB OLMABTIII !!! Meni bolam yetimlik quchog'ida osibti . Nimalar qilib qoydim ... Men orzu qilgan erishgan hayotim unga nima bera oladi ? meni unga keragim yo'q ... Huddi bir vaqtlar uni menga keragi bolmagani kabi ... U endi onaga muhtoj emas ! Ulg'aygan ... orzulari va sevgani bor ... Shoxrux ! Taqdir oyinini qara .

Men doyim nafratlangan farzandsizligimga sababchi deb bilgan yigit menga farzandimni topib berdi ... Men endi nima qilaman ? Shoxruxni haqqini qanday ado etaman ? Nimalar qilib qoyding Dilbar ..? }

- Ahvolingiz yaxshimi ? – Nargiza hayolga berilib ketganidan ko'zidan yosh oqib tushyotkan Dilbarni yoniga otirib ko'z yoshlarini artti va bag'riga bosti – Hammasi yaxshi boladi ... Hudo hohlasi hammasi iziga tushib ketadi ... - Bu so'zlardan keyin Dilbar o'zini tohtata olmay qoldi Nargizani quchib yig'ladi ... Huddi shunday qilsa ko'z toshlari aybini yuvadigandek !

- M...Menman ! Osha se..ni tash...lab ket..gan ayo...I MENMAN QIZIM – Dilbar bu so'zlarni yig'i aralash valdiragan bolsa ham Nargiza aniq eshtti va Dilbarni bag'ridan boshatib ko'zlariga qaradi ... yosh tola ko'zlarida biri tokilsa biri shay turgan yoshlar bn qizini yuzini silayotkan Dilbar yana takrorladi

- MENMAN SENI ONANG MENMAN QIZIM !!! K...EECH..IR

- Nimalar deyotkaningizni bilyabsizmi ? Dilbar Nizamova o'zingizda emassiz ! Men yaxshisi keta qolay . Siz dam oling ! – Nargiza ornidan turgan ham ediki Dilbar uni qollariga yopishdi

- O'ZIMDAMAN . ENDI O'ZIMGA KELDIM .. KECHIR QIZIM KECHIR . KO'R BOLGAN ONANGNI KECHIR ..

MEN XATO QILDIM ! YOSH EDIM YOLG'IZ EDIM . O'ZIMGA ISHONCHIM YO'Q EDI ... SHUNCHALIK OJIZ EDIM BOLAM ..... SENI OSHA KUNI

" BOLALAR UYIGA "TASHLAB KETISHGA MAJBUR BOLDIM !!!

KECHIR KECHIR .... YOLVORAMAN BOLAM KECHIR KECHIIIRRR !!!

Nargizani nafasi tiqilib qoldi . Nima deyishini bilmay qoldi . U bir vaqtlar ota onasiga aytadigan bir dunyo gaplarni tizib yozgandiyu ko'mgandi . Bu bilan o'zini tirik yetimlikdan qutqarmoqchi boldi . Hayolida onasi boshqa qizni opib uxlatyotkanini yoki dadasining oyinchoq kotarib boshqa qizchani bag'riga olib oynatyotkani haqidagi hayollardan halos bolmoqchi bolgandi . Ammo xozirchi ? Endichi ?

" .... Kechirimli bolish qiyin emas ... Har qanday xatoni ham kechirsa boladi . Ammo bu ... afsuski hech narsani o'zgartirmaydi ... Singan ishonch va vayron bolgan qalbgga malham bololmaydi ... Kechirish bilan shunchaki osha insonni hayotingizdan butkul chiqarib tashlashingiz mumkun... chunki endi hayotingizda umuman orni ham vazifasi ham qolmaydi ... Nargiza ham ulg'aygach Ota onasini kechirdi va ular haqida butkul unutishga qaror qildi ... Qayerdadir oyla davrasida kulib otirgan otasining va chiroyli kiyinib bazmma bazm yuradigan onasini yomg'ir tagida Bolalar uyi orindig'ida kutib otiradigan farzandi bolishni hohlamadi ... Hech qachon kelmaydigan kundan umid qilishni tohtatti ... Konikdi ... Hatto kelgan oylalar ham unga emas boshqalarga mehr berib olib ketishiga konikdi ...

Unga yaqinlashib boshini silagan ayolni qolini siltardi “ Meni o'z onam bor . O'zi keladi va meni olib ketadi ! “ deya qaysarlik qilib xechkim bn ketmasdi ! Unga achinish va yosh tola nigohlar bn

qarashlaridan jahli chiqib honasiga qamalib olardi ... Ularni yomon ko'rardi medalyonini ushlab quchardida yig'lardi

“ Buni menga tashlab ketganlar keyin kelib adashmay topib olishlari u..chuu... “ gapi ohiriga yetmay hongrab yig'lardi ... Bor ovozida yig'lagan yosh bolani hechkim ovutolmasdi ... Bora bora bu ovoz ham avvalgidek baland chiqmay qoydi ... Endi ko'z yoshlarni unsizlikta tokardi va yoshlar qalbidagi umid uchqunlarini ham sondira boshladi .... “

“ Ammo hozir ... nega hozir ? Nega avval emas...nega boshida emas ? Nega nega nega nega !!!!!!! “

- Bolishi mumkun emas ! – dedi dona dona qilib Nargiza va Dilbar Nizamovani siltab tashqariga otildi ...

Mumkun emas ! Yo'q mumkun emas ! Bunday bolishi mumkun emas

Bekatga oz qolganda tohtab qoldi ...

Qolidan kelmadi ! Unsizlikni tutib turolmadi ... Va yana osha ovozda baqirib yig'ladi ... Uni endi yon atrofidagi achinish tola nigohlar ham , ayanchli va og'riqli otmish ham emas ! AYNAN HOZIR YIG'LATARDI ... hozir ...!

\*\*\*\*\*

- Tushunmadim ? Yana qanaqa noqonuniy ? Ahir bu biznes ! – deya o'zini soroq qilishlaridan jazavaga tusha boshlagan Zinnura ohiri ovozini bir parda kotardi !

Ammo bu uzoqqa chozilmadi . Advokati bn yetib kelgan Anvar Rashidov 10 daqiqadayoq qizini aybsizligini isbotlab hech qanday soroqlarsiz chiqarib oldi ...

- Tinchlan oppog'im . Sen shu yerda kutib tur . men ular bn gaplashib kelaman ! – dedi qizini boshini silab Anvar Rashidov

- Hop dadajon

Zinnura yolakta devorga suyanib turar ekan yolak boshidan , ikki militsiya hodimi ikki tomonidan qurshab kelyotkan Shoxrux Nizamovga ko'zi tushdi va otib ketyotkan payt tohtatti



- Shoxrux Nizamov – Qizni hatto payqamagan Shoxrux otib ketayotib ismini eshtida tohtadi va ortiga burildi ... qarshisidagi guzal qizga savol nazari bn tikildi

- Assalomu aleykum . Men Zinnura Rashidovaman . Kompaniyangiz aksiyalarini sotib olgan hamkor va ayni vaqtda hissador ! – deya o'zini mamnun tanishtirdi Zinnura .

Shoxruxning kayfiyati battar tushib ketdi . Ammo bir tomondan aksiyalarni bu qizcha olgan ekan ularni qaytarish qiyin bolmaydi deya oylab ham qoydi

- Tanishganimdan hursandman Zinnura Rashidova . yaxshi kunlaringizga ishlating !

- Tushunmadim ! Mendan kechirim so'rash niyatingiz yo'q shekilli

- Kechirim ? Aksiyalarni olganingiz yetmaydimi ?

- Ahir siz va osha aksiyalaringizni deb meni tergovga chaqirishdi

- Nahotki ajab bopti . Hamma joyga burun suqib yurmaslik kerak edi !

- Siz

- Ha men ! Yana nima ?

- Bezbet va yuzsiz ekansiz . Ahvolingizga ham o'zingiz aybdorsiz

- Va nihoyat . Bu fikringizga mutloq qoshilaman .

- Battar boling !

- Bundan yomoni bolmaydi . Ammo tilaklaringiz uchun benihoya minnatdorman . Izningizla ketsam uchrashuvim bor edi

- Menga desa o'tib ketmaysizmi !

- Naqadar iliq tilaklar !

Shox qizdan uzoqlashar ekan o'ziga o'zi tong'illab asabiylasha boshladi . Uchrashuv honasida esa uni suykli ammasi kutib turardi ...

- Assalomu aleykum ammajon !

- Vaaleykum assalom . yaxshimisan og'lim

- Yaxshiman , o'zingiz yaxshimisiz . Ancha òzingizni oldirib qoyibsz

- Fikru hayolim senda ... nima bolar ekan deya ...

- Hammasi yaxshi boladi . Men bu yerdan ozod va aybsz bolib chiqaman

- Ammo qanday bolam ? – Shox ammasining qollaridan mahkam ushladida unga Jasur bn tuzgan rejasini tushuntirdi – Agar Jasur buni uddalasa meni aybszligim isbotlanadi va Farruh ham meni tarafimni olsa oqlanaman amma

- Albatta bolajonim . Albatta . Farruh doyim sen tomonda boladi faqat ...

## 51 Qism

- Faqat sen bu yerdan eson omon chiqib ol . Anavu ogay ilon hamma narsani òzlashtirmoqchi . Uddalayabti ham . Akam rahmatli òzlaridan bir parcha qogʻaz ham qoldirolmabtilar afsuski ...

- Vasiyatnomanaing hojati yòq Amma . Men mulkimizni hechkimga berib qoymayman . Otamni merosi qayerdagi begonalarga qolmaydi !

- Albatta . Senga ishonaman.

\*\*\*\*

Jasur eng avvalo ishta Shoxni qoli yòqligini isbotlash uchun Kamilani qidiruvga tushib hattoki izquvar ham yolladi ....

Mamlakattan toʻgri Turkiyaga sayohat qilgan qushcha ham tòrga tez ilindi ... Bu uning ahmoqligidanmi yo bomasa befahmigidan ammo biron bir narsa aniqlay olishmadi ...

Kamilaning yagona aytgan sòzlari : Faaruh Nizamov ( Bu ism sharifni atash uchun Dilbar Nizamova unga ancha koop haq vada qilgan edi )

Jasur avvaliga ishonmadi , ammo Kamila abjirlik qilib Nigora Nizamova bn bolgan suhbatini yozib olganini aytib hatto eshtirdi ham . Jasur barini aniqlashtirgach bu haqida Shoxga aytmochi boldi va yolga tushdi . Ammo yarim yolga yetmasdan unga odamlaridan biri qongiroq qilib Kamilani qochirib yuborishganini aytib qoldi . Mashinada ortga qaytishga majbur bolgan Jasur Shoxga haqiqatni aytishni keyinga surdi

\*\*\*\*

Nargiza uyga kelib honasiga kirdi va joyiga yotib yostigini quchib oldi ... U uchun hamma narsa òz manosini yuqotgandek edi goyo ... Endi yiglamas...siqilmas...hatto qòrqmasdiham...hamma hamma

narsadan kongli qolib bolgandi .... yagona his qilyotkan narsasi esa bu charchoq edi .... U juda charchadi biroz uhlab olishi kerak edi ... Va shunday qildi ham ...kòzlarini yumib chuqur uyquga ketti

\*\*\*\*\*

Laylo praktikasi tugagach hamma hujjatlarini toʻgʻirlab klinikadan chiqdi va endi yolini davom ettirmoqchi bolgan payt ortidan kelga mashina signali uni tohtatti ...

Qop qora lasettining qoraytirilgan oynasi tushib unda Zuhra Karimovani aksi kòrindi ... Laylo boshqa vaqt bolganda bu ayolni tanimasligi tabiy edi , ammo Jasur unga oilaviy foto suratlarini kòrsatib hamma bilan yuzaki tanishtirgan edi ... Balki shuning uchundir Layloni hayajon bosdi... Bechora qiz umrida bunaqa qòrquvni his qilmagan edi ... Hatto oyoqlari òziga boysunmas , joyida toshdek qotib qolgandi ...

Old orindiqtan tushib mashinaning orqa eshigini ochib bergan haydovchi Layloni hayollarini chalgitti ...

Mashinaga biroz iymanib , uyalib qizarib , bazor otirgan Laylo yonidagi ayolning kòzlariga qarashga botina olmas ... qolidagi faylni tirnab turgandi ..

- Laylo sen ekansandaa - Zuhra Karimovaning ovozida biroz bepisandlik bor edi ... Buni Laylo ham sezdi ammo etibor bermadi

- Assalomu aleykum. Yaxshimisiz - dedi Laylo odob bilan

- Salomingni pishirib ye qizaloq ! - bunaqa javobni kutmagani uchun ham Layloning ustidan muzdek suv quyib yuborishgandek boldi . Zuhra Karimovaning kòzlariga tik boqib savol nazari bn tikilib turdi

- Nahotki òzingni meni oʻglimga teng kòrgan bolsang ! Lekin toʻgʻri osilsang baland dorga osil degan gap ham bor . Nu qizaloq korpaga qarab oyoq uzatish kerak ! Oʻglim oqimishli va aqlli yigit . Boy va kelishgan ... Har qadamida qizlar uchraydi ... Shunday aqli raso boy badavlat tagli tugli yigitga òzingni teng kòrdingmi ?

- Kechirasiz u ammo ishq molu davlatga nisbattan emas inson qalbiga nisbattan uyʻonadi . Jasur akamda konglim borligi rost . Ammo bir on bolsin ularning boyligiga kòz olaytirmaganman. Hudo guvoh men faqat ...

- Òchir . Bunaqa rollarni boshqa spektakllarning uchun asrab qoy ! Men seni noʻgoranga oynaydiganlardan emasman . Hullas mana buni olda - Zuhra Karimova sumkasidan semizgina konvertni oldida Layloni oyoʻgi ustiga tashladi - oʻglimni tinch qoy . Yana bir marta uni oldida oralashganingni kòrsam sharmandangni chiqaraman . Oqish u yòqda tursin hatto mana shu kochada ham odamdek bosh kòtarib yurolmaysan !

Layloni nafasi boʻgʻziga tiqilib gapirolmay qoldi . Kòzlaridan oqyotkan yoshlarni esa keti uzilmasdi . U nimadir demoqchi boldi ammo endi oʻgiz juftlagan ham ediki tashqarida ularni kutib turgan haydovchi Laylo tomonning eshigini ochdi ... Laylo bir zum Zuhra Karimovaga alam bn qarab song oyoqlari ustida turgan konvertni oldi... oldida mashinadan tushdi . Haydovchi Endi eshikni yopmoqchi bolgan payt konvertni ichkariga otib yubordi eshik yopildi .

Konvert Zuhra Karimovani yoniga kelib tushdi ... Laylo esa kòksi tola alam bn yolida davom etti ...

Laylo yol boyi yigʻlab ketti ... Unsiz ... U doyim alamini , qaygʻusini ichiga yutkan . Faqat òzi bn baham kòrgan ... Hechkinga hayotidan nolimagan ... Onasi va otasi bn yashagn damlarini eslaydi ... Bahtli va rang barang ... U shunday eslaydi ... Osha avtohalokatgacha barcha barchasi ajoyib edi ... Orqa orindiqta taqilgan kamar qisib qolgan Layloning nafasi tiqilib qolgani uchun zòrga qutqarib qolishgandi ... Ammo nima qilsin , unga yordam beradigan insonlar allaqachon bu olamni tark etishgandi ...

Laylo " Bolalar uyida " ham kamgap edi ... Savol berishsa javob berar , boshqa payt esa jim turar edi ... Òzi tengi sochini ikki tomondan tepaga yigʻib olgan qora kòz qizcha kelib unga teginaverardi ... Laylo unga indamas etibor bermas òz dardi bn ovor bolib yurardi ... Qizaloq esa har kuni uni yoniga kelib bir chimchilab ketar yoki sochidan tortardi ...

Bir kuni bolalar uyidagi katta yoshli , 9 yoshlar atrofidagi Samiya ismli qiz Layloni kamsita boshladi . Oyoʻgidagi bir poy paypogʻi yirtilib qolganini aytib rosa ustidan kuldi ... Laylo esa oyoʻgini quchib otirardi ... indamasdi ... otib ketadi derdi...bu kunlarim otib ketadi ... deb òzini ovutardi ..

- BAS QIL YALMOŒIZ - deya qichqirdi Layloga har kuni teginib yuradigan qiz Samiyaga qarab !

- Ohho himoyachi farishtasimisan ?

- Hozir sochlaringni bittalab yulsam oshanda kòrasan farishtani ! - 5 yashar qizning chuchuk tilidan chiqyotkan bu sòzlar Samiyani kulgusini qistadi

- Hoy qizaloq qani bor oyingingni oynab jiiim otir . Menga kattalik qilma . Yòqsa kòrsatib qoyaman

- Qòqib kettimdaaa - dedi boshini silkita turib qizaloq

- Hozir senimi - Samiya qizchani orqasidan quva ketti . Qizaloq abjirlik bn yugurib tashqariga otildi , Samiya ham ortidan chiqqan payt oyog'i loyga toyib yiqildi va usti boshi loy boldi ...

Bu ishi uchun tarbiyachisidan yaxshigina dakki eshtib jazo ham oldi .

Qizaloq esa Layloni qarshisiga keldida qolidan tortib opoqisini oldiga olib bordi

- Opoqii

- Hov shirinim - dedi yoshi 30 lardan oshkan ayol qizchani yuzlaridan chimchilab

- Dugonamni paypog'ini tikib bering . Sovqotyabtiiii

- Voy asalim... qanii... nimaga aytmading ???

- Uni tili yòq .

- Qanaqasiga ?

- Hech gapiiiiirmaaaydiii

- Asalim isming nima - deya Layloga yuzlandi Nafisa tarbiyachi

- Laylo - dedi sekingina boshini egib

- Voyy - dedi orqada turgan qizaloq - Baloday tili boor ekankuu , nimaga gapirmading ????

Laylo boshini egib jiiim otiraverdi . Nafisa qizni paypog'ini tikib oyog'iga kiydirib qoydi va qizlarga oyingoqlarni berib òzi chiqib ketti

